

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

B.UMAROV, X.ATAJANOV

**KORPORATIV HUQUQ
(o‘quv qo‘llanma)**

TOSHKENT – 2021

Toshkent davlat yuridik universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2021 yil 24 oktyabrdagi 1-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya qilingan.

UDK 341. 226 (575.1)

BBK 67.401

Taqrizchilar:

Saydaxmedov U.M., O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi Iqtisodiy huquq kafedra dotsenti;

Mamajanova H., Toshkent davlat yuridik universiteti Biznes huquqi kafedrası o'qituvchisi.

Ushbu qo'llanmada korporativ huquq fanidan talabalarga eng asosiy tushunchalar va konsepsiyalarni anglash uchun ishlab chiqilgan bo'lib, asosan korporativ huquqning amaliy jihatlarini yoritishga qaratilgan. Qo'llanmada Siz korporatsiya tushunchasi, korporatsiyalarni tashkil etish, ularning faoliyat olib borishi yoki tugatilishi davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy munosabatlarning huquqiy asoslarini o'rganasiz

O'quv qo'llanmadan professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, tadbirkorlar, sud va huquqni muhofoaza qiluvchi organlar xodimlari, yuristlar va iqtisodchilar, shuningdek yuridik oliy o'quv yurtlari magistratura va bakalavr bosqichi talabalari foydalanishlari mumkin.

© Umarov B, Atajanov X.

© Toshkent davlat yuridik universiteti, 2021 y.

MUNDARIJA

| | |
|--|-------------------------------------|
| Kirish | 4 |
| 1-mavzu. Korporativ huquqning umumiy qoidalari..... | 5 |
| 2-mavzu. Korporatsiyalar turlari..... | 11 |
| 3-mavzu. Xo‘jalik jamiyatlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish..... | 18 |
| 4-mavzu. Xo‘jalik jamiyatlari faoliyatining mulkiy asoslari | 22 |
| 5-mavzu. Korporativ boshqaruv va nazorat..... | 27 |
| 6-mavzu. Xo‘jalik jamiyatlarida aksiyador va ishtirokchilarning korporativ huquqlari va majburiyatlari | 36 |
| 7-mavzu. Xo‘jalik jamiyatlarida javobgarlikni huquqiy tartibga solish. kreditorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish | 43 |
| 8-mavzu. Xo‘jalik jamiyatlarida tuziladigan ayrim bitimlarni huquqiy tartibga solish | 51 |
| 9-mavzu. Korporativ ziddiyatlar va nizolar. Korporativ munosabatlar ishtirokchilari huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish..... | 60 |
| 10-mavzu. Chet ellarda tadbirkorlik faoliyatining korporativ shakllari (korporatsiyalar) | 67 |
| Korporativ qonunchilik: | Error! Bookmark not defined. |

KIRISH

Hurmatli talabalar! Ushbu qo'llanma korporativ huquq fanidan talabalarga eng asosiy tushunchalar va konsepsiyalarni anglash uchun ishlab chiqilgan bo'lib, asosan korporativ huquqning amaliy jihatlarini yoritishga qaratilgan. Qo'llanmada Siz korporatsiya tushunchasi, korporatsiyalarni tashkil etish, ularning faoliyat olib borishi yoki tugatilishi davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy munosabatlarning huquqiy asoslarini o'rganasiz.

Korporativ huquq hozirgi kunda eng talab katta bo'lgan huquq sohalardan biri desak adashmagan bo'lamiz. Shu bilan birga ba'zi insonlar korporativ huquqning boshqa huquq sohalaridan farqi haqida aniq tushunchaga ega bo'lmagani uchun mazkur huquq sohasini ahamiyatini to'laqonli anglay olmaydi.

Qo'llanma Biznes huquqi kafedrasida kafedra o'qituvchilari – X. Atajanov va B. Umarovlar tomonidan ishlab chiqilgan. Qo'llanma mazkur modul sillabusiga asoslangan bo'lib, unda har bir mavzu oxirida mavzuga oid nazariy savollar, testlar va muammoli vaziyatlar berib boriladi. Mazkur savollarga javob topish, ularni tahlil qilish va muammoli vaziyatlarni tahlil etish orqali Siz hozirgi davrdagi korporativ huquq sohasidagi dolzarb masalalarni tushunib borasiz.

Albatta, talabalar korporativ huquq fanini o'zlashtirishda mazkur qo'llanma bilan cheklanib qolmasligi lozim deb o'ylagan holda qo'llanmaning har bir mavzusiga oid qo'shimcha o'qish uchun manbalarni ham keltirib o'tganmiz

Umid qilamizki, ushbu qo'llanma Sizning korporativ huquq fanini o'zlashtirishda o'ziga xos yo'l ko'rsatuvchi asos bo'ladi deb umid qilamiz.

1-MAVZU. KORPORATIV HUQUQNING UMUMIY QOIDALARI

1. Korporativ huquq tushunchasi
2. Korporativ huquqiy munosabatlar tushunchasi va subyektlari
3. Korporativ huquq prinsiplari
4. Korporativ huquq manbalar
5. O‘zbek huquq doktrinasida korporatsiyalar

Korporativ huquq tushunchasi. Korporativ huquq – korporatsiyalarning shakllanishi, faoliyat yuritishi va tugatilishi bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarni o‘z ichiga oladi. Korporativ huquq ilmiy bilimlar sohasi sifatida korporativ normalarning doktorinal tadqiqotlar majmuasini, shuningdek korporativ huquqiy munosabatlar, jumladan, asosiy tushunchalarni aniqlash, tamoyillar, nazariyalarni yaratish va ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning amaliy jihatlarini ishlab chiqadi.

Korporatsiyalarning qisqacha tarixi. “Korporatsiya” so‘zi (qadimgi lotin tilidagi corporation) kasbiy yoki sinfiy manfaatlar asosida birlashgan hamjamiyat, birlashma, shaxslar guruhini bildiradi. “Corpus” atamasi bilan birga – “universitetlar” va “kollegiyalar” Qadimgi Rimda ishlatilgan, jumladan, faqat shaxslar ittifoqi emas, balki qoramol, otlar podasi yoki uy, kema kabi boshqa tushunchalar to‘plamini nazarda tutgan. Rim huquqi bo‘yicha olimlar fikricha, korporatsiya mohiyati ildizlarini qidiradigan bo‘lsak, “korporatsiya” tushunchasi lotincha “corpus habere” iborasidan kelib chiqib, yuridik shaxs huquqlarini anglatadi. Bunday huquqlar Rim imperiyasida xususiy birlashmalari uchun e‘tirof etildi (ikkinchi asrning 60-yildan boshlab), lekin yakunda Rimda fuqarolik-huquqiy birlashmalarining huquq sub’ektlari sifatida tan olinishi sodir bo‘lmadi.

Korporatsiya – ishtirok etish (a‘zolik) tamoyillariga asoslangan tashkilot bo‘lib, uni boshqarish maxsus organlar tizimini tashkil etish orqali uning ishtirokchilari (a‘zolari) manfaatlarini amalga oshirish uchun yaratiladi.

Endi korporatsiya tushunchalarini anglo-sakson va kontinental huquqda farqlanishini ko‘rib chiqamiz. Ingliz huquqida korporatsiya tushunchasi kontinental Yevropa huquqida korporatsiya tushunchasidan farq qiladi. Ingliz huquq tizimida korporatsiya mas‘uliyati cheklangan, mol-mulki boshqaruvdan ajratilgan, a‘zolik yoki ishtirokchilikka asoslangan, o‘tkaziladigan ulushlarga (share) ega bo‘lgan huquq sub’ekti bo‘lgan tashkilot (yuridik shaxs) hisoblanadi. Oddiy so‘zlar bilan aytganda, ushbu tijoratchi korporatsiyalar (business corporation) milliy huquqimizdagi xo‘jalik jamiyatlariga tashkiliy-huquqiy jihatdan mos keladi.

Henry Hansmann va Reinier Kraakman fikriga ko'ra, ingliz huquqida korporatsiyalar – biznes korporatsiya (business corporation) larning 5 ta asosiy tarkibiy xususiyatlari mavjud:

- 1) mustaqil yuridik shaxs (legal personality);
- 2) cheklangan javobgarlik (limited liability);
- 3) erkin o'tkaziladigan ulushlar (aksiyalar) (transferable shares);
- 4) kompaniya kengashi tarkibida markazlashtirilgan boshqaruv, korporatsiya nomidan uning organlari harakat qilishi (sentralized management under a board structure);
- 5) hissadorlarning xususiy kapitalga birgalikda egalik qilishi (shared ownership by contributors of equity capital).

Kontinental Yevropa tizimida (asosan Germaniya, Fransiya va Niderlandiyada) esa korporatsiyalar huquqi kengroq ma'noda tushuniladi.

Shirkatlar, xo'jalik jamiyatlariga o'xshash yuridik shaxslar, shuningdek a'zolik yoki ishtirok etishga asoslangan boshqa yuridik shaxslar korporatsiyalar sifatida qaraladi.

Bozor munosabatlarida yuridik shaxslarning asosiy turi bo'lgan korporatsiyalar yoki shaxslar uyushmalari (universitas personarum, Personenverbände) bo'lib, ular odatda o'z ishtirokchilarini mulklari evaziga muayyan ulushlar (aksiya, muayyan birliklar) bilan ta'minlaydi. O'z navbatida aksiyalar (ulushlar, paylar) ushbu tashkilotlar faoliyatiga a'zolikning (ishtirokchilikning) moddiy asosini tashkil etadi. Ushbu tizimda faoliyat yuritadigan yuridik shaxslar xo'jalik (savdo) shirkatlari va jamiyatlari hamda kooperativlaridir.

Hatto ijtimoiy-g'oyaviy (moddiy bo'lmagan) maqsadlar bilan faoliyat yurituvchi notijorat korporatsiyalar ham o'z faoliyatining moddiy asosini, avvalo, ularning ishtirokchilari (a'zolari)ning mulkiy badallari tashkil etadi, va odatda (iste'mol kooperativlari bundan mustasno) ularga o'z hissalariga nisbatan hech qanday huquq berilmaydi.

Mustaqil yuridik shaxs sifatida korporatsiya yana bir muhim xususiyatga ega. Uning ta'sisчилari (ishtirokchilari) nafaqat fuqarolik huquqining yangi sub'ektini yaratadilar, balki uning irodasini shakllantirishda o'zlari tashkil etgan yuridik shaxs organlari orqali ham ishtirok etadilar, so'ngra o'z shaxsiy irodasini unga bo'ysundiradilar (masalan, korporatsiya ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi tomonidan qaror qabul qilishda ozchilikda qoladi, hatto unda ishtirok etmaydi).

“Korporatsiya a'zolari o'z xohish-irodasini ifoda etib, yuridik shaxsning eng yuqori organi irodasini shakllantiradi. O'z navbatida korporatsiya a'zolari tomonidan shakllantirilgan Oliy organning irodasi korporativ yuridik shaxsning ijro etuvchi organi va korporatsiya ishtirokchilarining o'zlari uchun majburiy bo'lgan xatti-harakat rejimini yuzaga keltiradi.

Asosiy G'arbiy Yevropa huquqiy tizimlarida qonuniy tan olingan korporatsiyalar ro'yxati quyidagi sakkizta juda kichik an'anaviy tashkiliy-huquqiy shakllar majmui bilan cheklangan:

- yuridik shaxs bo'lmagan shaxslar birlashmasining uch turi - oddiy (shu jumladan yopiq), to'liq (nemis huquqida ochiq deb nomlangan), Shveysariya huquqida esa - jamoaviy va kommandit shirkat (jamiyat);

- yuridik shaxs bo'lgan beshta korporatsiya - aksionerlik jamiyati, kommandit aksionerlik (ko'pincha aksionerlik jamiyatining turi hisoblanadi), mas'uliyati cheklangan jamiyat, kooperativlar va notijorat uyushmalar (birlashma).

Shunday qilib, o'zbek huquqiga ham asos qilib olingan kontinental huquq doktrinasi (ta'limoti) korporatsiyaga turli xil biznes tashkilotlar: to'liq, kommandit shirkatlar, cheklangan va qo'shimcha javobgarlik shirkatlari, kooperativlar, shuningdek, tadbirkorlar uyushmalari (konsern, assotsiatsiya, xoldinglar)ni kiritadi. Shu bilan birga yana bir bor ta'kidlash lozimki, ko'pchilik davlatlarning qonun hujjatlarida, shu jumladan O'zbekistonda ham "korporatsiya" atamasi umuman qo'llanilmaydi.

Korporativ huquq manbalari quyidagilardan iborat:

Asosiy:

1. Konstitutsiya va qonunlar;
2. Boshqa normativ-huquqiy hujjatlar (Prezident farmonlari, hukumat qarorlari va boshqalar).

Qo'shimcha:

3. Korporatsiyaning ichki hujjatlari;
4. Huquqiy odatlar;
5. Sudlarning huquqiy qoidalari.

Korporatsiya ustavi. Ushbu mavzuda alohida ko'rib chiqadigan asosiy masalalardan biri korporatsiyaning ta'sis hujjati hisoblangan ustav e'tiborga loyiqdir. Ustav tashkilotning maxsus tashkiliy hujjatlaridan biri bo'lsa-da, ko'pchilik olimlar va mutaxassislar ushbu masalaga alohida urg'u bermaydilar.

Ustav tashkilotning ta'sis hujjati hisoblanib, ichki hayotini tartibga soladi va korporativ aktlar ierarxiyasida boshqa barcha hujjatlarga nisbatan yuqori hisoblanadi. Ichki hujjatlar ustavga zid bo'lmasligi kerak va bunday nizolar kelib chiqqan taqdirda ustavning qoidalari qo'llaniladi. Korporatsiya ustavini tasdiqlash va qonunlashtirishning maxsus tartibi mavjud.

Korporativ huquqiy munosabatlar – korporatsiyani tashkil etish, faoliyat yuritishi va tugatish munosabatlari bilan vujudga keladigan, huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardir.

Shunisi aniqki, korporatsiyaning o'zi majburiy sub'ekt bo'lib, ma'lum ma'noda korporativ munosabatlar mavjudligining ham shartidir.

Korporativ huquqiy munosabatlar sub'ekti korporatsiyaning aksiyadori (jamiyat ishtirokchisi) deb e'tirof etilishi lozim.

Korporativ huquqiy munosabatlar sub'ektlari qatoriga ko'pchilik olimlar va mutaxassislar xo'jalik jamiyatlarining boshqaruv organlari a'zolarini ham kiritadilar.

Shuningdek, ichki va tashqi korporativ munosabatlarni ham farqlash muhim.

Ichki korporativ munosabatlar turlari:

1. ta'sischi (ishtirokchi) va boshqa ta'sischi (ishtirokchi o'rtasida);
2. ta'sischi (ishtirokchi) va yuridik shaxs o'rtasida ;
3. ta'sischi (ishtirokchi) va menedjer o'rtasida;
4. ta'sischi (ishtirokchi) va yollanma xodim o'rtasida.

Tashqi korporativ munosabatlar turlari:

1. Korporatsiya va kontragentlar (hamkorlar) o'rtasida ;
2. Korporatsiya va kreditorlar o'rtasida;
3. Korporatsiya va iste'molchilar o'rtasida ;
4. Korporatsiya va davlat (davlat organlari) o'rtasida mavjud bo'ladi.

Korporativ huquq prinsiplari. Korporativ huquq prinsiplari bu korporativ munosabatlarni tartibga solishda eng muhim bo'lgan tamoyillarni o'z ichiga oladi. Korporativ huquq normalari aynan mazkur prinsiplar asosida yaratiladi va ularning bir xil amal qilinishini ta'minlashga qaratiladi.

- 1) proporsionallik prinsipi
- 2) ko'pchilik irodasining ozchilik irodasidan ustunligi (demokratiya prinsipi),
- 3) daromadni taqsimlashda tenglik prinsipi
- 4) korporatsiya boshqaruv organlari mustaqilligi prinsipi
- 5) korporativ huquqlarni suiiste'mol qilmaslik prinsipi
- 6) majburiyatni bajarishda iqtisodiy samaradorlik prinsipi

O'zbek huquqida barcha korporatsiyalar. O'zbek huquqida barcha korporatsiyalar yuridik shaxslardir. O'zbek huquqida korporatsiyaga xos quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) korporatsiya yuridik shaxs sifatida e'tirof etiladi;
- 2) korporatsiya – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar birlashmasi hisoblanadi;
- 3) korporatsiya o'z irodasiga ega; korporatsiyaning irodasi o'z a'zolarining umumiy manfaatlari bilan belgilanadi; korporatsiyaning irodasi o'z a'zolarining individual "irodasi"dan farq qiladi;

4) korporatsiya yuridik shaxs sifatida o'z a'zolidagi o'zgarishlardan mustaqil bo'lib qoladi;

5) korporatsiya – bu nafaqat ishtirokchilarning, balki ularning mulklarining, ya'ni ustav kapitaliga qo'shiladigan ulushlar va paylarning birlashmasidir;

6) ishtirokchilar tomonidan korporatsiyaga qo‘shilgan mulk unga mulk huquqi asosida tegishli;

7) korporatsiya a‘zolari korporativ munosabatlarning sub’ektlari sifatida korporatsiyaning o‘ziga ham va bir-biriga nisbatan ham huquq va majburiyat egalaridir;

8) korporatsiya – bu tashkiliy birlik bo‘lib, u boshqaruv organlarining mavjudligida ifodalanadi, ulardan eng oliysi a‘zolarining (ishtirokchilarning) umumiy yig‘ilishi hisoblanadi.

Korporatsiyalar turlari. Eng keng tarqalgan qarashlarni umumlashtirgan holda, korporatsiyalar qatoriga tijorat tashkilotlari – xo‘jalik shirkatlari, xo‘jalik jamiyatlari, xo‘jalik sherikliklari, ishlab chiqarish kooperativlari hamda notijorat tashkilotlar – assotsiatsiya (uyushmalar), iste‘mol kooperativlari va ishtirok etish yoki a‘zolik tamoyili asosida qurilgan boshqa notijorat tashkilotlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

Tijorat korporativ tashkiloti – o‘z faoliyatini boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan bir necha ishtirokchi (a‘zo) larning sa’y-harakatlarini birlashtirib, foyda olish maqsadida yaratilgan yuridik shaxs bo‘lib, ustav kapitali ma’lum qismlarga (ulushlar, aksiyalar, paylarga) bo‘linadi.

Notijorat korporativ tashkilot – ta’assischilari (ishtirokchilari) o‘z faoliyatini boshqarishda ishtirok etish huquqini (a‘zolik huquqini) qo‘lga kiritadigan, o‘z faoliyatining asosiy maqsadi sifatida foyda olishni ko‘zlamaydigan yuridik shaxs.

Nazariy savollar

1. Korporatsiya nima? Ingliz va Yevropa huquqida korporatsiya tushunchasi farqlarini tahlil eting.

2. Korporatsiya tushunchasini keng va tor ma’noda ochib bering.

3. Tijorat korporativ tashkiloti va notijorat korporativ tashkilotlariga ta’rif bering.

4. Korporatsiyalarni vujudga kelish tarixini qisqacha yoriting.

5. Korporatsiyaning eng asosiy xususiyatlarini tavsif bering.

6. Korporativ huquq alohida huquq sohasi hisoblanadimi kompleks huquq sohasi hisoblanadimi?

7. Korporativ huquq printsiplari va kontseptsiyalari bilish nima uchun foydali va ularga misollar keltiring.

8. Korporativ huquq manbalarini sanang. Ularga misollar keltiring.

9. Korporativ huquqiy munosabatlarni ochib bering. Tashqi va ichki korporativ munosabatlarni farqlang.

10. Korporativ huquqiy munosabatlar ishtirokchilarini sanab bering va ularni ta’riflang.

Kazuslar

1. “Start” MChJ ishtirokchilari korporativ nizo bo‘yicha sudga murojaat qilishdi. Sud ishini ko‘rishda qonun hujjatlari bilan birga MChJ ustavida belgilangan qoidalar hamda Oliy sud Plenumi qarorlaridagi ko‘rsatmalarni ham qo‘lladi. Bundan norozi bo‘lgan ishtirokchi mazkur ustav va Oliy sud Plenumi qarori huquq manbasi bo‘lolmasligi, ish faqatgina MChJ to‘g‘risidagi qonunda belgilangan normalar doirasidagina hal bo‘lishi lozimligini aytdi.

Ustav va Plenum qarori korporativ huquq manbasi bo‘ladimi? Ularni ishni hal qilishda qo‘llash qanchalik to‘g‘ri?

2. M.Akromov va S.Odilov birga biznes qilishga kelishishdi. Ular har biri alohida YaTT ham hisoblanishadi. Tanish advokat ularga oddiy shirkat shartnomasi tuzib birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish mumkinligini tushuntirishdi. M.Akromov va S.Odilov esa yangi biznes loyihasida tadbirkorlik faoliyatini o‘zlari boshqarmoqchi emasliklarini, ishni yaxshi tushunadigan biror boshqaruvchini tayinlashini bildirishdi. Oddiy shirkatda bunday imkoniyat bo‘lmasligi aytgan advokat ularga boshqa tashkiliy-huquqiy shaklda tadbirkorlik faoliyatini yurtishnitaklif etdi.

Siz ushbu tadbirkorlarga qaysi tashkiliy-huquqiy shaklda faoliyat yurtish maqsadga muvofiqligi yuzasidan maslahat bererdingiz.

Zaruriy adabiyotlar

1. Корпоративное право: учебник / Е.Г. Афанасева, В.Ю. Бакшинская, Е.П. Губин и др.; отв. ред. И.С. Шиткина. 2-е изд., перераб. и доп. М: КНОРУС, 2015. -С. 9-77

2. Kraakman et al., The Anatomy of Corporate Law- A Comparative and Functional Approach, 2 ed., Oxford University Press.

3. Paul L. Davies, Sarah Worthington. Gower’s Principles of Modern Company Law 10th ed (eBook). Sweet & Maxwell Ltd. 2016. -P. 7-25

2-MAVZU. KORPORATSIYALAR TURLARI

- 1. Aksiyadorlik jamiyati**
- 2. Mas'uliyati cheklangan jamiyat**
- 3. Xo'jalik shirkatlari**
- 4. Ishlab chiqarish kooperativi**
- 5. Ishtirokchilikka asoslangan notijorat yuridik shaxslar**
- 6. Korporativ birlashmalar**

Milliy huquqimizda korporatsiya turlari (kontinental Yevropa huquqida korporatsiya tushunchasi asosida): xo'jalik jamiyatlari; xo'jalik shirkatlari; ishlab chiqarish kooperativlari; korporativ uyushma (xolding)lar; a'zolikka asoslangan notijorat tashkilotlardan iborat.

Xo'jalik jamiyatlari dunyoda universal va eng keng tarqalgan jamoaviy tadbirkorlikning klassik shakli hisoblanadi. O'zbek huquqida xo'jalik jamiyatlarining uchta tashkiliy-huquqiy shakli mavjud:

1. aksiyadorlik jamiyati;
2. mas'uliyati cheklangan jamiyat;
3. qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat.

Odatda, aksiyadorlik jamiyatlari – yirik kapitalni birlashtirishning huquqiy shakli bo'lib, mas'uliyati cheklangan jamiyat va shirkatlar esa kichik biznes sub'ektlari uchun mos hisoblanadi.

Xo'jalik shirkatlari (shaxslar birlashmasi) va xo'jalik jamiyatlari (kapital birlashmasi) o'rtasidagi umumiy xususiyatlar sifatida quyidagilarni aytib o'tish mumkin:

1.Ularning barchasi tijorat tashkilotlari, ya'ni tashkil etilishining asosiy maqsadi foyda olishga qaratilgan huquq sub'ekti bo'lgan yuridik shaxslardir. Shirkatlar ham, jamiyatlar ham fuqarolik huquqlariga ega bo'lishi va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan fuqarolik majburiyatlarini bajarishi mumkin.

2.Xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarining tadbirkorlik faoliyatining boshqa shakllaridan farqlovchi va ularni bir-biri bilan birlashtiruvchi o'ziga xosligi shundaki, ularning xo'jalik faoliyati natijasida olingan foyda ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi. Foydani taqsimlashning shartlari va tartibi aniq tashkiliy-huquqiy shakllar bilan belgilanadi.

3.Xo'jalik shirkatlarida kapitalni birlashtirish, xo'jalik jamiyatlarida esa ustav kapitali ishtirokchilarning hissalaridan (ulushlaridan) tashkil topadi. Ishtirokchilarda ustav (jamlanma) kapitaldagi ulushning mavjudligi jamiyat (shirkat)ning mulkiga

nisbatan ashyoviy huquqlarni yuzaga keltirmaydi, chunki ulush qonun bilan yuridik shaxslarga – shirkat yoki jamiyatga mulk huquqi asosida tegishlidir.

4. Xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlarining huquq va majburiyatlari mazmuni ko‘p jihatdan bir-biriga o‘xshash. Ishtirokchilarning nomulkiy yoki tashkiliy-boshqaruv huquqlariga quyidagilar kiradi:

- shirkat (jamiyat) ishlarini boshqarishda, shu jumladan umumiy yig‘ilishlarda ovoz berish yo‘li bilan ishtirok etish huquqi va nazorat qilish huquqi. Kommandit shirkatlar hissadorlari va aksiyadorlik jamiyati imtiyozli aksiyalar egalari huquqiy holatini o‘ziga xosligi (ba‘zi hollarda, imtiyozli aksiyalar ham boshqarishda ishtirok etish uchun imkoniyat beradi), ularning boshqarish va nazorat etishda ishtirok etish huquqlariga ega emasligi;

- shirkat (jamiyat) faoliyati haqida ma‘lumot olish va uning buxgalteriya hisobotlari va boshqa hujjatlari bilan tanishish.

Xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari ishtirokchilarining mulkiy huquqlari qatoriga quyidagi huquqlar kiradi:

- ulush sifatida kiritilgan kapital bo‘yicha foizlar yoki aksiyalar bo‘yicha dividendlar olish yo‘li bilan foydani taqsimlashda ishtirok etish;

- tugatish kvotasi uchun, ya‘ni shirkat yoki jamiyat tugatilgan taqdirda kreditorlar bilan hisob-kitoblardan keyin qolgan mol-mulkning bir qismini yoki uning qiymatini olish.

Xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari ishtirokchilarining umumiy majburiyatlariga, xususan, quyidagilar kiradi:

- ta‘sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda, summalarda, usullarda va muddatlarda hissalarini kiritish;

- shirkat yoki jamiyat faoliyati haqidagi maxfiy ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik.

| Taqqoslash uchun asoslar | Xo‘jalik shirkatlari | Xo‘jalik jamiyati |
|--|---|---|
| Ishtirokchining yuridik shaxs majburiyatlari yuzasidan javobgarligi | To‘liq sheriklarning solidar javobgarligi shirkatning javobgarligiga subsidar ravishda qo‘llaniladi (mol-mulk kam bo‘lgan taqdirda) | Javobgarlik yo‘q. Ishtirokchilar (aksiyadorlar) ning o‘z hissalarini qiymati doirasidagi zararlarning tadbirkorlik xatari |

| | | |
|---|---|---|
| Ishtirokchilarning tarkibi | Yakka tartibdagi tadbirkorlar va tijorat tashkilotlari | Yuridik va jismoniy shaxslar, qonun hujjatlarida taqiqlanganlar bundan mustasno |
| Ishtirokchilar tarkibida o'zgarishlar bo'lish imkoniyati va oqibatlari | Ishtirokchining "chiqishi" sheriklikni bekor qilishni talab qiladi, agar qolgan ishtirokchilarning ta'sis shartnomasi yoki kelishuvida boshqa narsa nazarda tutilmagan bo'lsa | Jamiyatda a'zolikning erkin tugatilishi mumkinligi, MChJda aksiyadorlik jamiyatlarida (ishtirokchilar) va (yoki) jamiyat tomonidan aksiyalarni (hissalarni) imtiyozli sotib olish huquqini oldindan qo'llash mumkinligi |
| Faoliyatni tashkil etish | Shirkat ishlari bevosita ishtirokchilar (shariklar)ning o'zlari tomonidan yuritilishi | Jamiyat o'z faoliyatini boshqaruv organlari yordamida amalga oshiradi |
| Huquqiy tartibga solish tabiati | Dispozitiv-qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ishtirokchilarning o'zaro kelishuviga asosan | Aksariyatda imperativ (ayniqsa, AJ uchun) - qonunga muvofiq; Nizomda ixtiyoriylik-faqat qonun hujjatlarida belgilangan chegaralar doirasida |

Aksiyadorlik jamiyati. “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga ko‘ra, **aksiyadorlik jamiyati** – ustav kapitali aksiyadorlarning jamiyatga nisbatan huquqlarini tasdiqlovchi ma’lum miqdordagi aksiyalarga bo‘linadigan tijoratchi tashkilotdir.

Tadbirkorlik faoliyatining ushbu tashkiliy-huquqiy shaklining o‘ziga xos xususiyati chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar - aksiyalarni joylashtirish orqali ustav fondini shakllantirishdir.

Har qanday yuridik va jismoniy shaxslar jamiyat aksiyadorlari bo‘lishi mumkin.

Aksiyadorlik jamiyat ustavi AJning ta’sis hujjati hisoblanadi. Olimlar fikricha, aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish to‘g‘risidagi ta’sis shartnomasi

o‘zining yuridik tabiatiga ko‘ra birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnoma hisoblanadi.

Mas’uliyati cheklangan jamiyat. Tarixiy prototiplari yoki modellari bo‘lmagan mas’uliyati cheklangan jamiyat (Gesellschaft mit beschränkter Haftung, GmbH) yuridik tuzilmasi sun’iy ravishda Germaniya Adliya vazirligi tomonidan yaratilgan va 1892 yil 20 aprel kuni qonun sifatida qabul qilingan.

O‘sha paytlar Germaniyada aholidan turli va’dalar bergan holda pul yig‘ish orqali aksiyadorlik jamiyatlarini ommaviy (tartibsiz) ravishda tashkil etish natijasida paydo bo‘lgan murakkab vaziyatni («gründen» davri - nemischa gründen - yaratish, topish, ta’sis etish) hal qilish uchun juda muvaffaqiyatli urinish bo‘ldi. O‘sha davrdagi qonunlar liberalizmidan foydalangan holda juda yuqori daromad keltirishni va‘da qilgan foiz stavkalari Germaniya aksiyadorlarini ko‘plab firibgarliklar va boshqa suiiste’molliklar qurboni bo‘lishiga olib kelgan.

Mazkur tashkiliy-huquqiy shaklni yaratishdan maqsad kichik va o‘rta tadbirkorlarga nisbatan kichik kapital va unchalik ko‘p bo‘lmagan ishtirokchilardan iborat huquq sub’ekti (yuridik shaxs) - korporatsiyalarni tuzish imkonini berdi, shu bilan birga mazkur korporatsiyaning ishtirokchilari tarkibining o‘zgartirishga keng imkoniyat bermasligi uning ustunligi bo‘ldi. Chunki, MChJlarda ta’sischilarning shaxsi muhim o‘rin egallaydi, aksiyadorlik jamiyatlarida esa bunday “shaxsiy element” mavjud emas.

Mas’uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan tashkil etilgan xo‘jalik jamiyati bo‘lib, uning ustav kapitali ta’sis hujjatlari bilan belgilangan hajmdagi ulushlarga bo‘linadi.

Qaysi jihatlar MChJni biznes yuritish uchun eng jozibador tijorat tashkiloti turiga aylantiradi? Avvalo bu - aksiyalarni chiqarish va joylashtirishning hojati yo‘qligi, ustav kapitalini juda tez oshirish qobiliyati (shu bilan birga, ishtirokchilarning “ichki zaxiralari” tufayli), o‘z faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilish zarurati yo‘qligi munosabati bilan biznesni amalga oshirishda maxfiylikning yuqori darajasi; begona (uchinchi) shaxslarning jamiyat tarkibiga kirishiga cheklovlarining mavjudligi, ustavda ulushning uchinchi shaxslarga o‘tkazish imkoniyatini ko‘rsatilishi, ya’ni jamiyatda sanksiyalanmagan ishtirokchilarning o‘zgarishidan himoya qiladi; jamiyat faoliyatini imkonsiz yoki sezilarli darajada faoliyatiga to‘sqinlik qiladigan ishtirokchini chiqarib yuborish imkoniyati; oddiy boshqaruv tartibi, shu jumladan boshqaruv modelini yanada moslashuvchan tanlash imkoniyati va kompaniya organlarining vakolatlari; AJga nisbatan yuridik tartibga solishning ancha keng dispozitivlik darajasi va MChJning ichki munosabatlarni tashkil etishda sezilarli darajada erkinligi.

Xo‘jalik jamiyatlari o‘rtasidagi eng muhim farq, aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalining tuzilishi aksiyalardan iborat bo‘lsa, mas’uliyati cheklangan

jamiyatlarda ishtirok etish hissalarini, ularning huquqiy tabiati uzoq vaqt davomida davom etayotgan munozaralar mavzusiga aylanmoqda. Mas'uliyati cheklangan jamiyat ustav kapitalida ulushning yuridik tabiati haqida bir qancha qarashlar mavjud: **ashyoviy-huquqiy, majburiyat-huquqiy, mulkiy-huquq va korporativ-huquqiy**. Bu haqda qo'shimcha manbalardan o'qib olishni tavsiya qilamiz.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilari yuridik shaxslar va fuqarolar, shu jumladan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmaydigan jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin. Mas'uliyati cheklangan jamiyat, aksiyadorlik jamiyati kabi, uning yagona ishtirokchisi bo'lgan bir shaxs tomonidan tashkil etilishi mumkin. Jamiyat keyinchalik ham bitta a'zodan iborat jamiyat bo'lib qolishi mumkin.

MChJ ishtirokchisining huquqiy maqomining o'ziga xos xususiyati uning jamiyatdan chiqish huquqi taqdim etilishidir.

Jamiyat ishtirokchisini jamiyatdan chiqarish imkoniyati bu turdagi korporatsiyaning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Ishtirokchini mas'uliyati cheklangan jamiyatdan chiqarish faqat umumiy ulushi jamiyat ustav kapitalining kamida 10% ni tashkil etadigan ishtirokchilarning iltimosiga ko'ra sud tartibida amalga oshirilishi mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat ustav kapitalidagi ulushni (ulushning bir qismini) o'tkazish muayyan tartibga rioya qilish zarurati bilan ancha murakkablashadi (MChJ to'g'risidagi qonunning 20-moddasi). Bu, ayniqsa, ulushni yoki uning bir qismini uchinchi shaxslarga o'tkazish, shuningdek, uchinchi shaxslarni jamiyatga qabul qilishga taa'luqli.

Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat – ustav kapitali ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdordagi hissalariga bo'lingan jamiyat; unday jamiyatning ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli mol-mulklari bilan hamma uchun bir xil bo'lgan va qo'shgan hissalarini qiymatiga nisbatan jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilanadigan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo'ladilar.

Xo'jalik (savdo) shirkatlari. Umumiy majburiyatlar uchun cheksiz shaxsiy mulkiy javobgarlikka tortiladigan shaxslarning birlashmalari sifatida sheriklik qilish tarixan korporatsiyalarning birinchi shakllari bo'lgan. Biroq, ko'plab G'arbiy Yevropa huquqiy tizimlarida ular hali ham to'liq huquq sub'ekti emas, faqat tijorat huquqining yuridik shaxslari hisoblanib, biroq fuqarolik huquqining mustaqil sub'ektlari qatoriga kirmaydi.

To'liq (ochiq) shirkat O'rta asrlarda G'arbiy Yevropada birinchi navbatda o'z biznesini davom ettirishga kerak bo'lgan marhum savdogarning merosxo'rlari (o'g'illari) birlashmasi sifatida vujudga kelgan. Italiyada korporatsiyaning bu shakli 13-asrdan boshlab **societas fratrum** yoki **compagnia** deb ataladi.

Bu borada klassik misol sifatida aka-uka Ulrix, Georg va Yakob Fuggerlar tomonidan imzolangan eng qadimgi mashhur sheriklik shartnomasi asosida 1494 yilda Germaniyaning Augsburg shahrida Fugger bank uyini yaratilganligini ko'rsatish mumkin. Ushbu turdagi korporatsiyaning to'g'ridan-to'g'ri qonun bilan tartibga solinishi birinchi bor fransuz qonunchiligida o'z aksini topgan (1673 yilda Tijorat to'g'risidagi Qirollik Ordonansi qabul qilingan va unda u société générale deb atalgan va 1807 yildagi Savdo kodeksida "umumiy shirkat nomi ostida" – société en nom collectif u o'zining zamonaviy nomini olgan).

Shirkat ishtirokchilari maqomining eng muhim huquqiy xususiyatlari uning faoliyatida shaxsan ishtirok etishi va qarzlari yuzasidan shaxsiy javobgarligidir. Bu boshqa ishtirokchilar bilan nisbatan uzoq va ishonchli munosabatlar zarurligini anglatadi, bu umumiy qoida sifatida ishtirokchini almashtirishni istisno qiladi va uning chiqishida shirkatni tugatishni talab qiladi. To'liq shirkatlarning har bir ishtirokchisi bir vaqtning o'zida uning organidir (o'z-o'zini tashkil etish prinsipi – Selbstorganshaft); yollanma rahbarlar yoki boshqa uchinchi shaxslar ishtirokida boshqa organlar odatda yaratilmaydi. Shuning uchun, ishtirokchining shaxsiyati (identifikatsiyasi) sheriklik uchun juda muhimdir hamda shirkatning o'zi umumiy tabiatiga ko'ra odatda shaxslarning birlashmasi sifatida tavsiflanadi.

Ishlab chiqarish kooperativi. Ishlab chiqarish kooperativi (artel) – fuqarolarning birgalikdagi ishlab chiqarish va boshqa xo'jalik faoliyatiga a'zolik asosida ularning shaxsiy mehnatiga yoki boshqa shakldagi ishtirokiga va mulkiy pay badallariga asoslangan ixtiyoriy birlashmasi.

Amaldagi qonunchilikda mavjud bo'lgan ishlab chiqarish kooperativini belgilash uni tadbirkorlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biri sifatida tavsiflovchi barcha xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Bu xususiyatlar o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- ixtiyoriylik asosida yuzaga keladi;
- a'zolik ishlab chiqarish kooperativini tashkil etish tamoyili sifatida;
- ulush hajmidan qat'iy nazar ishtirokchilarning teng huquqliligi;
- faoliyat usuli – o'zaro yordam va o'z-o'zini faollashtirishga asoslangan;
- boshqaruvni tashkil etish-elektoratga va o'z-o'zini boshqarishga asoslangan;
- ishlab chiqarish va boshqa xo'jalik faoliyatini birgalikda amalga oshirish.

Korporativ uyushmalar. Xolding. Xoldinglar bozor munosabatlarida iqtisodiy nazorat munosabatlariga asoslangan tijorat tashkilotlari uyushmasining eng keng tarqalgan shaklidir.

Bir ishtirokchining boshqalar ustidan iqtisodiy nazoratining mavjudligi xolding birlashmasining asosiy xususiyati, uni tashkil etishda asosiy element hisoblanadi.

Xolding – iqtisodiy aloqadorlik (bog‘liqlik) ka asoslangan tashkilotlar (ishtirokchilar) guruhi bo‘lgan biznes uyushmasining shakli bo‘lib, uning ishtirokchilari rasmiy huquqiy mustaqillikni saqlagan holda o‘z ish faoliyatida guruh a‘zolaridan biri, ya’ni xolding kompaniyasi (bosh tashkiloti) ga bo‘ysunadilar.

Notijorat tashkilotlarining korporativ shakllari. Assotsiatsiya (uyushma) – bu yuridik shaxslarning va (yoki) fuqarolarning ixtiyoriy yoki qonunda belgilangan hollarda majburiy a‘zolikka asoslangan va umumiy, shu jumladan kasbiy, manfaatlarni, qonunga zid bo‘lmagan ijtimoiy foydali va boshqa maqsadlarga erishish uchun yaratilgan birlashmasidir.

Nazariy savollar

1. Korporatsiyalarning umumiy xususiyatlarini sanab bering va izohlang.
2. Korporatsiyalar shaxslar birlashmasi yoki kapital birlashmasi deganda nimani tushunasiz?
3. Aksiyadorlik jamiyatini korporatsiya sifatida o‘ziga xosliklarini yoritib bering.
4. Mas’uliyati cheklangan jamiyatni korporatsiya sifatida o‘ziga xosliklarini yoritib bering.
5. Xo‘jalik shirkatini korporatsiya sifatida o‘ziga xosliklarini yoritib bering.
6. Ishlab chiqarish kooperativini korporatsiya sifatida o‘ziga xosliklarini yoritib bering.
7. Matlubot kooperativini korporatsiya sifatida o‘ziga xosliklarini yoritib bering.
8. Xoldinglarni korporatsiya sifatida o‘ziga xosliklarini yoritib bering.
9. Aksiyadorlik jamiyati va mas’uliyati cheklangan jamiyatlarni tashkiliy-huquqiy belgilarini jadval shaklida qiyoslang.
10. Xo‘jalik shirkati va mas’uliyati cheklangan jamiyatlarni tashkiliy-huquqiy belgilarini jadval shaklida qiyoslang.

Kazuslar

1. “ANSAR” MChJ yagona ta’sischisi (ishtirokchisi) M.Abdurahmonov hisoblanadi. Ustav fondi 10 mln so‘m. U MChJ direktori etib o‘z do‘sti J.Qayumovni tayinladi. MChJ savdo faoliyati bilan shug‘ullanadi. Pandemiya oqibatida MChJ savdo hajmi tushib ketdi. Natijada MChJ o‘z etkazib beruvchilari oldida va soliqdan katta miqdorda qarzdor bo‘lib qoldi.

MChJ barcha aktivlarini sotib, qarzlarni to‘lashga harakat qildi. Biroq, ular barcha qarzni to‘lashga etmadi, 100 mln so‘m qarz to‘lanmay qoldi.

Natijada davlat soliq inspeksiyasi sudga murojaat qilib, 100 mln so‘mlik soliq qarzini ishtirokchi M.Abdurahmonovdan undirishni so‘radi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

2. Mebel ishlab chiqarish va sotish sohasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar o'z huquqlarini himoya qilish, davlat organlarida soha tadbirkorlari manfaatlarini ilgari surish, o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish uchun notijorat birlashma tashkil etishmoqchi bo'lishdi.

Unda a'zolarining mulkiy, boshqaruvga oid huquqlari, shuningdek uyushmani boshqarish tartibi va a'zolik badallarini kiritish bo'yicha maslahat so'rab sizga murojaat qilishdi.

Ushbu notijorat korporatsiya – uyushmaning o'ziga xos xususiyatlarini va tashkil etish tartibini haqida batafsil huquqiy maslahat bering.

Zaruriy adabiyotlar:

Корпоративное право: учебник / Е.Г. Афанасева, В.Ю. Бакшинская, Е.П. Губин и др.; отв. ред. И.С. Шиткина. 2-е изд., перераб. и доп. М: КНОРУС, 2015. С. 120-223

R. Romano. Foundations of Corporate Law. New York: Oxford Univ. Press, 1993. S. 50-78

Carsten Gerner-Beuerle, Michael Anderson Schillig. Comparative Company Law. OUP Oxford. 2019. S. 70-130

3-MAVZU. XO'JALIK JAMIYATLARINI TASHKIL ETISH, QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

1. Xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish

2. Xo'jalik jamiyatlarini qayta tashkil etish

3. Xo'jalik jamiyatlarini tugatish

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida xo'jalik jamiyatlari – mas'uliyati cheklangan jamiyat yoki aksiyadorlik jamiyatlarini **ta'sis etish** yoki mavjud bir yoki bir necha yuridik shaxslarni **qayta tashkil etish** yo'li bilan tuzilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi

Xo'jalik jamiyatini yaratish tartibida quyidagi bosqichlarni ajratish maqsadga muvofiq:

- 1) ta'sis hujjatlarini ishlab chiqish;
- 2) xo'jalik jamiyatini ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qilish (ta'sis yig'ilishini o'tkazish, shu jumladan jamiyat organlarini shakllantirish);

- 3) jamiyatni davlat ro'yxatidan o'tkazish;
- 4) ustav fondini belgilangan muddatda (ko'pi bilan bir yil) shakllantirish.

Ta'sis etish yo'li bilan jamiyatni tashkil etish uning muassislaridan biri yoki bir nechta qarori bilan amalga oshiriladi. Jamiyatni tashkil etish to'g'risidagi qaror ta'sis yig'ilishi (AJga nisbatan) yoki jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi (MChJga nisbatan) tomonidan qabul qilinadi. Jamiyat bir kishi tomonidan tashkil etilishi mumkin bo'lgan holat bo'lishi mumkin.

Umumiy qoidaga ko'ra, yuridik shaxs (jamiyat)ning ta'sischilari fuqarolik huquqining zaruriy yuridik layoqat va muomala layoqatiga ega bo'lgan har qanday sub'ektlari: jismoniy va yuridik shaxslar bo'lishi mumkin.

MChJ ishtirokchilari soni ellikdan oshmasligi kerak. Aksiyadorlik jamiyatida esa ta'sischi va aksiyadorlar soni esa cheklanmaydi.

Jamiyatni tashkil etish jarayoniga vositachilik qiluvchi asosiy masalalar bo'yicha qarorlar AJning ta'sis yig'ilishida yoki MChJ ishtirokchilarining umumiy yig'ilishida qabul qilinadi.

Ta'sis yig'ilishi – bu ta'sischilarning ta'sis etish yo'li bilan xo'jalik jamiyatini tashkil etish masalasi bo'yicha qo'shma yig'ilishidir.

Ta'sis yig'ilishida bir necha masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilinadi:

- 1) kompaniyani tashkil etish;
- 2) ustavni tasdiqlash;
- 3) qimmatli qog'ozlarni, boshqa narsalarni, mulkiy yoki pul qiymatiga ega bo'lgan boshqa huquqlarni va ta'sischilar tomonidan aksiyalarni, ishtirokchilarning aksiyalarini (hissasini) to'lash uchun amalga oshiriladigan pul bilan baholashni tasdiqlash;
- 4) jamiyatni boshqaruv organlarini va jamiyatni taftish komissiyasi (audit) ni saylash.

Ustav kompaniyaning ta'sis hujjati bo'lib, nafaqat xo'jalik jamiyatning ichki tashkiliy munosabatlarini tartibga soladi, balki jamiyat va fuqarolik muomalasiining boshqa ishtirokchilari - fuqarolar, tashkilotlar va umuman davlat o'rtasidagi munosabatlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu holatda ustavni korporativ normativ hujjat sifatida tushunish ustavning shartnoma sifatida qabul qilingan pozitsiyasidan sezilarli darajada ajratib turadi.

Ta'sis hujjati (ustav) va shartnoma chegaralari quyidagilarda ko'rinadi: agar shartnoma faqat uning tomonlarining xatti-harakatini tartibga solish uchun bevosita mo'ljallangan bo'lsa, normativ hujjatda esa barcha uchun umumiy xatti-harakat qoidasini va tegishli huquqiy oqibatlarini keltirib chiqaradi.

Qayta tashkil etish. Qayta tashkil etish – qayta tashkil etilgan yuridik shaxs (huquqiy voris) ning huquq va majburiyatlarini boshqa yuridik shaxs (huquqiy voris)

ga vorislik tartibida o'tkazish bilan birga yuridik shaxsning tugatilishi va / yoki tashkil etilishining maxsus tartibidir.

Qayta tashkil etish turlari:

1) **qo'shib yuborish** – tugatilishi bilan unga ikki yoki undan ortiq jamiyatning barcha huquq va majburiyatlarini o'tkazish yo'li bilan yangi jamiyatni tuzish;

2) **qo'shib olish** – bir yoki bir necha kompaniyani boshqa kompaniyaga barcha huquq va majburiyatlarini o'tkazish yo'li bilan tugatish

3) **bo'lish** – jamiyat faoliyatini uning huquq va majburiyatlarini tashkil etilayotgan yuridik shaxslarga o'tkazgan holda tugatish;

4) **ajratib chiqarish** – qayta tashkil etilayotgan jamiyatning faoliyatini tugatmagan holda, uning huquq va majburiyatlarining bir qismini o'tkazgan holda bir yoki bir nechta yuridik shaxsni tashkil etish

5) **o'zgartirish** – yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirish

Xo'jalik jamiyatlarini tugatish. Yuridik adabiyotlarda ushbu jarayonni **yuridik shaxs likvidatsiyasi** deb atalganini ham ko'rish mumkin. Agar jismoniy shaxsning huquq layoqati, qoida tariqasida, uning o'limidan keyin yo'qotilsa, yuridik shaxslarda mazkur jarayon yuridik shaxsni tugatish jarayoni orqali amalga oshiriladi.

Xo'jalik jamiyatlari qonunchilik va jamiyat ustavi talablari hisobga olingan holda belgilangan tartibda **ixtiyoriy ravishda** tugatilishi mumkin. Shuningdek, qonunchilikda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra **sudning qaroriga binoan** ham tugatilishi mumkin.

Jamiyatni tugatish uning huquqlari va majburiyatlari huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o'tmagan holda faoliyatining tugatilishiga sabab bo'ladi.

Jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining jamiyatni ixtiyoriy ravishda tugatish hamda tugatuvchini tayinlash to'g'risidagi qarori jamiyat kuzatuv kengashining, ijro etuvchi organining yoki ishtirokchisining taklifiga binoan qabul qilinadi.

Ixtiyoriy ravishda tugatilayotgan jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi jamiyatni tugatish va yuridik shaxslarni tugatuvchini tayinlash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Tugatuvchi tayinlangan paytdan e'tiboran jamiyat ishlarini boshqarish bo'yicha barcha vakolatlar tugatuvchiga o'tadi. Tugatuvchi tugatilayotgan jamiyat nomidan sudda ishtirok etadi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning qaroriga ko'ra jamiyatni tugatish ushbu jamiyat moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilmaganligi sababli belgilangan tartibda harakatsiz rejimga o'tkazilgan paytdan e'tiboran uch yil ichida uning faoliyati tiklanmagan taqdirda amalga oshiriladi.

Nazariy savollar

1. Bitta shaxsdan iborat korporatsiya deganda nimani tushunasiz? Bunday korporatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat bo'ladi?

2. Korporatsiyaning huquqiy layoqati deganda nimani tushunasiz? Korporatsiyaning huquqiy layoqati cheklanishi mumkinmi?

3. Korporatsiyalarda mulk va boshqaruvning ajratilganligi (separation of ownership and management) tushunchasini izohlang va korporatsiya turlari misolida tushuntiring.

4. Xo'jalik jamiyatlarni unitar korxonalar bilan farqlarini ochib bering.

5. Korporatsiya ishtirokchisi bo'lish tadbirkorlik faoliyati hisoblanadimi? O'zbekiston qonunchiligida davlat xizmatchilari uchun korporatsiya ishtirokchisi bo'lishga taqiq mavjudmi?

6. Mas'uliyat cheklangan jamiyat ishtirokchilari soni 50 nafardan oshsa, qanday huquqiy oqibatlar kelib chiqadi?

7. Sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlari tushunchasini yoritib bering. Misollar keltiring.

8. Mas'uliyati cheklangan jamiyat va qo'shimcha mas'luyatli jamiyat ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha javobgarligini qiyoslang. Misollar keltiring.

9. Korporativ qalqon (**corporate veil**) tushunchasini korporatsiyalar huquqiy tabiatidan kelib chiqqan holda izohlang.

1. Korporatsiyani tashkil etishda qanday bosqichlar bor va ularni izohlang.

2. Korporatsiyalarni ta'xis etish yo'llarini izohlang.

3. Korporatsiyaning ta'xis etishda qaysi masalalar hal etilishi lozim?

4. Korporatsiyaning ta'xis hujjati sifatida ustavga ta'rif bering.

5. Korporatsiyaning ustavida qanday ma'lumotlar bo'lishi lozim. Ularni sanang va izohlang.

6. Korporatsiyaning ustavi va ta'xis shartnomasining farqlarini keltiring.

7. Korporatsiyalarning qayta tashkil etish shakllarini keltiring.

8. Topshirish hujjati va taqsimlash balansi tushunchalariga izoh bering.

9. Korporatsiyalarning qayta tashkil etishda davlat ro'yxatidan o'tkazish xususiyatlarini yoritib

10. Jamiyatni o'zgartirish shakliga ta'rif bering va o'ziga xosliklarini yoritib bering.

Zaruriy adabiyotlar:

1.Корпоративное право: учебник / Е.Г. Афанасева, В.Ю. Бакшинская, Е.П. Губин и др.; отв. ред. И.С. Шиткина. 2-е изд., перераб. и доп. М: КНОРУС, 2015. С. 225-312

2.R. Romano. Foundations of Corporate Law. New York: Oxford Univ. Press, 1993. S. 125-180

3.Carsten Gerner-Beuerle, Michael Anderson Schillig. Comparative Company Law. OUP Oxford. 2019. S. 150-190

4. Paul L. Davies, Sarah Worthington. Gower's Principles of Modern Company Law 10th ed (eBook). Sweet & Maxwell Ltd. 2016. S. 105-143

4-MAVZU. XO'JALIK JAMIYATLARI FAOLIYATINING MULKIY ASOSLARI

1. Xo'jalik jamiyatlari ustav fondi huquqiy rejimi, uni shakllantirish, ko'paytirish, kamaytirish

2. Korporativ qimmatli qog'ozlar

3. MChJda ishtirokchi ulushining huquqiy maqomi va uni begonalashtirish

Xo'jalik jamiyatining ustav fondi (kapitali) barcha ta'sischi (ishtirokchilar) tomonidan jamiyatda qatnashish huquqini to'lash uchun qo'shgan mulkning umumiy qiymatini (yoki pul qiymatini) anglatadi va aksiyadorlar (ishtirokchilar) tomonidan sotib olingan jamiyatdagi ulushlarning (ulushlarning) nominal qiymatidan iboratdir. Ya'ni, jamiyat ustavida ko'rsatilgan ustav kapitalning miqdori nominal yoki umumiy ko'rsatkich bo'lib, u ishtirokchilar hissalarining faqat hissani kiritish vaqtidagi jami bahosini belgilaydi.

Ustav kapitali, aslida, jamiyatga qarashli mulkning ustav kapitalidan ko'p yoki kam bo'lishi mumkin bo'lgan real qiymatini aks ettirmaydi. Ustav kapitali xo'jalik jamiyati mulkini shakllantirish manbalaridan birigina hisoblanadi.

Ustav kapitalining miqdori qo'shilgan mulkning real qiymatidan past bo'lishi mumkin.

Ustav kapitalning funksiyalari. Yuridik adabiyotlarda xo'jalik jamiyatlarining ustav kapitali tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan an'anaviy uchta asosiy funksiyalar mavjud:

- 1) taqsimot – ustav kapitali orqali har bir aksiyador (ishtirokchi) ning jamiyatdagi ulushi va foydasi aniqlanadi;
- 2) moddiy-ta'minot – mulk sifatida qo'shilgan hissa jamiyatning tashkil etilishida, faoliyatida va kelajakda ishlashi uchun moddiy asosdir;
- 3) kafolat – jamiyat kreditorlar oldida o'z mulki doirasida javobgar bo'lib va u ustav kapitalidan kam bo'lishi mumkin emas.

Kafolat funksiyasi ustav kapitalining daxlsiz ekanligini va jamiyatning joriy ehtiyojlari uchun foydalanilmasligini anglatmaydi. Ustav kapitali jamiyat tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun ishlatiladi va boshqa narsalar qatori mulkni sotib olish, binolarni ijaraga olish, xodimlarga ish haqi to‘lash va boshqa maqsadlar uchun sarflanishi mumkin. Qonunchilik ustav kapitalining sarflanishini cheklamaydi va bunday cheklovlarni joriy etish zarurligi to‘g‘risidagi adabiyotlardagi takliflar, bizningcha, noto‘g‘ri. Bundan tashqari, kompaniya ustavida belgilangan ustav kapitalning miqdori kompaniya tomonidan olingan mablag‘lar va mulkning qiymatiga mos kelmasligi mumkin.

Kompaniya ustav kapitalining kafolat funksiyasi shundan iboratki, kompaniya sof aktivlarining qiymati ustav kapitali miqdoridan kam bo‘lishi mumkin emas.

“Sof aktivlar” tushunchasi. “Sof aktivlar” tushunchasi va aksiyadorlik jamiyatlarining sof aktivlari qiymatini aniqlash tartibi buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarda belgilangan, chunki jamiyatning sof aktivlari qiymati faqat buxgalteriya ma’lumotlari asosida baholanadi.

Jamiyat sof aktivlarining qiymati buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bo‘yicha, jamiyat aktivlari va majburiyatlarining umumiy summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Aksionerlik jamiyatining sof aktivlari – bu hisob-kitob uchun qabul qilingan o‘z majburiyatlari summasini hisoblash uchun qabul qilingan jamiyat aktivlari summasidan chiqarib tashlash yo‘li bilan aniqlanadigan summadir.

Ustav kapitali miqdori. Qonun hujjatlarida xo‘jalik jamiyatlari ustav fondining minimal hajmi belgilanmagan. Jamiyat ustav kapitalining hajmi jamiyat ustavida belgilanadi. (AJ to‘g‘risidagi qonunning 17-moddasi, MChJ to‘g‘risidagi qonunning 14-moddasi).

Ustav kapitalini shakllantirish tartibi va muddatlari. Xo‘jalik jamiyatining ustav kapitalini shakllantirish tartibi uning ta’sis hujjatlari bilan belgilanadi. Jamiyatni tashkil etishda ta’sischilar ustav kapitalini shakllantirish yuzasidan quyidagi masalalarni hal qilishlari kerak:

- a) ustav kapitalini shakllantirishda ishtirok etuvchi shaxslar sonini aniqlash;
- b) sotib olinayotgan aksiyalar (hissalar)ga qanday tartibda haq to‘lanishini aniqlab olish;
- v) ta’sischining kompaniya ustav kapitaliga qo‘shgan mulkiy hissasi qanday baholanishini belgilash;
- d) jamiyatning ustav kapitali qaysi muddatlarda shakllantirilishi kerakligini belgilash.

Ustav kapitaliga qo‘shiladigan hissalar. Xo‘jalik jamiyatining ustav kapitaliga qo‘shiladigan hissalar pul, qimmatli qog‘ozlar, boshqa narsalar yoki

mulkiy huquqlar yoki pul qiymatiga ega bo'lgan boshqa huquqlar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Ulushning nominal qiymati. Ishtirokchi ulushining nominal qiymati – bu pul ifodasidagi shartli abstrakt qiymat bo'lib, jamiyat tashkil etilganda ishtirokchining qo'shgan hissasi qiymati bilan belgilanadi.

Ulushning nominal qiymati ishtirokchi hissasining dastlabki bahosi asosida aniqlanadi. Ishtirokchining jamiyat ustav kapitalidagi ulushining nominal qiymati uning ta'sis hujjatlarida belgilangan ustav kapitalining aniq pul shaklidagi miqdori bilan belgilanadi.

Ishtirokchi ulushining haqiqiy qiymati. Jamiyat ishtirokchisi ulushining haqiqiy qiymati kompaniyaning sof aktivlari qiymatining, uning (ishtirokchining) ulushi hajmiga mutanosib qismiga to'g'ri keladi. Boshqacha aytganda, haqiqiy baho ishtirokchi ulushining haqiqiy qiymatiga teng. Ulushning haqiqiy qiymati ayrim hollarda jamiyat (uning ishtirokchilari) ning ishtirokchi va uchinchi shaxslar oldidagi, masalan, ishtirokchini jamiyatdan chiqishi yoki chetlatilishi bo'yicha majburiyatlari miqdorini belgilaydi.

Ishtirokchining ustav kapitalidagi ulushi ishtirokchining jamiyatga nisbatan mulkiy va nomulkiy huquqlari (korporativ huquqlari) majmui mavjudligini tasdiqlaydi va ulush hajmi bu huquqlar doirasini belgilaydi.

Aksiya. Aksiya – bu egasining (aksiyadorning) aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar ko'rinishida olishini ta'minlovchi emissiyaviy qimmatli qog'oz, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etish va tugatilgandan keyin qolgan mulkiy huquqlarini ta'minlaydigan kapital ta'minoti. Aksiyalar faqat aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqarilishi mumkin. Aksiyalarning korporativ qimmatli qog'ozlar sifatida o'ziga xosligi shundaki, aksiyadorlik huquqlarining ko'lami ularga qarashli aksiyalar soniga bog'liq. Muayyan miqdordagi aksiyalarning to'planishi ularning egasi huquqiy maqomining sifat jihatdan o'zgarishiga, jumladan, ko'pincha mustaqil huquq hisoblangan korporativ nazorat imkoniyatini kengaytirishga olib keladi.

Xo'jalik jamiyatining ustav kapitalini ko'paytirish. Aksionerlik jamiyatining ustav kapitali qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risidagi qonunda, ustav kapitalini huquqiy tartibga solishda urg'u bunday ortish manbalari bo'yicha farq qilishi, ya'ni jamiyat aktivlari hisobidan, uning ishtirokchilari qo'shimcha hissasi va jamiyatga qabul uchinchi shaxslarning hissasi hisobiga jamiyat ustav kapitalini ko'paytirish.

Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining jamiyat ishtirokchilari umumiy ovozlari sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan (agar

jamiyatning ustavida bunday qarorni qabul qilish uchun ovozlarning bundan ko‘proq soni zarurligi nazarda tutilgan bo‘lmasa) qabul qilingan qaroriga binoan amalga oshiriladi (MChJ to‘g‘risidagi qonunning 16-moddasi).

Jamiyat ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish. Xo‘jalik jamiyati ustav kapitalini kamaytirish huquqiga ega, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa uning ustav kapitalini kamaytirishi shart. Jamiyat ustav kapitalini aksiyalarining nominal qiymatini kamaytirish (jamiyatning barcha ishtirokchilari aksiyalari) va (yoki) aksiyalarning umumiy sonini kamaytirish (jamiyatga qarashli aksiyalarni sotib olish) yo‘li bilan kamaytirilishi mumkin.

Xo‘jalik jamiyatining ustav kapitalini kamaytirishning majburiy sharti jamiyat kreditorlarini xabardor qilish va ularga jamiyat majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqini berishdir. Ustav kapitalini kamaytirish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan boshlab

30 kun ichida jamiyat unga ma‘lum bo‘lgan jamiyatning barcha kreditorlarini ustav kapitali kamaytirilishi va uning yangi miqdori to‘g‘risida yozma ravishda xabardor qilishi va ommaviy axborot vositalari (OAV) da e‘lon qilishi shart.

Kazus

Da‘vogar – “EL-SAR-SHAH” MChJ ta‘sischisi Karimov Ulug‘bek Abduraximovich Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga da‘vo ariza bilan murojaat qilib, javobgarlar – “EL-SAR-SHAH” MChJ va uning ta‘sischilari Yunusxodjaeva Shahlo Yakubovna, Karimov Sardor Ulug‘bek o‘g‘li, Karimov Eldorbek Ulug‘bek o‘g‘liga nisbatan MChJdagi aktivlarini ulushga mutanosib ravishda ajratib berish majburiyatini yuklashni so‘ragan.

Ish hujjatlariga ko‘ra, “EL-SAR-SHAH” MChJ (bundan keyin matnda - MChJ)ning yangi tahrirdagi ta‘sis hujjatlariga ko‘ra, MChJning ta‘sischilari va ularning ustav fondidagi ulushlari hozirgi kunda quyidagicha:

- Karimov Ulug‘bek Abduraximovich – 42,90 foiz;
- Yunusxodjaeva Shahlo Yakubovna – 27,50 foiz;
- Karimov Eldorbek Ulug‘bek o‘g‘li – 27,10 foiz;
- Karimov Sardor Ulug‘bek o‘g‘li – 2,50 foiz.

Bundan avval U.Karimov tomonidan MChJning ustav fondini shakllantirish maqsadida Toshkent shahrida joylashgan 4 ta ko‘chmas mulk bino-inshootlari MChJning ustav fondiga kiritilgan.

U.Karimov bilan MChJning boshqa ta‘sischilari o‘rtasidagi munosabatlar lozim darajada bo‘lmaganligi sababli U.Karimov MChJ va uning ta‘sischilariga bir necha bor talabnomalar yuborib, ularda jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishini o‘tkazish, dividendlarni to‘lash va jamiyatdagi 42,90 foiz ulushini mulk ko‘rinishida ajratib berishni so‘ragan. Jumladan, U.Karimov 2017 yil 15 noyabrdagi

ariza bilan MChJ rahbari va ta'sischi Sh. Yunusxodjaevaga murojaat qilib, o'zining MChJ ta'sischi safidan chiqishi munosabati bilan MChJ ustav fondidagi ulushini qaytarishni so'ragan. Mazkur ariza va talabnomalarga MChJ rahbari va ta'sischi Sh. Yunusxodjaeva tomonidan U. Karimov ulushining pul qiymatini olishi mumkinligi to'g'risida javob berilgan. Shu sababli da'vogar javobgarlarga nisbatan ulushining chiqib ketish sanasidan oldingi oxirgi hisobot davri uchun jamiyatning buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadigan haqiqiy qiymatdagi mol-mulkni asl holida berish majburiyatini yuklashni so'ragan.

Ma'lumot uchun: MChJ ta'sischi tomonidan 2017 yil 23 oktyabrda tasdiqlangan MChJ ustavining 8.2-bandiga ko'ra ishtirokchi ishtirokchilar safidan chiqishida unga o'zi tomonidan ustav fondiga kiritilgan ulushning haqiqiy qiymati natura yoki haqiqiy qiymatiga teng bo'lgan pul ko'rinishida qaytariladi. MChJ ustavining 8.3-bandiga asosan jamiyat ishtirokchisi o'zgartirilganidan keyin jamiyatning ta'sis hujjatlariga zaruriy o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi lozim.

Savollar

I. Masalaning nazariy-doktrinal asoslari

1. MChJ ustav fondidagi ulushning fuqarolik huquqiy tabiatini tahlil qiling (mulkmi yoki mulkiy huquq).
2. MChJ ishtirokchisining MChJ ishtirokchilari safidan chiqish huquqini tahlil qiling.
3. MChJ tarkibidan chiqib ketgan ishtirokchining ulushi huquqiy maqomini tahlil qiling.

II. Muammoli vaziyatga huquqiy echim topish bo'yicha

1. Da'vogar tomonidan MChJga ulush sifatida kiritgan mol-mulk u jamiyat ishtirokchilari safidan chiqib ketganidan keyin natura holida qaytarilishi mumkinmi va qaysi holatlarda?
2. Javobgar MChJ tomonidan mazkur masala bo'yicha o'zini himoya qilishi uchun qanday normalarni asos sifatida keltira oladi?
3. Taraflar o'z talablarini asoslash uchun nimalarni va qanday dalillar bilan isbotlashi kerak? Adolatli echim berilishi uchun nimalar isbotlanishi talab etiladi?

Zaruriy adabiyotlar:

1. Корпоративное право: учебник / Е.Г. Афанасева, В.Ю. Бакшинская, Е.П. Губин и др.; отв. ред. И.С. Шиткина. 2-е изд., перераб. и доп. М: КНОРУС, 2015. С. 313-361
2. Nicola de Luca. European company law: text, cases and materials. New York: Cambridge University Press, 2017.

3. Paul L. Davies, Sarah Worthington. Gower's Principles of Modern Company Law 10th ed (eBook). Sweet & Maxwell Ltd. 2016.

5-MAVZU. KORPORATIV BOSHQARUV VA NAZORAT

1. Korporativ boshqaruv tushunchasi
2. Xo'jalik jamiyatlari organlari
3. Aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishi
4. Kuzatuv kengashi
5. Ijro organi
6. Xo'jalik jamiyati moliyaviy-xo'jalik faoliyati ustidan nazorat tizimi
7. Nazorat-taftish va audit
8. Axborotni oshkor qilish

Korporativ boshqaruv tushunchasi.

"Boshqaruv " tushunchasi siyosatshunoslik, huquq (ayniqsa ommaviy huquq tarmog'iga kiruvchi huquq sohalari da) hamda ijtimoiy fanlarning asosi bo'lgan falsafa kabi fanlarning etakchi kategoriyalardan biri sifatida keng qo'llaniladi.

Boshqaruv – bu boshqariluvchi tizimga (boshqaruv obektiga) kerakli xulq-atvorni ta'minlash yoki uning xususiyatlarini o'zgartirish maqsadida ta'sir etishdir (boshqaruv sub'ekti tomonidan).

Boshqaruv tushunchasi hozirgi kunda mavjud bo'lgan tizimli yondashuvga asoslanib ta'riyalaydigan bo'lsak, boshqaruv ob'ekti deb ataladigan atrof-muhitning muayyan qismiga bunday maqsadli ta'sirni tashkil etish jarayoni sifatida tushunilishi kerak, natijada ushbu ob'ekt bilan o'zaro aloqada bo'lgan va muayyan maqsadga ega bo'lgan sub'ektning manfaatlari qondiriladi.

“Korporativ boshqaruv” (*Corporate Governance*) atamasining etimologiyasi qadimgi yunon va lotin tillariga borib taqaladi. “**Corporate**” atamasi lotincha “corpus” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “organ” degan ma‘noni anglatadi va korporativ boshqaruv yagona tashkilot tuzishga vakolatli kishilardan tashkil topgan organ degan ma‘noni anglatadi. “**Governance**” lotincha-yunoncha “gubernatio” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “boshqaruv” va “rahbarlik” degan ma‘noni anglatadi. Bevosita “korporativ boshqaruv” tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu tushunchaga yagona ta‘rif mavjud emas.

IHTT – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD – Organisation for Economic Co-operation and Development) ning “korporativ boshqaruv” tushunchasiga korporatsiya organlari, mulkdorlari va boshqa manfaatdor shaxslari o‘rtasidagi munosabatlar majmuasi deb ta’rif berilgan.

Jahon banki (World Bank) ning ta’rifiga ko‘ra korporativ boshqaruv – qonunchilik, me’yorlar va hususiy sektorning mos ravishdagi amaliyotining shunday birikmasi tushuniladiki, ular korporatsiyaga moliyaviy va inson resurslarini jalb qilish, samarali faoliyatni olib borishga imkoniyat beradi va oqibatda ulushdorlar, boshqa manfaatdor shaxslar, umuman olganda jamiyat manfaatlariga rioya qilingan holda korporatsiya uchun uzoq muddatli iqtisodiy qiymatni ko‘paytirish orqali o‘zining mavjudligini saqlab qolishni ta’minlaydi.

Korporativ boshqaruv deganda, korporatsiya ishtirokchilari, mulkdorlari, ichki tarkibiy tuzilmalarini manfaatlarini uyg‘unlashtirish, sa’y-harakatlarni, kapitallarni birlashtirish, korporatsiyaning umumumiy manfaatlari asosida uning samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish, boshqarish bo‘yicha o‘zaro hamkorligini shakllantiruvchi huquqiy usul va vositalar tizimi tushuniladi.

Korporativ nazorat – korporativ munosabat sub’ektlari o‘rtasida iqtisodiy ta’sirning taqsimlanishi natijasida korporatsiya qarorlarini aniqlash qobiliyati. **(To‘ldirish kk)**

Korporativ boshqaruv doktrinalari

Agentlik nazariyasiga ko‘ra (A. Berle, D. Minz), korporatsiya yollanma menedjerlar bevosita biznesning egalariga (prinsipallarga) nisbatan agentlar sifatida harakat qilishadi. Agentlar va prinsipillarda korporatsiya to‘g‘risida bilim va risk (xavf)ga turli xil munosabat shakllanadi, shu bilan birga ularda turli-xil yondashuvdagi manfaatlariga ega bo‘lishadi. Prinsipallarning maqsadi – biznesning barqarorligini ta’minlash, boshqaruv xarajatlarini minimallashtirish va korporatsiyaning qiymatini oshirishdir. Agentlarning maqsadi – o‘zlarining moliyaviy haqlarini oshirish, o‘z mavqe’ini saqlab qolish va ishchanlik obro‘sini oshirishdan iborat. O‘z maqsadlariga erishish uchun agentlar direktorlar va korporatsiyaning manfaatlariga zarar etkazishi mumkin, shuning uchun har bir korporatsiya uchun agentlar va prinsipallarning manfaatlarini iloji boricha yaqinlashtiradigan korporativ boshqaruv tizimini yaratish masalasi (muaamosi) mavjud.

Menedjerlik nazariyasi (yoki I. Adizes tomoindan ilgari surilgan korporatsiyaning hayot sikli nazariyasi) ga muvofiq, direktorlar berilgan (delegiyalangan) vakolatlarga asosan rahbarlik vazifasini bajaradilar (ya’ni ularning maqomi yuqori hisoblanadi). D

irektorlarga nisbatan har qanday insofli shaxslarga qo'yiladigan qonunga muvofiq halol va insonlarning manfaati uchun harakat qiladigan talablar qo'yiladi.

Ijtimoiy mas'uliyat nazariyasi (G. Bouen) “aksiyadorlik jamiyati” konsepsiyasining chegaralarini boshqa manfaatdor tomonlarni ham o'z ichiga qamrab olgan holda kengaytiradi. Oxirgi tushuncha doirasiga oddiy xodimlardan xodimlar jamlanmasiga qadar, ya'ni kreditorlar, etkazib beruvchilar, iste'molchilar va hatto mahalliy jamoaga qadar tarkibiga kirishi mumkin. Ushbu nazariyaga ko'ra, korporatsiya shunday siyosatga rioya qilishi, shunday qarorlar qabul qilishi keraki, u butun korporatsiya (jamiyat)ning maqsad va qadriyatlari nuqtai nazaridan eng ma'qul bo'lgan xatti-harakatlarni amalga oshirishi kerak.

Korporativ boshqaruv ishtirokchilari tarkibiga:

- korporativ boshqaruvning bevosita sub'ektlari;
- korporatsiyaning holati va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan, korporatsiyaga nisbatan tashqi infratuzilmaga tegishli bo'lgan sub'ektlar.

Korporativ boshqaruv sub'ektlari – o'zlariga berilgan vakolatlar asosida korporativ boshqaruv ob'ektiga maqsadli ta'sir o'tkazadigan korporativ boshqaruv munosabatlari tomoni bo'lmish korporatsiyaning boshqaruv organlari va (yoki) mansabdor shaxslaridir.

Ta'kidlash lozimki, “korporativ huquqiy munosabatlar sub'ektlari” va “korporativ boshqaruv sub'ektlari” – ko'lami jihatidan farqli tushunchalardir.

Korporativ huquqiy munosabatlarning sub'ektlari – huquq sub'ektlari: huquqiy layoqatga ega yuridik va jismoniy shaxslar (korporatsiyaning o'zi, uning ta'sischilari, aksiyadorlar (ishtirokchilar), jismoniy shaxslar – boshqaruv organlari a'zolari);

Korporativ boshqaruv sub'ektlari – boshqarishda ishtirok etuvchi tuzilmalar, shuningdek huquq sub'ekti bo'lmasligi mumkin bo'lgan shaxslar.

Korporativ boshqaruv munosabatlarini huquqiy tartibga solishda asosiy dolzarb masalalardan biri sifatida uning ishtirokchilari manfaatlarini to'qnashuvini bartaraf etishga qaratiladi.

Manfaatlar to'qnashuvi – bu huquqiy doktrina (ta'limot)da umum qabul qilingan atama bo'lib, unda shaxs bir vaqtning o'zida ikkita ziddiyatli manfaatlarga ega bo'lishi mumkin, ya'ni ulardan biri himoyalananayotgan manfaat, boshqa manfaatga intilish esa himoyalananayotgan manfaatga zarar etkazishi mumkin. Himoyalananayotgan manfaatlar xususiy ham ommaviy manfaatlar bo'lishi mumkin, jumladan, cheklanmagan doiradagi jismoniy shaxslar manfaatini ham qamrab olishi mumkin (kreditorlar, aksiyadorlar, investorlar va boshqalar). Hozirgi kunda mazkur konsepsiya huquqiy doktrina (ta'limot)da keng yoyilmoqda.

Korporativ boshqaruv tamoyillari

Korporativ boshqaruv tamoyillari – deganda korporativ boshqaruv jarayonini tavsiflovchi va tartibga soluvchi bosh asos (asosiy g‘oya) lari tushuniladi. Korporativ boshqaruv tamoyillari hozirgi kunda milliy qonunchiligimizda bevosita mustahkamlanmagan (biroq, namunaviy normativ xususiyatga ega bo‘lmagan korporativ boshqaruv kodeksida sanab o‘tilgan).

IHTT tomonidan shakllantirilgan korporativ boshqaruvning asosiy tamoyillari:

- adolatlilik;
- javobgarlik;;
- oshkoralik;
- hisobdorlikdir^[1].

Xo‘jalik jamiyatlarining organlari

Korporativ boshqaruvning eng muhim (fundamental) tamoyillaridan biri uning korporatsiyani bevosita ishtirokchilari orqali emas, balki korporativ organlar orqali boshqarishdir. Tegishli vakolatga ega bo‘lgan boshqaruv organlari tizimining mavjudligi yuridik shaxslar, shu jumladan korporatsiyalarga xos tashkiliy birlikning asosiy belgisidir.

Ilmiy doktrinada uzoq vaqt davomida korporatsiya boshqaruv organlarining huquqiy tabiati muhokama qilinadi. Yuridik shaxs organining mohiyatini tushinishda bir qancha yondashuvlar mavjud. Shulardan ikki yondashuv keng tarqalgan:

(1) yuridik shaxsning organi qonun va ustav asosida jamiyat nomidan harakat qiluvchi vakil hisoblanadi va shuning uchun unga ishonchnoma kerak emas;

(2) yuridik shaxsning organi mustaqil shaxs sifatida emas, balki faqat yuridik shaxsning huquq sub’ektiligini amalga oshirilishining maxsus mexanizmi hisoblanadi hamda uning tuzilmaviy qismi sifatida qaraladi.

Yuridik shaxs organi uning tashkiliy qismi sifatida yuridik shaxsning irodasini ifoda etadi degan qarash korporativ huquq sohasidagi eng zamonaviy mutaxassislar tomonidan keng ilgari suriladi va bu yondashuv asoschisi buyuk nemis olimi O. Girkening yuridik shaxs organing realistik nazariyasining bir ko‘rinishi bo‘lib hisoblanadi.

Yuridik shaxsning organi – uning tarkibiy qismi bo‘lib, u qonunchilik va ta’ sis hujjatlarida belgilangan vakolat doirasida yuridik shaxsning yuridik layoqatini ro‘yobga chiqarib, tashqi irodasini shakllantiradi va ifodalaydi.

Aynan yuridik shaxsning organlari, uning huquq sub’ekti sifatida o‘z irodasini shakllantiradi va ifoda etadi; organlarning harakatlari yuridik shaxsning harakatlari sifatida qaraladi.

Yuridik shaxsning huquq va majburiyatlari, uning organlarining ham huquq va majburiyatlariga aylantiriladigan huquqiy vositalar kompetensiya hisoblanadi.

Jamiyat organining kompetensiyasi yuridik shaxsning huquqiy layoqati bilan belgilanadi.

Yuridik shaxs organining kompetensiyasi deganda uning faoliyat predmetini (qaror qabul qilishga vakolatli bo'lgan masalalar doirasi) tushunish lozim.

Xo'jalik organlari organlarining vakolati qonun hujjatlari va tashkilotning ta'sis hujjatlari bilan belgilanadi.

Organlar klassifikatsiyasi

Shakllantirish tartibi bo'yicha. Vakolatlarni shakllantirish tartibi yoki vakolatlarni usuliga ko'ra:

saylanuvchi;

tayinlanuvchi;

boshqa tartibda shakllantiriluvchi.

Tarkibiga ko'ra. Tarkibiga ko'ra korporatsiyalarni an'anaviy ravishda kollegial va yakkaboshchilik asosidagi organlari ajratib ko'rsatiladi.

Kollegial organ – amaldagi qonunchilik va ustavda belgilangan tartibda saylangan yoki unga tayinlangan hamda ushbu organ kompetensiyasiga kiruvchi masalalar bo'yicha birgalikda qaror qabul qiladigan shaxslar guruhidir. Bu ta'rifdan ikkita holat kelib chiqadi:

(1) kollegial organ a'zolarining soni ikkitadan kam bo'lishi mumkin emas;

(2) kollegial organning qarori birgalikda muhokama qilish jarayoni davomida va ovoz berish natijasida asosida amalga oshiriladi.

Amalga oshiradigan funksiyalarning tabiatiga ko'ra. Amalga oshiradigan funksiyalarining xususiyatiga qarab yuridik shaxs organlari boshqaruv organlari (rahbarlik qiluvchi va ijro etuvchi) va nazorat organlariga bo'linadi.

Yuridik shaxs irodasining shakllanish jarayonidagi rolga qarab ikki xil irodani shakllantiruvchi va irodani ifoda etuvchi organlar mavjud.

Irodani shakllantiruvchi organlar faqat yuridik shaxsning irodasini shakllantirishi mumkin, uni tashqi ko'rinishda ifoda etmagan holda. Korporatsiya irodasini shakllantiruvchi organlarga aksiyadorlarning (ishtirokchilarning) umumiy yig'ilishi, direktorlar kengashi va kollegial ijroiya organi kiradi.

Irodani ifoda etuvchi organlar yuridik shaxsning xohish-irodasini tashqi ravishda ifoda etadi, ya'ni jamiyat faoliyatini ijro etishga qaratiladi. Ular belgilangan kompetensiya doirasida ishonchnomasiz harakat qiladilar. Irodani ifoda etuvchi organga jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi taa'luqli hisoblanadi.

Bir qancha hollarda yakkaboshlik asosidagi ijro etuvchi organi jamiyatning irodanisi shakllantiruvchi ham irodasini ifoda etuvchi organi hisoblanadi.

Xo'jalik jamiyatlarida aksiyador (ishtirokchi) larning umumiy yig'ilishi

Umumiy yig'ilishning statusi. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida aksiyadorlarning (ishtirokchilarning) umumiy yig'ilishi xo'jalik jamiyatining eng oliy boshqaruv organi sifatida e'tirof etiladi. Jamiyatning boshqa barcha organlari bevosita yoki bilvosita (direktorlar kengashi orqali) umumiy yig'ilish tomonidan shakllantiriladi va tegishli vakolatlar beriladi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kompetensiyasi jamiyat faoliyati bilan bog'liq eng muhim masalalarni qamrab oladi: ustavga o'zgartirishlar kiritish, jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish, e'lon qilingan aksiyalar turkum (turi) va bu aksiyalar bilan berilgan huquqlar, aksiyalar sonini va nominal qiymati belgilash, jamiyat ustav kapitalini ko'paytirish va kamaytirish, jamiyatning boshqa organlarini shakllantirish (kuzatuv kengashi, ijroiya organlari, taftish komissiyasi), yillik hisobotlarni va yillik buxgalteriya hisobotlarini tasdiqlash, dividendlarni to'lash, aksiyalarni konsolidatsiyalash va bo'lish, yirik va manfaatdorlig mavjud bo'lgan bitimlarni tasdiqlash to'g'risida qarorlar qabul qilish va boshqalar.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kvorumi. Agar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining yarmidan ko'proq (jami ellik foizidan ko'proq) ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlari ishtirok etgan taqdirda vakolatli (kvorumga ega) hisoblanadi.

Ovoz berish tartibi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish **“jamiyatning ovoz beruvchi bitta aksiyasi – bitta ovoz” prinsipi** asosida malga oshiriladi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatda har bir ishtirokchi umumiy yig'ilishda ustav kapitalidagi ulushiga mutanosib ovozlar soniga ega. Mas'uliyati cheklangan jamiyat ustavida ishtirokchilarning yakdil (bir ovozdan qabul qilinadigan) qarori bilan jamiyat ishtirokchilarining ovoz sonini aniqlashning boshqacha tartibi belgilanishi mumkin, ya'ni nomutanosib taqsimlash imkoni mavjud.

Umumiy yig'ilish bayonnomasi

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi natijalari asosida umumiy yig'ilish bayonnomasi va ovoz berish natijalari bo'yicha sanoq komissiyasining bayonnomasi majlis yopilganidan keyin uch ish kunidan kechiktirmay tuziladi. Ishtirokchilar umumiy yig'ilishining ovoz berish natijalari, agar MChJ ustavida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ovoz berish natijalari o'tkazilgan umumiy yig'ilishda e'lon qilinadi.

Kuzatuv kengashi – jamiyat faoliyatini umumiy boshqarishni ta'minlovchi xo'jalik jamiyatining jamoaviy boshqaruv organi hisoblanadi.

Umuman olganda, Kuzatuv kengashining roli turli huquqiy tizimlarda turlicha tushuniladi. AQShda kuzatuv kengashi qaror qabul qilishda etakchi rol o'ynaydi va umumiy yig'ilish rasmiy ravishda aksiyadorlik jamiyatining boshqaruv organi sifatida qaralmaydi. Yevropa mamlakatlarida esa mulkdorlar va korporativ munosabatlarning boshqa ishtirokchilari, jumladan, xodimlar manfaatlarini rioya

etilishini nazorat qilish funksiyasi yuklatilgan. Germaniyada korporatsiyalarining kuzatuv kengashi tarkibiga kasaba uyushmalari vakillari ham kirishadi.

Xo‘jalik jamiyatining ijro etuvchi organlari

Xo‘jalik jamiyatining ijro etuvchi organlari:

- yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi funksiyasini direktor, bosh direktor yoki boshqaruvchi kompaniya, boshqaruvchi amalga oshirishi mumkin;
- kollegial ijroiya organi – boshqaruv (bundan keyin – boshqaruv).

Ijro etuvchi organlarining kompetensiyasiga uning kundalik faoliyatini boshqarishga doir barcha masalalar kiradi, faqat umumiy yig‘ilish yoki kuzatuv kengashi vakolatidan tashqari, agar ustavda ularning tashkil etilishi nazarda tutilgan bo‘lsa.

Xo‘jalik jamiyatining yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi direktor–jismaniy shaxs sifatida jamiyat bilan **mehnat munosabatlariga ega bo‘lgan va uning boshqaruvchisi sifatida namoyon bo‘ladi.**

Aksiyadorlik jamiyatida yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organni shakllantirish va uning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish umumiy yig‘ilish vakolatiga kiradi.

Yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organning vakolatlari qoldiqli bo‘lib hisoblanadi, ya’ni ushbu organ qonun hujjatlarida va jamiyat ustavida aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi va kuzatuv kengashiga taa’luqli vakolatlardan tashqari har qanday vakolatlarni amalga oshirishi mumkin.

Direktor ishonchnomasiz kompaniya nomidan ish yuritadi.

Kollegial ijro organi. Kollegial ijroiya organi tadbirkorlik subektining o‘z xohishiga ko‘ra tuzilishi mumkin. Aksiyadorlik jamiyatida ham, mas’uliyati cheklangan jamiyatda ham ushbu organni shakllantirish aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi yoki kuzatuv kengashi tomonidan ustavda nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi. Kollegial ijro oragani (Boshqaruv kengashi) a’zolarining soni, vakolat muddati, vakolati korporatsiya ustavida belgilanadi. Kollegial ijroiya organining majlislarini chaqirish va o‘tkazish muddatlari, tartibi, shuningdek u tomonidan qaror qabul qilish tartibi ustavda va lokal hujjatlarda belgilanadi.

Jamiyatning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati ustidan nazorat tizimi

Zamonaviy korporatsiyalarda jamiyatning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilishning butun tizimi faoliyat olib boradi, uning maqsadi jamiyatning aksiyadorlari (ishtirokchilari) va potensial investorlarining huquqlarini ta’minlashdan iboratdir. Ushbu tizim taftish komissiyasi va tashqi audit shaklida an’anaviy nazorat mexanizmlari bilan birga, kuzatuv kengashi huzuridagi audit komiteti faoliyati va jamiyatning alohida tarkibiy bo‘linmasi sifatida nazorat-taftish xizmatini yaratishni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

Ichki nazoratda taftish komissiyasi etakchi o‘ringa ega hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatida taftish komissiyasi majburiy nazorat organi hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatda esa, bu organ jamiyat ustavida nazarda tutilgan bo‘lsa tuziladi, ya’ni jamiyat a’zolarining irodasiga asosan tashkil etiladi.

Zaruriy adabiyotlar:

1.Корпоративное право: учебник / Е.Г. Афанасева, В.Ю. Бакшинская, Е.П. Губин и др.; отв. ред. И.С. Шиткина. 2-е изд., перераб. и доп. М: КНОРУС, 2015. С. 451-547

2.Nicola de Luca. European company law: text, cases and materials. New York: Cambridge University Press, 2017. S. 250-290

3.Paul L. Davies, Sarah Worthington. Gower’s Principles of Modern Company Law 10th ed (eBook). Sweet & Maxwell Ltd. 2016. S. 150-201

4. Суханов Е.А. Сравнительное корпоративное право. М. Статут 2014.

Nazariy savollar

1. Korporatsiyalarda qanday boshqaruv organlari mavjud hamda ularning bir-biridan farq qiluvchi jihatlari bormi?

2. Korporativ boshqaruv prinsiplarini sanab bering va ularni tavsiflang.

3. Korporativ boshqaruvda manfaatlar to‘qnashuvi deganda nimani tushunasiz?

4. Qanday korporativ boshqaruv doktrinalari va modellari mavjud hamda ularning bir-biridan qanday farqli jihatlari mavjud?

5. MChJ/AJ umumiy yig‘ilishi, kuzatuv kengashi va ijro etuvchi organi vakolatlari o‘rtasidagi farqlarni tavsiflang.

Kazuslar

Xusanov Voxid (bundan buyon matnda da’vogar deb yuritiladi) javobgar “Alumniy Biznes” MChJ (bundan buyon matnda javobgar deb yuritiladi)ga nisbatan sudga da’vo arizasi bilan murojaat qilib, “Alumniy Biznes” MChJ ta’rischilarning 2020 yil 10 apreldagi umumiy yig‘ilish qarorini haqiqiy emas deb topishni so‘ragan.

Ish hujjatlaridan aniqlanishicha, “Alumniy Biznes” MChJ Toshkent shahar, Chilonzor tumani DXM tomonidan 001346-08-sonli reestr raqami bilan qayta ro‘yxatga olingan Ustaviga ko‘ra, uning ustav fondi 60 950 000 so‘mni tashkil

qiladi, asosiy faoliyati yashashga yaroqsiz joylarni ijaraga berish va boshqarishdan iborat.

Jamiyatning ishtirokchilari bo'lib: – Azizov Aliboy (ulushi- 30%); – Abdullaev Sobir (ulushi 30%); – Xusanov Voxid (10 %); - Artikov Iris (30 %) sanaladi. Jamiyatning direktori (sobiq) A.Allaev tomonidan 2020 yil 27 martda jamiyat ta'sischilari Azizov Aliboy, Abdullaev Sobir, Xusanov Voxid, Artikov Irislarga xabarnoma yuborilib, unga ko'ra 2020 yil 10 aprelda jamiyat ta'sischilarining umumiy yig'ilishi o'tkazilishi va yig'ilishda 2 ta masala, ya'ni COVID-19 infeksiyasi bilan bog'liq karantin davrida jamiyatning ishlash tartibi va jamiyatning direktorligiga nomzod bilan tanishtirish ko'rilishi ma'lum qilingan.

Da'vogar ushbu xabarga javoban jamiyatga e'tiroz arizasi bilan murojaat qilib, unda pandemiya munosabati bilan mazkur yig'ilish o'tkazishning maqsadga muvofiq emasligi va keyinroq yig'ilishni qonun hujjatlariga rioya etgan holda o'tkazish va uning kun tartibiga jamiyatning 2019 yillik hisobotini tinglash, auditorlik tekshiruv natijalari tinglash va jamiyaning 2011-2020 yillar faoliyatini auditorlik tekshiruvini o'tkazish kabi masalalarni kiritish so'ralgan.

Biroq, 2020 yil 10 aprelda jamiyat ta'sischilarining umumiy yig'ilish o'tkazilib, uning natijasi ko'ra 38-sonli bayonnoma rasmiylashtirilgan. Bayonnomaga ko'ra, yig'ilishda Azizov Aliboy, Abdullaev Sobir va Artikov Irislar ishtirok etib, yig'ilishga raislik qiluvchining nomi ko'rsatilmagan. Yig'ilishda 3 ta masala bo'yicha qaror qabul qilingan, ya'ni: 1) ta'sischi I.Artikovning ishonchli vakili etib J.Amirov (2020 yil 27 martdagi ishonchnoma asosida harakat qiluvchi)ni hisoblash; 2) direktor A.Allaev bilan mehnat shartnomasini bekor qilish; 3) Jamiyatning direktori etib I.Artikovni tayinlash.

Ta'sischilarning mazkur yig'ilishini va uning asosida qabul qilingan qarorni qonun hujjatlariga zid deb hisoblab da'vogar sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilgan va uni haqiqiy emas deb topishni so'ragan.

Da'vogar vajiga ko'ra jamiyatning ijro etuvchi organi tomonidan jamiyat ishtirokchilariga yig'ilish o'tkazilish kunidan 4 kun avval xabarnoma yuborilganligi, kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo'yicha ta'sischining xabarisiz va ishtirokisiz qaror qabul qilinganligi va ushbu holat ta'sischining huquq va manfaatlarini buzganligi keltirilgan.

I. Masalaning nazariy-doktrinal asoslari

1. Mazkur vaziyatdagi huquqiy muammoni adolatli hal qilishda xususiy huquqning qaysi doktrinalari va prinsiplariga murojaat qilish lozim?

2. Korporatsiyalar boshqaruv organlari tushunchasi, ma'nomi va huquqiy tabiatini yoritish?

3. Umumiy yig'ilish o'tkazish va u haqda xabardor qilish tartibi.

II. Muammoli vaziyatga huquqiy echim topish bo'yicha

1. Mas'uliyati cheklangan jamiyat karantin sharoitida navbatdan tashqari umumiy yig'ilish o'tkazish mumkinmi? Fikringizni asoslang.
2. Umumiy yig'ilish qonuniy tartibda o'tkazilganmi?
3. Yig'ilish qarorini bekor qilish mumkinmi? Qanday asosda?
4. Taraflar o'z talablarini asoslash uchun nimalarni va qanday dalillar bilan isbotlashi talab etiladi?

6-MAVZU. XO'JALIK JAMIYATLARIDA AKSIYADOR VA ISHTIROKCHILARNING KORPORATIV HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

- 1. Aksiyador (ishtirokchi) huquqlarining vujudga kelishi va bekor bo'lishi**
- 2. Aksiyador (ishtirokchi) korporativ huquqlari: mulkiy, boshqaruv va nazorat bilan bog'liq huquqlar**
- 3. Aksiyador (ishtirokchi) korporativ majburiyatlari**

Korporativ huquqlar ashyoviy va majburiyat huquqlaridan farq qiluvchi **maxsus xarakterdagi subektiv huquqlar** sanaladi.

Biroq, jamiyat aksiyalarining egasi bo'lib, aksiyador jamiyat bilan shartnoma tuzmaydi, balki u bilan murakkab va kompleks bo'lgan korporativ munosabatlar ishtirokchisiga aylanadi.

Aksiyador (ishtirokchi) xo'jalik jamiyati mol-mulkining (mulk yoki kapitaldagi ulushi) egasi hisoblanmaydi. Ta'sischilar (ishtirokchilar) ning hissalarini hisobiga shakllantirilgan, shuningdek o'z faoliyati davomida xo'jalik jamiyati tomonidan ishlab chiqarilgan va sotib olingan mol-mulk mulk huquqi bo'yicha jamiyatga tegishli hisoblanadi. Ya'ni, aksiya aksiyadorning jamiyat mulkidagi ulushga bo'lgan ashyoviy huquqlarini tasdiqlay olmaydi. Biroq aksiyador aksiya egasiga aylanganda, u jamiyat bilan shartnoma tuzmaydi, balki murakkab va kompleks xarakterga ega bo'lgan korporativ munosabatlar ishtirokchisiga aylanadi.

Korporativ huquqlarning klassifikatsiyasi

Aksiyadorlarning (ishtirokchilarning) korporativ huquqlarini shartli ravishda quyidagilarga bo'lish mumkin:

- tashkiliy-boshqaruv;
- mulkiy;
- imtiyozli;

Korporatsiyaning ishtirokchilari tashkiliy-boshqaruv huquqlariga quyidagilar kiradi:

- 1) jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish bilan bog‘liq huquqlar;
- 2) jamiyat boshqaruv organlari faoliyati va korporatsiyaning moliyaviy-iqtisodiy ahvoli ustidan nazoratni amalga oshirish bilan bog‘liq huquqlar;
- 3) jamiyat faoliyati to‘g‘risida ma’lumot olish huquqi.

Korporatsiya ishtirokchilarining mulkiy huquqlari quyidigilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- 1) foydani taqsimlashda ishtirok etish huquqi;
- 2) jamiyat mol-mulkining bir qismini olish huquqi-tugatish kvotasi.

Huquqlarning alohida guruhiga imtiyozli huquqlar deb ataladigan huquqlarni ham kiritish maqsadga muvofiq.

Boshqaruvda ishtirok etish bilan bog‘liq bo‘lgan huquqlar turlariga:

korporativ huquq normalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, quyidagi huquqlar, korporatsiyani boshqarishda ishtirok etish huquqlariga tegishli:

- ishtirokchilar (aksiyadorlar) umumiy yig‘ilishini chaqirishni talab qilish;

- yig‘ilish kun tartibiga, shu jumladan, tadbirkorlik subektlarining boshqaruv organlariga nomzodlarga doir masalalarni taqdim etish;

- umumiy yig‘ilishda ishtirok etish, kun tartibidagi masalalar muhokamasida ishtirok etish;

- aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etish uchun vakilni yuborish;

- umumiy yig‘ilishda ovoz berish;

- jamiyat kuzatuv kengashiga, taftish va sanoq komissiyasiga saylanish.

Qonunchilikda jamiyat ishtirokchilarining o‘z boshqaruv organlari faoliyati va moliyaviy-iqtisodiy ahvoli ustidan nazorat qilishning quyidagi shakllari nazarda tutilgan:

- jamiyat aksiyadorlarining (ishtirokchilarining) yillik umumiy yig‘ilishida yillik hisobotni, yillik buxgalteriya hisobotlarini, shu jumladan foyda va zararlar hisobotlarini (foyda va zararlar hisoblarini) ko‘rib chiqish va tasdiqlash;

- jamiyat moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish (taftish) qilish uchun ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishida jamiyat taftish komissiyasi a‘zolarini saylash;

- jamiyat va uning ishtirokchilariga mulkiy manfaatlar bilan bog‘liq bo‘lmagan, jamiyat umumiy yig‘ilishida professional auditorni tasdiqlash, buxgalteriya hisobi va moliyaviy (buxgalteriya) hisobotlar ustidan auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun professional auditorni umumiy yig‘ilishida tasdiqlash.

Xo‘jalik jamiyati ishtirokchilarining jamiyat faoliyati to‘g‘risida axborot olish huquqi qonun hujjatlarida ishtirokchilarning asosiy huquqlaridan biri sifatida

nazarda tutilgan. Takidlash joizki, jamiyat faoliyati haqida axborot olish huquqi boshqa korporativ huquqlarni amalga oshirilishini ta'minlash jarayonida ko'rinmay qolmoqda.

Axborotni oshkor qilish – barcha manfaatdor shaxslar uchun mavjud axborotni olish maqsadidan qat'i nazar belgilangan tartib asosida axborotni topish va olishni kafolatlash.

Mulkiy huquqlar

Mulkiy huquqlarga an'anaviy tarzda jamiyat foydasini taqsimlashga, shuningdek, jamiyat tugatilgan taqdirda uning mol-mulkining bir qismini olishga doir bo'lgan huquqlar kiradi.

Aksiyadorlarning foydani taqsimlashda ishtirok etish huquqi jamiyat tomonidan joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha aksiyadorlarning dividendlar olishida mujassamlashadi.

Dividend – jamiyatining sof foydasining bir qismi bo'lib, u jamiyatning oddiy yoki imtiyozli aksiyadorlarning jamiyat ustav kapitalidagi ulushlariga mutanosib ravishda aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi.

Aksiyadorlik jamiyatining oddiy aksiyalari egalari tomonidan dividendlarni olishi (mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilari tomonidan ham ulushiga mutanosib foyda olishi) butunlay jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalariga, ya'ni bunday faoliyat natijasidagi foydaning mavjudligiga bog'liq. Jamiyat oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanishini kafolatlamaydi.

Jamiyat foydasining uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash uchun mo'ljallangan qismi (yoki dividendlar) ularning jamiyat ustav kapitalidagi ulushlariga mutanosib ravishda taqsimlanishi belgilangan. Hozirda aksiyadorlik jamiyatlari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda foydani taqsimlashga doir qonunchilikdagi yondashuvlar asosan birxillashtirilgan (unifikatsiyalangan).

Korporativ huquq nazariyasida jamiyatlar tomonidan etarli miqdorda sof foyda bo'lgan taqdirda ham dividendlarni to'lash jamiyatning majburiyati emasligi to'g'risidagi qoida mavjud. Ayrim olimlarning fikricha, bunday holatni maqbul deb tan olish mumkin emas. Xo'jalik jamiyati ishtirokchisining sof foydaning bir qismini olishga bo'lgan mulkiy huquqi, mohiyatan shunday huquqning berilishi va bir varqtining o'zida jamiyat tomonidan (ayrim holatlarda) uning rad etish huquqining mavjudligi paradoksal holatni keltirib chiqaradi"¹.

Qonun chiqaruvchi sud tomonidan faqat sof foydaning bir qismini olishda majburiyat huquqini himoya qilish imkoniyatini beradi, lekin ishtirok etishga oid bo'lgan mulkiy huquqni (a'zolik) emas, ushbu holat xo'jalik jamiyatining mulkiy ishtirokka asoslangan kapital birlashmasi sifatida uning huquqiy tabiatiga hech mos kelmaydi.

Dividendlarni to'lash (foydani taqsimlash) to'g'risida qaror qabul qilishga vakolatli organ umumiy yig'ilish hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatida dividendlarning miqdori kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan osha olmaydi va belgilangan muddatgacha to'lash majburiyati yuklatiladi.

Imtiyozli huquqlar. Alohida huquqlar kategoriyasi sifatida, imtiyozli huquqlar alohida sanaladi, shu jumladan:

- ishtirokchilar tomonidan uchinchi shaxslarga begonalashtirilayotgan (oldi-sotdi qilish) MChJdagi ulushlarni imtiyozli sotib olish huquqi;
- qo'shimcha chiqarilgan aksiyalarni imtiyozli sotib olish huquqi. (TK)

Aksiyador (ishtirokchi)larning majburiyatlari

Korporativ huquqiy munosabatlarda aksiyadorlar (ishtirokchilar) nafaqat korporativ huquqlarga ega, balki majburiyatlarga ham ega:

- ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda, summalarda, usullarda va muddatlarda hissalarini kiritish;
- jamiyat yoki shirkat faoliyati haqidagi maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslik.

Majburiyatlar ro'yxati yopiq emas, ular xo'jalik jamiyati to'g'risidagi qonunlarda, shuningdek, aynan, muayyan jamiyatning ustavida boshqa majburiyatlar ham nazarda tutilishi mumkin.

Aksiya (hissa)lar yuzasidan to'lov majburiyati. Xo'jalik jamiyatlari ta'sis etilishida jamiyatning aksiyalari (ustav kapitalidagi ulushlar) jamiyatni tashkil etish to'g'risidagi shartnomada belgilangan muddatlarda, lekin xo'jalik jamiyatlari to'g'risidagi qonunda ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmay (1 yildan kechiktirmay) to'liq to'lanishi lozim.

Jamiyat faoliyati haqidagi maxfiy axborotlarni oshkor qilmaslik majburiyati. Korporativ majburiyatlar qatoriga jamiyat faoliyati to'g'risidagi maxfiy axborotni oshkor qilmaslik majburiyati kiradi. Odatda ushbu majburiyatlar to'g'risidagi qoidalar jamiyatning ta'sis etish to'g'risidagi shartnomada, ustavda va boshqa korporativ shartnomalarda o'rnatilishi mumkin.

Maxfiy axborot – bu cheklangan doiradagi shaxslargina kirishi mumkin bo'lgan hamda taqdim qilishga (ya'ni, ma'lum bir shaxslarga etkazish) va tarqatishga (ya'ni, noma'lum shaxslar doirasiga etkazish) nomaqbul axborotdir. Maxfiy axborotni har qanday ruxsatsiz etkazish belgilangan maxfiylik rejimini buzadi va uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lgan vaqtdan bunday ma'lumotlarning qiymatini kamaytiradi.

Zaruriy adabiyotlar:

1.Корпоративное право: учебник / Е.Г. Афанасева, В.Ю. Бакшинская, Е.П. Губин и др.; отв. ред. И.С. Шиткина. 2-е изд., перераб. и доп. М: КНОРУС, 2015. С. 364-413.

2.Nicola de Luca. European company law: text, cases and materials. New York: Cambridge University Press, 2017. S. 302-340.

3.Paul L. Davies, Sarah Worthington. Gower's Principles of Modern Company Law 10th ed (eBook). Sweet & Maxwell Ltd. 2016.

Nazariy savollar

1. Aksiyador (ishtirokchi) huquq va majburiyatlari qachondan vujudga keladi va tugaydi (bekor bo'ladi)?
2. Aksiyadorning (ishtirokchining) korporativ huquqlari qanday kategoriyalarga bo'linadi.
3. Aksiyadorning (ishtirokchining) mulkiy huquqlarini sanab bering. Ularni amalga oshirishga oid misollar keltiring.
4. Aksiyadorning (ishtirokchining) boshqaruv huquqlarini sanab bering. Ularni amalga oshirishga oid misollar keltiring.
5. Aksiyadorning (ishtirokchining) korporativ majburiyatlari nimalardan iborat va bunday majburiyatlarni bajarmaganlik uchun qanday choralar qo'llaniladi ?

Kazus

“Star” MChJ (keyingi o‘rinlarda - MChJ) 1996 yil 28 mayda Jamiyatning ta’sis shartnomasi asosida ta’sis etilgan bo‘lib, Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tuman hokimining 1996 yil 3 iyundagi 801- xk-sonli qarori bilan tashkil etilgan, keyinchalik Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tuman hokimining 2002 yil 27 dekabrda 1562-raqam bilan qayta ro‘yxatga olingan. Shuningdek, 2015 yil 10 sentyabrda MChJ ning Ustavi yangi tahrirda ishlab chiqilib, Toshkent shahar Mirobod tumani Tadbirkorlik sub’ektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha Inspeksiyasida 03- 000654-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Mazkur Ustavning 2-bandiga ko‘ra, Vildanova Feruza Mingalievna, Sautova Margarita Viktorovna (hozirda Gilmutdinova), Ashuraliev Bobir Rashidovich, Brigadirenko Irina Anatolevna - jamiyatning ta’sischilari bo‘lib, Gilmutdinova Margarita Viktorovnaning ulushi 20,25 foiz tashkil etadi.

Da’vogar Gilmutdinova Margarita MChJning 20,25 foiz ulushga ega ta’sischisi hisoblanishini, jamiyat tomonidan unga berilishi mumkin bo‘lgan dividend to‘g‘risidagi axborotlarni olish imkoni bo‘lmaganligi, hattoki jamiyat

to'g'risida ma'lumotlarni ham o'lmaganligi, jamiyatga murojaat qilganda, jamiyat direktori B.Ashuraliev va bosh buxgalter J.Li tomonidan unga nisbatan vakolat mavjud emasligini asos qilib, hujjatlar taqdim etishdan bosh tortganliklari, shu sababli suddan 2016, 2017, 2018, 2019 yillar uchun jamiyat sof daromadining 20,25 foiz miqdorida dividend undirib berishni so'rab, iqtisodiy ekspertiza tayinlash to'g'risidagi iltimosnoma kiritdi.

Javobgar vakillari da'vogarning da'vo talablariga e'tiroz bildirib, jamiyat ishtirokchilari o'rtasida 2016 va 2017 yil uchun sof daromadni aniqlab dividend to'lash to'g'risida qarorlar qabul qilinganligini, da'vogarga 2016 yil uchun dividendlari deyarli to'lab berilganligini, 2017 yil uchun hisoblangan dividendlardan bir qismini jamiyat ustav fondini oshirish uchun yo'naldirilganini va bugungi kunda da'vogar 2016 va 2017 yillar uchun 561.170.560,44 so'm dividend to'lab berilishi lozimligi, bugun da'vogarga 30.000.000 so'm to'lab berilganligini ma'lum qilib, da'vo talabining 2018, 2019 yillar uchun dividend undirish qismini rad etilishi lozimligi ma'lum qilishdi.

Ish hujjatlaridan aniqlanishicha, ta'sischi Gilmutdinova Margarita Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo ariza bilan murojaat qilib, MChJning 20,25 foiz ta'sischisi hisoblansada jamiyat tomonidan unga berilishi mumkin bo'lgan dividend to'g'risidagi axborotlarni olish imkoni bo'lmaganligi, hattoki jamiyat to'g'risida ma'lumotlarni ham o'lmaganligi, jamiyatga murojaat qilganda, jamiyat direktori M.Ashuraliev va bosh buxgalter J.Li tomonidan unga nisbatan vakolat mavjud emasligini asos qilib, hujjatlar taqdim etishdan bosh tortganliklari, shu sababli suddan 2016, 2017, 2018, 2019 yillar uchun jamiyat sof daromadining 20,25 foiz miqdorida dividend undirib berishni so'ragan. Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo ariza bilan murojaat qilib, MChJning 20,25 foiz ta'sischisi hisoblansada jamiyat tomonidan unga berilishi mumkin bo'lgan dividend to'g'risidagi axborotlarni olish imkoni bo'lmaganligi, hattoki jamiyat to'g'risida ma'lumotlarni ham o'lmaganligi, jamiyatga murojaat qilganda, jamiyat direktori M.Ashuraliev va bosh buxgalter J.Li tomonidan unga nisbatan vakolat mavjud emasligini asos qilib, hujjatlar taqdim etishdan bosh tortganliklari, shu sababli suddan 2016, 2017, 2018, 2019 yillar uchun jamiyat sof daromadining 20,25 foiz miqdorida dividend undirib berishni so'ragan.

Ishni o'rganish davomida sud tomonidan quyidagilar aniqlangan. Jamiyatning 2017 yil 1 iyun, 1 iyul va 28 noyabrdagi umumiy yig'ilish qarorlariga ko'ra, 2016 yil uchun 1.345.875.453,66 so'm miqdorida jamiyatning daromadi belgilangan bo'lib, ta'sischilarning jamiyatga qo'shgan ulushlariga mutanosib ravishda dividend taqsimlangan va ta'sischi Gilmutdinova (Sautova) Margarita Viktorovnaga 272.539.778,87 so'm miqdorida dividend puli ajratilgan. Shu bilan birga, jamiyatning 2018 yil 20 noyabrdagi umumiy yig'ilish qarori qabul qilinib, 2017 yil uchun 5.998.466.585,69 so'm miqdorida jamiyatning daromadi belgilangan bo'lib, ta'sischilarning jamiyatga qo'shgan ulushlariga mutanosib ravishda dividend

taqsimlangan va ta'sischi Gilmutdinova (Sautova) Margarita Viktorovnaga 1.214.689.483,60 so'm miqdorida dividend puli ajratilgan.

Jamiyatning 2017 yil uchun belgilangan (5.998.466.585,69 so'm) sof foydani taqsimlash hisobidan ta'sischilarning jamiyat ustav fondiga ulush kiritilishi hisobiga ta'sischi Gilmutdinova Margarita Viktorovnaning (1.214.689.483,60 so'mi)dan 509.142.857,14 so'm miqdorida dividend puli ajratilgan.

MChJning bosh buxgalteri taqdim etgan ma'lumotga ko'ra, ta'sischi Gilmutdinova Margarita Viktorovnaga o'zaro hisob-kitoblarga asosida 2016 va 2017 yil uchun 561.170.560,44 so'm dividend puli ajratilishi lozim bo'lgan (ustav fondiga qo'shimcha ulush sifatida kiritgan summadan tashqari). Shuningdek, bugungi sud majlisida taraflar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va ularning ko'rsatmalari asosida javobgar tomonidan da'vogarning plastik hisob raqamiga to'lanishi lozim bo'lgan 561.170.560,44 so'm hisobidan 30.000.000 so'm miqdorida dividend puli o'tkazilganligini sud jarayonida tasdiqladilar.

Shuningdek, jamiyatning 2020 yil 6 iyundagi umumiy yig'ilish qarori qabul qilinib, ushbu qarorning kun tartibidagi ikkinchi va uchinchi masalalari doirasida jamiyatning 2018-2019 yillar uchun sof foyda natijalari e'lon qilingan. Shunday qilib, MChJning 2018 yil uchun sof foyda 2.648.879.000 so'm, 2019 yil uchun esa 1.264.494.000 so'mni tashkil etgan. Biroq ushbu sof foydani jamiyatning ta'sischilari o'rtasida taqsimlash bo'yicha umumiy yig'ilish qarori qabul qilinmagan.

Yuqoridagidardan kelib chiqqan holda Gilmutdinova Margarita Viktorovna MChJning ta'sischisi Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo ariza bilan murojaat etib MChJ hisobidan 2016, 2017, 2018, 2019 yillar uchun jamiyat sof daromadining 20,25 foiz miqdorida dividend undirishni so'ragan.

I. Masalaning nazariy-doktrinal asoslari

1. Mazkur vaziyatdagi huquqiy muammoni adolatli hal qilishda xususiy huquqning qaysi doktrinalari va prinsiplariga murojaat qilish lozim?

2. MChJ ustav fondidagi ulushning fuqarolik huquqiy munosabatlaridagi maqomini tahlil qiling (mulkmi yoki mulkiy huquq)?

3. MChJ ishtirokchisining jamiyat faoliyati kelib chiqqan daromadga bo'lgan huquqlarini va daromadlarni taqsimlashning asoslarini tahlil eting.

4. MChJ ishtirokchisining jamiyat faoliyatida ishtirok etish va uning faoliyati yuzasidan tegishli ma'lumotlarni olishga bo'lgan huquqlari qaysi doktrina va prinsiplarga asoslanishini yoriting.

II. Muammoli vaziyatga huquqiy echim topish bo'yicha

1. MChJ organlarning jamiyat daromadini taqsimlash yuzasidan huquq va majburiyatlari nimadan iborat?

2. MChJ ishtirokchisi Gilmutdinova Margarita MChJ hisobidan 2016, 2017, 2018, 2019 yillar uchun jamiyat sof daromadining 20,25 foiz miqdorida foydasini belgilangan yillar uchun ola oladimi va qay tartibda?

7-MAVZU. XO‘JALIK JAMIYATLARIDA JAVOBGARLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH. KREDITORLAR HUQUQLARI VA QONUNIY MANFAATLARINI HIMOYA QILISH

- 1. Xo‘jalik jamiyatining korporatsiya sifatida javobgarligi**
- 2. Aksiyador (ishtirokchi)larning javobgarligi**
- 3. Xo‘jalik jamiyati organlari va ularning a‘zolari javobgarligi**
- 4. Kreditorlar huquqlarini himoya qilish.**

Korporativ huquqiy munosabatlarning mohiyati, xususan, javobgarlik masalasida ham yoqqol namoyon bo‘ladi. Bu xo‘jalik jamiyatlarining ajralmas o‘ziga xos xususiyati bo‘lmish, aksiyadorlarning (ishtirokchilarning) jamiyat majburiyatlari yuzasidan cheklangan javobgarligi xususiyatining mavjudligi bilan va uning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri tushinish va qaysi hollarda amal qilishi bilan xususiyatlanadi. Korporativ huquq fani javobgarlikni xo‘jalik jamiyatlarining asosiy sifatlaridan biri ekanligini ta’kidlaydilar.

Cheklangan javobgarlik tamoyili ilk bor aksiyadorlik jamiyatlariga nisbattan qo‘llanilgan va bu institut olimlar tomonidan huquq tomonidan yaratilgan iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishiga jiddiy ravishda ta’sir ko‘rsatgan zamonamizning eng buyuk kashfiyotlaridan biri qatoriga qo‘yilgan, aynan ushbu qoidaga binoan ta’sischilar va aksiyadorlar aksiyadorlik jamiyati qarzlari yuzasidan javobgar hisoblanmaydilar, buning natijasida jahon iqtisodiyotining bunday tez o‘sishi boshlandi hamda sanoat (industrial) iqtisodiyoti shakllana boshlandi. Kapitallarning birlashtirilishi hajmi bo‘yicha o‘rtacha Yevropa mamlakatlari byudjetlari bilan taqqoslanadigan darajadagi katta mablag‘larning to‘planishiga imkon berdi. Aksiyadorlik jamiyatlari temir yo‘llarni qurish yoki xattoki dunyoning nargi burchagidagi yangi hududlarni rivojlantirish bo‘ladimi, deyarli har qanday loyihani amalga oshirishga layoqatli edi.

Korporativ huquqiy munosabatlarda korporatsiya ishtirokchilarining va korporatsiyani o‘zining javobgarligi farqlanadi. Yuridik shaxs hisoblanuvchi xo‘jalik jamiyati o‘zining majburiyatlari bo‘yicha o‘zi javobgar hisoblanadi.

Ye.A.Fleyshisning ta'kidlaganidek, jamiyat aksiyadorlari (ishtirokchilari)ning tadbirkorlik riski, ularning aksiya (hissa)lar uchun to'lanadigan summalar doirasi bilan cheklangan.

Aksiyadorlarning reestrini yuritish va saqlash uchun aksiyadorlik jamiyatining javobgarligi. Aksiyadorlik-huquqiy munosabatlar uchun aksiyadorlarning reestrini yuritish va saqlash uchun aksiyadorlik jamiyatining javobgarligi alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, jamiyat aksiyadorlarining reestrini jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab yuritilishini va saqlanishini ta'minlashi shart.

Xo'jalik jamiyatlarida aksiyadorlar (ishtirokchilar) ning javobgarligi

Xo'jalik jamiyatlariga oid amaldagi qonun hujjatlarining qoidalari tahlil qilinganda aksiyadorlar (ishtirokchilar) javobgarligining bir necha asosiy turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) MChJ ustav kapitalidagi o'z ulushlarining yoki AJ aksiyalari bo'yicha hissalarining miqdori belgilangan muddatlarda to'lanmagan taqdirda aksiyadorlar (ishtirokchilar) jamiyat majburiyatlari yuzasidan solidar javobgarligi;

2) asosiy jamiyatning sho'ba jamiyat majburiyatlari bo'yicha javobgarligi:

- asosiy jamiyatning majburiy ko'rsatmalariga muvofiq sho'ba jamiyat tomonidan tuzilgan bitimlar bo'yicha solidar javobgarlik;

- sho'ba jamiyat o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan nochor ahvolga kelib qolgan hollarda asosiy jamiyatning subsidiar javobgarligi;

3) sho'ba jamiyat aksiyadorlari (ishtirokchilari) ning da'vosi bo'yicha sho'ba jamiyatga etkazilgan zararlar bo'yicha asosiy jamiyatning javobgarligi;

4) xo'jalik jamiyatlari ta'sischilarining javobgarligi va boshqalar;

Aksiyadorlarning (ishtirokchilarning) jamiyat ustav kapitalidagi aksiyalar (ulushlar)ning miqdorini to'lash yuzasidan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda ularning solidar javobgarligi.

1. Javobgarlikning asosi sifatida aksiyador (ishtirokchi)lar tomonidan olingan aksiyalar (ulushlar)ning pul miqdorini to'lash bo'yicha majburiyatning bajarilmaganlik holatining mavjudligi.

Umumiy qabul qilingan qoida ko'ra, xo'jalik jamiyatlarida aksiya va ulushlarni "to'lamaganlik uchun javobgarlik" aksiyador (ishtirokchi) lar tomonidan olingan aksiya (ulush) larni ma'lum muddatda to'liq to'lash majburiyati olinadi, biroq ushbu muddat olingan kundan boshlab bir yildan kechikishi mumkin emas.

Xullas, odatda aksiyadorlar va ishtirokchilar jamiyatni tashkil etish paytida yuzaga keladigan qarzlari uchun javobgardirlar.

2. Aksiyador (ishtirokchi) larning javobgarligi solidar xususiyatga ega hisoblanadi.

Qarzdorlarning solidar javobgarligi mavjud bo'lgan taqdirda kreditor barcha qarzdorlardan birgalikda, shuningdek ularning har biridan alohida, ham to'liq, ham qarzning bir qismi bo'yicha bajarilishini talab qilishga haqli.

3. Ushbu holatda aksiyador (ishtirokchi) jamiyatning har qanday majburiyatlari yuzasidan javobgardir.

Aksiyador (ishtirokchi)ni javobgarlikka tortishda xo'jalik jamiyati majburiyatining xarakteri ahamiyatga ega emas.

Sho'ba jamiyat majburiyatlari bo'yicha xo'jalik jamiyatining javobgarligi

Xo'jalik jamiyatlarida aksiyador (ishtirokchi) larning javobgarlik instituti, ayniqsa, ko'pincha bir shaxs yoki bir necha affilangan shaxslar qo'lida nazorat qiluvchi aksiya (ulush)lar paketi shakllanganda alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy huquqiy tizimlarda (birinchi navbatda AQSh va Buyuk Britaniyada) korporatsiya a'zolarini javobgarlikka tortish amaliyoti "**korporativ pardani echish**" (**piercing the corporate veil**) deb ataladi.

Aksiyador (ishtirokchi) larning sho'ba jamiyatning majburiyatlarini bajara olmay nochor holatga tushganda subsidiar javobgarligi

Qonun hujjatlari va sud amaliyoti tahlili sho'ba jamiyat o'z majburiyatlarini bajara olmay nochor (bankrot) bo'lib qolgan taqdirda asosiy jamiyatni ham javobgarlikka tortishning xarakteri, asoslari va tartibi to'g'risida quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon bermoqda.

1. Shartnomaviy bo'lmagan javobgarlik, ya'ni asosiy va sho'ba jamiyatlari o'rtasida tuzilgan shartnomadan kelib chiqmaydi.

2. Kompensatsiya talab qilish huquqi sho'ba jamiyati kreditorlarida hamda tugatish boshqaruvchisida bo'ladi.

3. Sud majlislarida sho'ba munosabatlarining mavjudligi isbotlanishi kerak (yuqorida sho'ba jamiyatning bitimlari yuzasidan asosiy jamiyatning javobgirliigi masalasi bayon etilgan).

4. Asosiy jamiyatda sho'ba jamiyatga majburiy ko'rsatmalar berish huquqi yoki boshqa shaklda uning hatti-harakatlarini belgilab berishi natijasida uning nochorligi (bankrotligi)ni yuzaga kelishi asosiy jamiyatni javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

Xo'jalik jamiyatlarida boshqaruv organlari a'zolarining javobgarligi

Boshqaruvchilarning fuqarolik-huquqiy javobgarligining asoslari:

1. Noqonuniy xususiyatdagi hatti-harakatlar. Boshqaruvchining hatti-harakati amaldagi korporativ qonunchilik normalariga zid bo'lganda hamda u bilan xo'jalik jamiyati o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlari buzilgan hollarda noqonuniy deb hisoblanishi mumkin;

2. Zarar (ziyon) ning mavjudligi. Aksiyadorlik jamiyatini boshqarayotgan shaxsning fuqarolik-huquqiy javobgarligi shartlaridan biri etkazilgan zarar (ziyon)ning mavjudligidir.

3. Noqonuniy xatti-harakat va etkazilgan zarar (ziyon) o'rtasidagi sababiy bog'lanishning mavjudligi. Bu juda keng tarqalgan holatdir: "sabab va oqibat munosabati hodisalari ob'ektiv mavjud bo'lgan munosabatlardir, bu ikki o'zaro bog'liq hodisalarning muayyan vaziyatda har doim bir-biridan oldin va uni keltirib chiqaradi, ikkinchisi (oqibat) har doim birinchisining natijasidir".

4. Ayb. Amaldagi qonunchilikda aybning mavjudligi (aybdorlik) kabi fuqarolik-huquqiy javobgarlikning bunday majburiy sharti aniq ko'rsatilgan.

Korporativ munosabatlarda aybdorlik tushunchasini fuqarolik huquqidan kelib chiqib quyidagicha ifodalash mumkin: "muayyan vaziyat yoki sharoitda o'z harakatlarning salbiy natijalarini bartaraf etish yoki oldini olish uchun ob'ektiv choralar ko'rmaslik".

Boshqaruvchi aybini isbotlash masalasi

Boshqaruvchining aybdorligi to'g'risidagi xorijiy mamlakatlar qonunchiligini tahlil qilib, ushbu holatni isbotlash masalasi o'ziga xos ahamiyat kasb etayotganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Germaniyaning aksiyadorlik jamiyati to'g'risidagi qonun hujjatlarida isbotlash majburiyatini boshqaruvchilarga yuklatilganligini qayd etish joiz.

Germaniya aksiyadorlik jamiyati qonun hujjatlari talablariga hamohang, xuddi shunday qoidalar qisman milliy qonunchiligimizda ham amal qiladi: boshqaruvchi mustaqil ravishda o'zining hatti-harakatlari va xulq-atvori halol, oqilona va ish muomala odatlariga muvofiq ekanligini isbotlashi kerak.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi FKning 9-moddasiing uchinchi qismida qonun fuqarolik huquqlarini himoya qilishda, ushbu huquqlarning oqilona va halol amalga oshirilganligiga bog'lab qo'yilgan hamda ushbu hollarda fuqarolik huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining halolligi va harakatlarning oqilonaligi tahmin qilinadi. Aksariyat tadqiqotchilar bu tamoyilga asoslanib, bunday hollarda davogar javobgarning aybini isbotlashi kerak, aksincha emas, deb hisoblaydilar.

Xo‘jalik jamiyatlarida boshqaruvni amalga oshiruvchi shaxslarning xulq-atvor prinsiplari

1. Boshqaruvchilarning sodiqlik (loyallik) tamoyili.

Boshqaruvchilarning sodiqlik tamoyili anglo-sakson huquq tizimida, ayniqsa, AQSh huquq tizimida batafsil ishlab chiqilgan. Ushbu davlatning huquqiy doktrinasi (ta’limoti)ga ko‘ra, direktorlar aksiyadorlar va korporatsiyaning ishonchli shaxslaridir va ularga **“ishonchli shaxslar majburiyati”** (**“fiduciary duties”**) yuklatilgan, ushbu majburiyat an’anaviy ravishda ikki toifaga bo‘linadi: **“sodiqlik majburiyati”** (**“duty of loyalty”**) va **“etarli darajada g‘amxo‘rlik majburiyati”** (**“duty of care”**). Bu kategoriyalar juda ham o‘zaro bog‘langan bo‘lib, ba’zan amalda ularni ajratish qiyin hisoblanadi.

2. Halollik va oqilonalik tamoyili.

Ma’lumki, halollik (insofflilik) – klassik huquqning asosiy tushunchalaridan biridir. “Fides” ning dastlabki ma’nosi sadoqat, bog‘liqlik, ishonch, imon ma’nosini anglatib, din, axloq va huquq sohasida keng qo‘llanilgan.

Zaruriy adabiyotlar:

1.Корпоративное право: учебник / Е.Г. Афанасева, В.Ю. Бакшинская, Е.П. Губин и др.; отв. ред. И.С. Шиткина. 2-е изд., перераб. и доп. М: КНОРУС, 2015. С. 717-761

2.Nicola de Luca. European company law: text, cases and materials. New York: Cambridge University Press, 2017. S. 345-402.

3.Paul L. Davies, Sarah Worthington. Gower’s Principles of Modern Company Law 10th ed (eBook). Sweet & Maxwell Ltd. 2016. S. 241-292.

Kazus

Ishdagi hujjatlar va aniqlangan holatlarga ko‘ra, “RED BRICK” MChJ 2012 yil 28 sentyabrda 0004904-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan va ustav fondi uning ishtirokchilari orasida quyidagicha taqsimlangan: Xolyigitov Dadajon Abdukaxorovich – 4%, Wang Jinping – 12,5%, Sun Guobing – 82,5% va Alimov Rustam Azizbekovich – 1%.

2014 yil 13 iyunda MChJ ishtirokchilari umumiy yig‘ilishi bo‘lib o‘tib, unda jamiyat ustav fondini qo‘shimcha ravishda 100 000 000 so‘mga ko‘paytirish, ustav fondini ko‘paytirishni Xolyigitov Dadajon Abdukaxorovich tomonidan kiritiladigan pul mablag‘i hisobidan amalga oshirish va ishtirokchilar o‘rtasida ulushlarni taqsimlash haqida qaror qabul qilingan.

Bundan so‘ng da’vogar Xolyigitov Dadajon Abdukaxorovich jamiyat ustav fondini ko‘paytirish uchun 2014 yil 16 iyunda 35, 000 000 so‘m, 2014 yil 11 iyulda

20, 000 000 so‘m, 2014 yil 4 avgustda 15, 000 000 so‘m, 2014 yil 22 avgustda 15, 000 000 so‘m, 2014 yil 23 sentyabrda 2, 000 000 so‘m, 2014 yil 24 sentyabrda 11, 000 000 so‘m, 2014 yil 15 sentyabrda 12, 000 000 so‘m, 2014 yil 24 oktyabrda 10, 000 000 so‘m, ya’ni **jami** hisoblaganda 120, 000 000 so‘m miqdorida jamiyat hisob raqamiga qo‘shimcha hissani pul mablag‘i ko‘rinishida kiritgan. Bu holatni ATB “Kapital bank”ning 2018 yil

21 iyundagi xati tasdiqlagan.

Da’vogar o‘z ko‘rsatmalarida buning oqibatida ustav fondi 372 018 000 so‘mga ko‘payganligini va ulushlarning nominal qiymati qo‘yidagicha taqsimlanishi kerakligini ta’kidlagan: D.Xolyigitov – 132, 600 900 so‘m (35,64 %), Wang Jinping – 31, 502 250 so‘m (8,47 %), Sun Guobing – 207, 914 850 so‘m (55,89%).

Ammo bu xarakterlar bilan bog‘liq tegishli o‘zgartirishlarni jamiyat ijro organi ustaviga kiritish va tasdiqlash uchun jamiyat ishtirokchilari umumiy yig‘ilishi chaqirmayotganligi sababli o‘zgarmayotganligini, bu esa uning korporativ huquqlarini buzayotganligini ma’lum qilgan.

Jamiyat ustavining 5.8 va 5.9-bandlariga ko‘ra, jamiyatning ustav fondini ko‘paytirish jamiyat ishtirokchilari umumiy yig‘ilishining jamiyat ishtirokchilari umumiy ovozlari sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilingan qaroriga binoan amalga oshirilishi, jamiyat ustav fondining ko‘paytirilishi jamiyat ishtirokchilarining qo‘shimcha hissalarini hisobiga amalga oshirilishi mumkinligi belgilangan.

Sudga taqdim etilgan hujjatlarga ko‘ra, shu kunga qadar javobgar tomonidan da’vogarning jamiyat ustav fondiga qo‘shimcha hissa kiritishi orqali ustav fondini ko‘paytirish va ishtirokchilar o‘rtasida ulushlarni qayta taqsimlash bilan bog‘liq ta’sis hujjatlariga kiritilishi lozim bo‘lgan tegishli o‘zgartirishlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmaganligi aniqlagan.

2018 yil 5 noyabrda MChJ ishtirokchilari Alimov Rustam Azizbekovich (sotuvchi) va Xolyigitov Dadajon Abdukaxorovich (sotib oluvchi) o‘rtasida MChJ ustav fondidagi sotuvchiga tegishli 1% yoki nominal qiymati 2, 520 180 so‘mga teng ulushni sotib oluvchiga sotishi to‘g‘risida shartnoma imzolangan.

Jamiyat ustavining 6.1-bandiga muvofiq jamiyat ishtirokchisi jamiyatning ustav fondidagi o‘z ulushini yoki uning bir qismini jamiyatning bir yoxud bir necha ishtirokchisiga sotishga yoki boshqacha tarzda ularning foydasiga voz kechishga haqli ekanligi va bunday bitimni tuzish uchun, jamiyatning yoki jamiyat boshqa ishtirokchilarining roziligi talab qilinmasligi ko‘rsatilgan.

Da’vogar 2018 yil 5 noyabrda MChJ nomiga xabarnoma yuborib, jamiyat ishtirokchisi Alimov Rustam Azizbekovichga tegishli MChJ ustav fondidagi 1% yoki nominal qiymati 2 520 180 so‘mga teng ulushni shartnoma asosida sotib olganligidan xabardor etgan va jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishini chaqirish talabi bilan murojyat etgan .

Jamiyat ustavining 9.4-bandiga binoan jamiyat ishtirokchilarining navbatdagi umumiy yig'ilishi jamiyatning ustavida belgilangan muddatlarda, lekin yiliga kamida bir marta o'tkazilishi va jamiyat ishtirokchilarining navbatdagi umumiy yig'ilishi jamiyatning ijro etuvchi organi tomonidan chaqirilishi belgilangan.

Sud majlisida taraflar tomonidan javobgar MChJ ijro organi jamiyat ishtirokchilarining navbatdagi umumiy yig'ilishlarini o'tkazganligi, shuningdek 2014 yil 24 oktyabrdan boshlab hozirgi kunga qadar da'vogar tomonidan kiritilgan qo'shimcha hissalar hisobiga jamiyat ustav fondini ko'paytirish, da'vogar va jamiyat ishtirokchisi o'rtasida tuzilgan ulushni oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha ta'sis hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan ijro organi tomonidan jamiyatning umumiy yig'ilishini chaqirish yoki o'tkazganligi bilan bog'liq biror bir hujjatlar taqdim etmagan.

Shu bilan birga, da'vogar MChJga bir necha bor 2018 yil 20 noyabrda, 2018 yil 25 dekabrda, 2019 yil 28 yanvarda hamda 2019 yil 16 aprelda jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida talabnomalar yuborgan. Biroq, MChJ ijro organi tomonidan da'vogarning jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talabnomalari oqibatsiz qoldirilganligini aniqlangan, shuningdek da'vogar o'z ko'rsatmalarida jamiyat ustav fondidagi eng yirik ulushga ega ishtirokchi Sun Guobing bu xarakatlarni amalga oshirishda to'sqinlik qilayotganligi hamda jamiyat direktori B.Salimov esa faqatgina Sun Guobingning buyruqlari asosida harakat qilayotganligini aytib o'tgan.

Da'vogar "RED BRICK" mas'uliyati cheklangan jamiyati (bundan buyon MChJ deb yuritiladi) ishtirokchisi Xolyigitov Dadajon Abdukaxorovich da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilib, javobgarlar MChJ va uning ijro organiga hamda uchinchi shaxslar MChJ ishtirokchilari Xitoy Xalq Respublikasi fuqarolari Wang Jinping, Sun Guobing va O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Alimov Rustam Azizbekovichga nisbatan MChJ ijro organi zimmasiga da'vogar D.Xolyigitov tomonidan MChJ ustav fondiga kiritilgan 120 000 000 so'm qo'shimcha hissalar va 2018 yil

5 noyabrda jamiyat ishtirokchilari o'rtasida tuzilgan ulush oldi-sotdi shartnomasiga asosan jamiyat ustav fondini ko'paytirish bilan bog'liq MChJ ta'sis hujjatlariga kiritiladigan o'zgartirishlarni Toshkent viloyati, Angren shahar Davlat xizmatlari ko'rsatish markazi (yagona darcha)da davlat ro'yxatidan o'tkazish mas'uliyatini yuklashni so'ragan.

I. Masalaning nazariy-doktrinal asoslari

1. Mazkur vaziyatdagi huquqiy muammoni adolatli hal qilishda xususiy huquqning qaysi doktrinalari va prinsiplariga murojaat qilish lozim (xususan, korporatsiya ishtirokchilarining korporatsiyani boshqarishga bo'lgan huquqlari qanday huquqiy prinsiplarga asoslanadi)?

2. MChJ ustav fondidagi ulushning korporativ huquqiy munosabatlardagi maqomini tahlil qiling hamda ustav fondining ko'paytirilish asoslari va tartibini tahlil eting.

3. MChJ ishtirokchilarining korporativ huquqlarini yoriting.

4. MChJ boshqaruv organlarining fidutsiar majburiyatlarini tahlil eting.

II. Muammoli vaziyatga huquqiy echim topish bo'yicha

1. MChJ ishtirokchisining (Xolyigitov Dadajon Abdukaxorovich) qo'shimcha hissalarini hisobiga jamiyat ustav fondining ko'paytirilishi amalga oshirilmaganligi holatiga huquqiy baho bering.

2. MChJda ulushni oldi-sotdi qilishda sotib oluvchiga (Xolyigitov Dadajon Abdukaxorovich) ulushga bo'lgan huquq qaysi vaqtdan boshlab o'tadi?

3. MChJ ijro organi da'vogarning jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishini chaqirish talabini asosiz javobsiz qoldirganmi (yoki navbatdagi)? Asoslantirilgan huquqiy baho bering.

4. Da'vogar o'z talablarini asoslashi uchun qanday dalillar bilan isbotlashi kerak? Adolatli echim berilishi uchun nimalar isbotlanishi talab etiladi? Fikrlaringizni asoslang.

Nazariy savollar

1. Korporativ huquq sub'ektlarining javobgarlik doirasini aniqlang va tahlil eting.

2. Qaysi holatlarda aksiyador yoki ta'sischi jamiyat majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'la oladi?

3. Jamiyat aksiyadori yoki ishtirokchisining jamiyat majburiyatlari bo'yicha subsidiar va solidar javobgarligi asoslarini tushuntiring.

4. Sho'ba jamiyatlarining bankrotlik holatlarida ularning majburiyatlari yuzasidan aksiyadorlik jamiyatlarining javobgarligining vujudga kelish asoslarini tahlil eting.

5. Qaysi holatlarda aksiyador yoki ishtirokchi majburiy tartibda jamiyat a'zosi tarkibidan chiqarilishi mumkin.

8-MAVZU. XO‘JALIK JAMIYATLARIDA TUZILADIGAN AYRIM BITIMLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

- 1. Yirik bitimlarning huquqiy rejimi**
- 2. Manfaaddorlik mavjud bo‘lgan bitimlarning huquqiy rejimi**
- 3. Yirik aksiya paketlarini sotib olish huquqiy rejimi**
- 4. Korporativ shartnomalar**

Yirik bitim – jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog‘liq bitim (shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik va boshqalar) yoki o‘zaro bog‘langan bir nechta bitim, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya hisobotlari ma‘lumotlari asosida jamiyat sof aktivlari miqdorining o‘n besh foizidan (mas‘uliyati cheklangan jamiyatda yigirma besh foizidan) ortig‘ini tashkil etadigan bitimlardir.

Yirik bitimlar qatoriga xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida tuziladigan oddiy bitimlar kirmaydi.

Yirik bitim predmetiga bevosita yoki bilvosita jamiyat tomonidan mulkni sotib olish, begonalashtirish yoki begonalashtirish mumkin bo‘lgan munosabatlar kiradi. Boshqacha qilib aytganda, yirik bitimning predmeti mulkdir. Shu bilan birga, mulk kategoriyasiga nafaqat ashyolar, balki mulkiy huquqlarga ham kiradi. Ushbu holda mulk tushunchasi keng ma‘noda tushunilishi kerak, bunday ob‘ektlar jamiyatning iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish uchun foydalanish mumkin, shuning uchun ham, axborot, ijodiy faoliyat natijalarini (intellektual mulk) o‘z ichiga olishi kerak degan qarashlar keng tarqalgan.

Xo‘jalik jamiyatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nafaqat yirik bitimlar tasnifiga kirish mezonlari belgilandi, shu bilan birga, ushbu mezonlarga mos kelganda yirik bitim deb tan olinishi mumkin bo‘lgan bitimlarga alohida misollar ham keltirilgan. Ushbu bitimlarning taxminiy ro‘yxati ochiqdir.

Qonun yirik bitimning belgisi sifatida nafaqat mulkni begonalashtirishni, balki bunday begonalashtirish imkoniyati mavjudligini ham beradi. Bevosita yoki bilvosita jamiyat aktivlari begonalashtirish imkonini beruvchi yirik bitimlar, bunga misol tariqasida kafolat, mulkni garov shartnomasi va boshqa shartnomalarni o‘z ichiga olishi mumkin, agar ular bajarilmagan taqdirda javobgarlik kafilning mol-mulkiga qaratilishi mumkin va bu belgilangan tartibda uning mulkini begonalashtirilishiga olib kelishi mumkin.

Yagona iqtisodiy maqsadni ko‘zlaydigan bitimlar o‘zaro bog‘langan bitimlar deb hisoblanadi, ya’ni jamiyat bir bitimni amalga oshirishi mumkin bo‘lsa-da, ayni paytda bir bitimni qismlarga ajratib amalga oshiradi. Masalan, muayyan mulkiy majmuaning tarkibiy qismlari predmeti bo‘lgan bir necha bitimlarni o‘zaro bog‘liq deb atash mumkin. Ko‘pchilik olimlar o‘zaro bog‘langan bitimlarning quyidagi xususiyatlari borligiga qo‘shiladilar: bitim predmetining yagonaligi, talablar va muddatlarning bir xilligi.

Yirik bitimlar tuzish tartibi. Aksiyadorlik jamiyatlari va mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risidagi amaldagi qonun hujjatlarida yirik bitimlar tuzishning alohida tartibi nazarda tutilgan. Korporativ munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlarida yirik bitimlar ijro etuvchi organlar faoliyatini nazorat qiluvchi xo‘jalik yurituvchi sub’ektning boshqaruv organlari: kuzatuv kengashi yoki umumiy yig‘ilish tomonidan tasdiqlanishi nazarda tutilgan. Mas’uliyati cheklangan jamiyatda yirik bitim tuzish to‘g‘risidagi qaror jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Milliy huquqimizda aksiyadorlik jamiyatlari aktivlari balans qiymatining 15-50% miqdoridagi yirik bitimlar tuzish uchun AJning kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan tasdiqlanishini talab etadi, shu bilan birga jamiyat kuzatuv kengashining iste’fodagi a’zolarining ovozlari inobatga olinmaydi. Kuzatuv kengashi a’zolari yirik bitimni tasdiqlashda yakdillikka erishmasa, ushbu masala ko‘rilishi uchun Kuzatuv kengashining qaroriga ko‘ra aksiyadorlik jamiyati umumiy yig‘ilishi tomonidan ko‘rilishi uchun taqdim etiladi, agar yirik bitimni ma’qqullashning bunday tartibi ustavda nazarda tutilgan bo‘lsa.

Agar yirik bitimlarni tuzish tartibiga rioya qilinilmasa, ularning haqiqiy emas deb topilishiga sabab bo‘ladi.

Nazarda tutilgan talablarni buzgan holda tuzilgan yirik bitimlar jamiyat yoki uning ishtirokchisi (aksiyadori) talabiga binoan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Xullas, xo‘jalik jamiyatlari yirik bitimlarni tuzish tartibi bo‘yicha belgilangan talablarni buzgan holda amalga oshiriladigan harakatlari nizoli hisoblanadi.

Manfaatdorlik mavjud bo‘lgan bitimlar – jamiyatning kuzatuv kengashining a’zosi, yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi vazifasini amalga oshiruvchi shaxslar, shu jumladan ishonchli boshqaruvchi yoki menejer, jamiyatning kollegial ijro etuvchi organi a’zosi manfaatdor bo‘lgan yoki o‘z affillangan shaxslari bilan birgalikda jamiyat ishtirokchi (aksiyador)lari umumiy ovozlari sonining yigirma va undan ortiq ovoz beruvchi aksiyadori (ishtirokchisi) ning, shuningdek jamiyat uchun majburiy ko‘rsatmalar berish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar bilan tuziladigan bitimlar.

Yuqoridagi ta'rif asosida xulosa qilish mumkinki, manfaatdor shaxslar jamiyat tomonidan amalga oshirilgan bitimlarga ta'sir ko'rsatish uchun real imkoniyatga ega bo'lgan shaxslar doirasidir.

Natijada, yuqorida ko'rsatilgan shaxslar (manfaatdor shaxslar) va jamiyatning o'zi yoki uning aksiyadorlari (ishtirokchilari) o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin (ya'ni korporatsiyaning umumiy manfaatlari), shu tufayli bu turdagi bitimlarni amalga oshirishning maxsus huquqiy rejimi o'rnatilgan.

Jamiyat bitim tuzishidan manfaatdor bo'lgan shaxslar mazkur jamiyatga nisbatan affillangan shaxslar deb e'tirof etiladi.

Milliy huquqimizda quyidagilar jamiyatning affillangan shaxslari deb quyidagilar e'tirof etiladi:

1) ushbu jamiyatning yigirma foiz va undan ortiq foiz aksiyalariga egalik qiluvchi yuridik shaxs;

2) ushbu jamiyatning yigirma foiz va undan ortiq foiz aksiyalariga yaqin qarindoshlari bilan birgalikda egalik qiluvchi jismoniy shaxs;

3) ushbu jamiyat kuzatuv kengashining a'zosi, jamiyat direktorining yoxud jamiyat boshqaruvi a'zosining vakolatlarini amalga oshirayotgan shaxs;

4) ushbu jamiyat qaysi yuridik shaxs ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma foizi va undan ortiq foiziga egalik qilsa, o'sha yuridik shaxs;

5) ushbu jamiyatning sho'ba xo'jalik jamiyati bo'lgan yoki ushbu jamiyat qaysi jamiyatning sho'ba xo'jalik jamiyati bo'lsa, o'sha jamiyatning sho'ba xo'jalik jamiyati bo'lgan yuridik shaxs;

6) ushbu jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma foizi va undan ortiq foiziga egalik qiluvchi ayni bir shaxs qaysi yuridik shaxs ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma foizi va undan ortiq foiziga egalik qilsa, o'sha yuridik shaxs;

7) ushbu jamiyat kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etuvchi ayni bir shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxs kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etsa, o'sha yuridik shaxs;

8) ushbu jamiyatning direktori yoxud boshqaruv a'zosi bo'lgan ayni bir shaxs yoki uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxs ijroiya organining rahbari vazifasini amalga oshirayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxs;

9) yaqin qarindoshlari bilan birgalikda ushbu jamiyat kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etuvchi shaxs qaysi yuridik shaxs rahbarining yoki ijroiya organi a'zosining vazifasini amalga oshirayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxs;

10) ushbu jamiyat direktorining yoki boshqaruv a'zosining vakolatlarini amalga oshirayotgan shaxs yaqin qarindoshlari bilan birgalikda qaysi yuridik shaxs jamiyat kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etsa, o'sha yuridik shaxs;

11) ushbu jamiyat bilan bitta xo‘jalik birlashmasiga kiruvchi yuridik shaxs.

Quyidagilar jamiyatning affillangan shaxsi bo‘lgan aksiyador – jismoniy shaxsning affillangan shaxslari deb e‘tirof etiladi:

1) ushbu jismoniy shaxs va (yoki) uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxs ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma foizi va undan ortiq foiziga egalik qilsa, o‘sha yuridik shaxs;

2) ushbu aksiyador yoki uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxs kuzatuv kengashining a‘zosi bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxs;

3) ushbu aksiyador yoki uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsda ijroiya organining a‘zosi vakolatlarini amalga oshirayotgan bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxs.

Jamiyatning affillangan shaxsi bilan tuziladigan bitimni ma‘qullash

Jamiyatning ijroiya organi jamiyat kuzatuv kengashini affillangan shaxs bilan tuzilishi kutilayotgan bitimni o‘rganish natijalari bayonnomasini ilova qilgan holda yozma shaklda xabardor qilinadi.

Jamiyatning kuzatuv kengashi affillangan shaxs bilan tuziladigan bitim to‘g‘risidagi axborotni o‘rganadi va affillangan shaxsning yozma bildirishi jamiyatga kelib tushgan sanadan e‘tiboran o‘n besh kundan kechiktirmay bitim bo‘yicha qaror qabul qiladi.

Jamiyatning affillangan shaxsi jamiyatning kuzatuv kengashi yoki aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi mazkur bitim yuzasidan qaror qabul qilayotganda muhokamada ishtirok etishga haqli emas va ovoz berish huquqiga ega emas.

Yirik aksiya paketlarini sotib olish huquqiy rejimi

Yirik aksiyalar paketi deyilganda odatda, aksiyadorlik jamiyatlarida ovoz berish huquqini beruvchi oddiy va imtiyozli aksiyalarg umumiy sonining 20-30% dan ortig‘ini tashkil etuvchi aksiyalar miqdori tushuniladi. Aksiyalarning nazorat paketiga egalik qilish amalda korporativ boshqaruv (nazorat)ni qo‘lga kiritish va qolgan aksiyadorlarnining kapitalini boshqarish imkoniyatini beradi.

Aksiyalarning yirik paketini sotib olish jarayoni bevosita korporativ nazorat tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Aksiyalarning yirik paketini sotib olish uchun maxsus huquqiy mexanizmning o‘rnatilishi, yangi mulkdor aksiyadorlik jamiyati ustidan korporativ nazoratni o‘rnatishi (yoki o‘rnatishga harakat qilishi) bilan bog‘liqdir.

Korporativ nazoratning o‘zgarishi juda ko‘p sonli shaxslarning, shu jumladan minoritar aksiyadorlarning va jamiyat boshqaruv organlari a‘zolarining manfaatlariga ham ta‘sir qilishi mumkin.

Ushbu yirik aksiyalar paketini sotib olishning maxsus huquqiy rejimi korporativ nazoratni o'zgarishi natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarining oldini olish maqsadida o'rnatiladi.

Jahon amaliyotida yirik aksiyalar paketini sotib olish maxsus huquqiy rejimining AQSh va Yevropa (Buyuk Britaniya) asosiy modellari mavjud. Britaniya modeli 2004 yil 21 apreldagi Yevropa Ittifoqining o'n uchinchi direktivasi uchun asos sifatida olingan va uning asosiy qoidalarida o'z aksini topgan. Yevropa Ittifoqining rivojlangan mamlakatlarida bu institut keng qo'llaniladi. Yevropa Ittifoqining o'n uchinchi direktivasining 15-moddacida majoritar aksiyadorning, majburan minoritar aksiyadorlar aksiyalarini REPO uchun ovoz berish huquqini beruvchi kompaniya aksiyalarini 90% egalik ko'pchilik aksiyadorlar huquqini belgilaydi; shu bilan birga, YeI a'zo davlatlar yuqori Pol o'rnatish huquqiga ega, qaysi, ammo, yuqori bo'lishi mumkin emas 95% aksiyalar ovoz berish huquqi.

Korporativ shartnomalar. Xo'jalik jamiyati ishtirokchilari yoki ularning ayrimlari o'zlarining korporativ huquqlarini amalga oshirish to'g'risida jamiyat ishtirokchilarining huquqlarini amalga oshirishga qaratilgan korporativ shartnomalarni tuzish huquqiga ega hisoblanadilar. Ushbu shartnomalarda, ular o'z huquqlarini muayyan tarzda amalga oshirish yoki amalga oshirishdan tiyilish (voz kechish), jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishida muayyan tarzda ovoz berish, jamiyatni boshqarish bo'yicha boshqa harakatlarni kelishib amalga oshirish, ustav kapitalidagi ulushlar (aksiyalar)ni muayyan baho bo'yicha yoki muayyan holatlarda qo'lga kiritish yoki begonalashtirish yoxud muayyan vaziyat yuz berguniga qadar ulush (aksiya)ni begonalashtirishdan tiyilib turish majburiyatini oladilar.

Korporativ shartnoma o'z ishtirokchilari zimmasiga ovoz berish, jamiyat organlarining tuzilishi va ularning vakolatlarini belgilashni jamiyat organlarining ko'rsatmasiga muvofiq amalga oshirish majburiyatini yuklashi mumkin emas va uning ushbu qoidaga zid bo'lgan shartlari o'z-o'zidan haqiqiy emas deb topiladi.

Agar qonun hujjatlarida jamiyat organlari tuzilishi va jamiyat ustavi bilan ularning vakolatlari o'zgartirilishiga yo'l qo'yilsa, korporativ shartnomada shartnoma taraflarining jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishida jamiyat ustaviga jamiyat organlari tuzilishi va vakolatlarini belgilovchi qoidalarni kiritish uchun ovoz berish majburiyati belgilanishi mumkin.

Korporativ shartnoma taraflar imzolagan yozma shakldagi bitta hujjat shaklida tuziladi. Xo'jalik jamiyatlarining korporativ shartnomani tuzgan ishtirokchilari jamiyatni korporativ shartnoma tuzilganligi to'g'risida xabardor qilishlari lozim, bunda shartnomaning mazmunini oshkor qilish talab etilmaydi. Ushbu majburiyat bajarilmagan hollarda korporativ shartnoma tarafi bo'lmagan

jamiyatning ishtirokchilari o'zlariga etkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqlidirlar.

Odatda yopiq korporatsiyalar ishtirokchilari o'rtasida tuzilgan korporativ shartnoma to'g'risidagi ma'lumot oshkor etilmaydi va maxfiy hisoblanadi. Korporativ shartnoma unda taraf sifatida ishtirok etmaganlar uchun majburiyat vujudga keltirmaydi.

Xo'jalik jamiyati organi tomonidan qaror qabul qilish paytida xo'jalik jamiyatining barcha ishtirokchilari korporativ shartnomaning tarafi bo'lsalar, korporativ shartnomaning buzilishi tarafning da'vosi bo'yicha xo'jalik jamiyati organining qarorini haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'lishi mumkin. Xo'jalik jamiyati organining qarorini ushbu qismiga muvofiq haqiqiy emas deb topilishi, xo'jalik jamiyati tomonidan uchinchi shaxslar bilan tuzilgan bitimlarining o'z-o'zidan haqiqiy emasligiga olib kelmaydi.

Korporativ shartnoma ishtirokchisining shartnomani buzgan holda tuzgan bitimi, agar bitimning narigi tarafi korporativ shartnomada nazarda tutilgan cheklashlarni bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan bo'lsa, korporativ shartnomaning boshqa tarafi da'vosi bo'yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Korporativ shartnomaning taraflari shartnomaning xo'jalik jamiyati ustavi qoidalariga zidligini uning haqiqiy emasligiga sabab sifatida ko'rsatishga haqli emaslar. Agar korporativ shartnomada boshqa holat belgilangan bo'lmasa, korporativ shartnoma taraflaridan birining xo'jalik jamiyati ustav kapitalidagi ulushi (aksiyasi)ga bo'lgan huquqining bekor bo'lishi qolgan taraflar uchun shartnomaning bekor bo'lishga olib kelmaydi.

Jamiyatning kreditorlari va boshqa uchinchi shaxslar xo'jalik jamiyati ishtirokchilari bilan bunday uchinchi shaxslarning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini ta'minlash maqsadida o'zlarining korporativ huquqlarini muayyan tarzda amalga oshirish yoki amalga oshirishdan tiyilish (voz kechish), shu jumladan jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishida muayyan tarzda ovoz berish, jamiyatni boshqarish bo'yicha boshqa harakatlarni kelishib amalga oshirish, ustav kapitalidagi ulushlar (aksiyalar)ni muayyan baho bo'yicha yoki muayyan holatlarda qo'lga kiritish yoki begonalashtirish yoxud muayyan vaziyat yuz berguniga qadar ulush (aksiya)ni begonalashtirishdan tiyilib turish majburiyatini xo'jalik jamiyatlari ishtirokchilari zimmasiga yuklashni nazarda tutuvchi shartnoma tuzishlari mumkin hisoblanadi hamda ushbu shartnomaga nisbatan ham korporativ shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Zaruriy adabiyotlar:

1. Корпоративное право: учебник / Е.Г. Афанасева, В.Ю. Бакшинская, Е.П. Губин и др.; отв. ред. И.С. Шиткина. 2-е изд., перераб. и доп. М: КНОРУС, 2015. С. 660-697
2. Nicola de Luca. European company law: text, cases and materials. New York: Cambridge University Press, 2017. S. 405-453
3. Paul L. Davies, Sarah Worthington. Gower's Principles of Modern Company Law 10th ed (eBook). Sweet & Maxwell Ltd. 2016.

Kazus

Farg'ona shahar iqtisodiy sudiga da'vogar «TX» MChJ ta'sischisi Li Svetlana javobgar «TX» MChJga va ish bo'yicha uchinchi shaxs «TX» MChJ ta'sischisi T.Xaydarovga nisbatan da'vo ariza bilan murojaat etib, «TX» MChJning 2018 yil 27 iyundagi 1-sonli umumiy yig'ilish qarorini haqiqiy emas deb topishni so'ragan.

Ishdagi hujjatlardan va sud jarayonida aniqlangan holatlardan ma'lum bo'lishicha, Farg'ona shahar hokimligining tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'limi tomonidan 2003 yil

17 aprelda 314-Q-raqam bilan ro'yxatga olingan «TX» MChJning ta'sis shartnomasiga ko'ra, jamiyatning ustav fondi 30 000 000 so'mni tashkil etib, uning ishtirokchilari Xaydarov Tuxtamurod Xaydarovich (96,5 foiz ulush bilan) va Li Svetlana (3,5 foiz ulush bilan) hisoblanadi.

MChJning 2018 yil 27 iyun kuni o'tkazilgan ta'sischilar umumiy yig'ilishida jamiyatga tegishli bo'lgan Farg'ona shahar Cho'pon ota maskani

10-manzilda joylashgan 3 ta savdo do'konini to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar o'tkazish yo'li bilan rieltorlik tashkiloti orqali sotish masalasi ko'rib chiqilgan. Ushbu kun jamiyat ta'sischilari tomonidan kun tartibidagi masala bir ovozdan ma'qullangan va bu haqda 1-sonli umumiy yig'ilish bayoni rasmiylashtirilgan. So'd tomonidan jamiyat buxgalteriya balanslari o'rganilganda mazkur 3 ta savdo do'konlarining qiymati jamiyat mol-mulkingining 40 % dan ortig'ini tashkil etishi aniqlandi.

Biroq, da'vogar vakili tomonidan sudga taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, Li Svetlananing fuqarolik pasportining nusxasidan ko'rinishicha, u 2012 yil 24 may kuni Farg'ona shahar IIB 5-ShMB tomonidan ro'yxatdan chiqarilgan va 2012 yil 25 may kuni O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketgan.

Jamiyat ustavining 5.6.-bandi 1-xatboshisida, jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishini chaqiruvchi organ yoki shaxslar uni o'tkazishdan kamida o'ttiz kun oldin bu haqda jamiyatning har bir ishtirokchisini jamiyat ishtirokchilarining ro'yxatida ko'rsatilgan manzil bo'yicha buyurtma xat bilan xabardor qilishi

shartligi, 5.4.-bandida, jamiyat ishtirokchilarining navbatdagi umumiy yig'ilishi jamiyatning ijro etuvchi organi, ya'ni uning rahbari tomonidan chaqirilishi belgilangan. Ammo, «TX» MChJ vakili jamiyatning 2018 yil 27 iyun kuni o'tkazilishi rejalashtirilgan yig'ilish vaqti va joyi to'g'risida jamiyat ta'sischisi Li Svetlanani o'ttiz kun oldin xabardor qilinganligini tasdiqlovchi dalilni sudga taqdim eta olmadi.

Shuningdek, sud jarayonida Jamiyat ta'sischisi T.Xaydarov (ayni vaqtda jamiyat direktori) «TX» MChJ tegishli bo'lgan Farg'ona shahar Cho'pon ota maskani 10-manzilda joylashgan 3 ta savdo do'konini fuqaro D.Vaxidovga rieltorlik tashkiloti yordamida sotganligi tasdiqlandi.

MChJ ta'sischisi Li Svetlana 2012 yil 25 mayda O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketganligini, hozirgi kunga qadar Rossiya Federatsiyasining Moskva shahrida o'g'li bilan istiqomat qilib kelayotganligini, jamiyatga tegishli bo'lgan savdo do'konlarini sotish haqida 2018 yil 27 iyun kuni o'tkazilgan ta'sischilar umumiy yig'ilishida

u qatnashmaganligini hamda yig'ilish bayonining qaror qismidagi imzo ham unga tegishli emasligini, u bu haqida 2020 yil 28 iyul kuni xabar topganligini va mazkur holatda uning huquqlari poymol etilganini ta'kidlab sudga MChJning 2018 yil 27 iyundagi 1-sonli umumiy yig'ilish qarorini haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi da'vo kiritganligini ma'lum qilib, suddan da'vo arizasini qanoatlantirishni so'radi.

I. Masalaning nazariy asoslari tahlili

1. Korporativ boshqaruv modellarini tahlil eting va bizning huquqiy tartibotimiz (nisbattan) qaysi korporativ boshqaruv modeliga qurilganligini tahlil eting.

2. MChJ ishtirokchisining jamiyatni boshqarishga bo'lgan huquqlari qanday huquqiy prinsiplarga asoslanadi?

3. MChJ umumiy yig'ilishi qarorining huquqiy tabiatini yoriting?

4. Korporatsiya tomonidan tuziladigan ekstraordinar bitimlarning mohiyatini yoriting?

II. Muammoli vaziyatga huquqiy echim topish bo'yicha

1. MChJning 2018 yil 27 iyundagi 1-sonli umumiy yig'ilish qarorini haqiqiy emas deb topish mumkinmi, umumumiy yig'ilishni o'tkazilish tartibi asosida asoslantiring?

2. Jamiyat ishtirokchisi S.Lining 2012 yildan buyon Rossiya Federatsiyasida istiqomat qilayotganligini, ya'ni uning ushbu qisqa muddatda kelish imkoni mavjud

emasligi holatidan kelib chiqqan holda jamiyat ijro etuvchi organi S.Lining 2018 yil 27 iyundagi 1-sonli umumiy yig'ilishda ishtirokini boshqa shaklda ta'minlashning huquqiy echimi mavjudmi (yuriskonsult sifatida huquqiy maslahat bering)?

3. Ushbu holatda MChJ tomonidan tuzilayotgan bitim (3 ta savdo do'konlarini oldi-sotdisi) alohida tartibda amalga oshirishni talab etadimi (agar talab etsa uning huquqiy oqibatlarini yoriting)?

Nazariy savollar:

1. Ma'suliyati cheklangan jamiyatlar uchun yirik bitim deb baholash mumkin bo'lgan mezonlarni tahlil eting.

2. Xo'jalik jamiyatlarida kimlar manfaatdor shaxslar hisoblanadi?

3. Tuzilishidan manfaatdorlik bo'lgan bitimlarning haqiqiy emas deb topish asoslarini sanang va tahlil eting.

4. Aksiyadorning jamiyat bitim tuzishidan manfaatdorlik borligi yuzasidan xabar berish majburiyatining yuridik mazmunini tavsif eting.

5. Amaldagi qonunchilikka muvofiq aksiyadorlik jamiyatlari va ma'suliyati cheklangan jamiyatlari yirik bitimlarining o'zaro farqli va o'xshash hususiyatlarini tahlil etishga qaratilgan qiyosiy jadval tuzing.

9-MAVZU. KORPORATIV ZIDDITYaLAR VA NIZOLAR. KORPORATIV MUNOSABATLAR ISHTIROKChILARI HUQUQ VA QONUNY MANFAATLARINI HIMOYa QILISH

1. Korporativ ziddiyatlar va nizolar

2. Xo‘jalik jamiyatlari organlari qarorlari ustidan shikoyat qilish, ular bo‘yicha nizolashish

3. Xo‘jalik jamiyatlari tomonidan tuzilgan bitimlar bo‘yicha nizolashish

Korporativ konfliktlar – ishtirokchi (aksiyador)lar va jamiyatning huquqlari va (yoki) qonuniy manfaatlarini jamiyatning menedjmenti yoki boshqa ishtirokchilari tomonidan buzilishi.

Korporativ nizolar – jamiyatlarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi, shuningdek uning aksiyadorlar (ishtirokchilar)ning huquqlarini himoya qilish sohasidagi nizolar.

Xorijiy olimlarning ta’kidlashicha, har qanday mamlakat korporativ munosabatlarida uch turdagi konfliktlar tavsiflanadi:

- 1) menejerlar va aksiyadorlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik;
- 2) nazorat kiluvchi (majoritar) va minoritar aksiyadorlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik;
- 3) korporatsiya (guruh sifatida aksiyadorlar) va kreditorlar hamda xodimlar kabi tashqi guruhlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar.

Minoritar va asosiy aksiyadorlar o‘rtasida dividendni to‘lash (foydaning taqsimoti) masalasida qarama-qarshiliklar yuzaga kelganda jiddiy ziddiyatlar kuzatiladi.

Korporativ shantaj (grinmeyl) – bu xo‘jalik jamiyatining boshqaruv jarayoniga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishga ruxsat bermaydigan paket aksiyalar (ulushlar)ga ega aksiyador (ishtirokchi)lar tomonidan o‘zlarining korporativ huquqlarni suiiste’mol qilish yo‘li bilan jamiyatga o‘z aksiya (ulush)larini nazorat qiluvchi aksiyador (ishtirokchi) larga yoki aksiyadorlik jamiyatining o‘ziga oshirilgan narxlarda sotish yoki ko‘rsatilgan shaxslardan boshqa mol-mulkni olish (aksariyat hollarda xizmatlar ko‘rsatish, ishlarni bajarish va hokazo bitimlar ko‘rinishida) maqsadida jamiyat faoliyatiga sezilarli darajada to‘sqinlik qilish.

Korporativ konfliktlarlar iqtisodiy sudlar tomonidan ko‘rib chiqiladigan korporativ nizolarning sababchisidir, degan fikrga aksariyat olimlar qo‘shilishadi.

Aksiyadorlar (ishtirokchilar) huquqlari buzilgan taqdirda, quyidagi da’vo talablarining taqdim etilishi keng tarqalgan:

- aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishi qarorini bekor qilish;
- jamiyat kuzatuv kengashi yoki ijro etuvchi boshqaruv organlarining qarorini haqiqiy emas deb topish, shu jumladan aksiyadorlar (ishtirokchilar) talabiga ko'ra harakatlarni amalga oshirishni rad etish to'g'risidagi qaror;

- jamiyat aksiyadorlari (ishtirokchilari) huquqlarini amalga oshirishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirishga majbur qilish, shu jumladan, e'lon qilingan dividendlarni to'lash yoki jamiyat sof foydasini bo'lish bilan bog'liq;

- jamiyatni MChJ ishtirokchilari bo'yicha yuridik shaxslarning yagona davlat reestridagi axborotga hamda ularga tegishli ulushlarni boshqa shaxslarga begonalashtirilayotganda ulushlar miqdoriga o'zgartirishlar kiritishga majbur etish;

- ustav qoidalarini, ichki hujjatlarni va jamiyatni tashkil etish to'g'risidagi bitimlarni yoki umuman ko'rsatilgan barcha hujjatlarni haqiqiy emas deb topish.

Korporativ munosabatlarda da'vo qilish huquqi. Shuni yodda tutish kerakki, faqat qonun bilan vakolat berilgan shaxslargina korporativ munosabatlarda da'vo qilish huquqiga ega.

Milliy huquqimizda korporativ nizolar toifasidagi ishlar bo'yicha ko'rsatilgan da'voni ta'minlash choralari arz qilingan talablarga mos kelishi, ya'ni bevosita nizo predmetiga bog'liq, da'vo talablariga mutanosib, da'voning ijrosini ta'minlash uchun kerakli va etarli bo'lishi lozim hisoblanadi.

Qayd etish lozimki, xo'jalik jamiyati va shirkatlari zimmasiga uning boshqaruv organlari vakolatiga kiradigan majburiyatni yuklash haqidagi da'vo talablari, ushbu majburiyat qonun hujjatlari bilan jamiyat yoki shirkat boshqaruv organining vakolatiga kiritilganligi sababli, rad etilishi lozimdir.

Yopiq korporatsiyalardagi korporativ munosabatlarda, xususan xo'jalik shirkatlarida ishtirokchilarning vakolatlarini tugatish, ishtirokchini shirkatdan chiqarish jarayonida mazkur ishtirokchining vakolatlarini shirkatning ta'sis hujjatlarini o'rgangan holda aniqlashni talab etadi. Bunda javobgarning o'z vakolatlarini qo'pol ravishda buzganligi yoki uning shirkat ishlarini yuritishga qobiliyatsizligini isbotlash da'vogarning majburiyati hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyalarning hammasini yoki muayyan qismini aksiyadorlik jamiyati tomonidan qaytarib sotib olish majburiyatini yuklash haqidagi da'vo arizasi bilan faqat ovoz beruvchi aksiyaga ega bo'lgan aksiyadorlar murojaat qilishga haqliligini hisoblanishadi.

Jamiyat boshqaruv organlari qarorlari ustidan shikoyat qilish. Shunday qilib, umumiy yig'ilish qarorlarini haqiqiy emas deb topish uchun quyidagi talablar qo'yiladi:

- qaror faqat aksiyador (ishtirokchi) lar tomonidan shikoyat qilinishi mumkin;

- aksiyador (ishtirokchi) lar shikoyat qilingan qaror xo‘jalik jamiyatlari to‘g‘risidagi va boshqa qonun hujjatlarni yoki jamiyat ustavi talablarini buzganligini isbotlashi kerak.

- aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etmagan yoki bunday qarorga qarshi ovoz bergan aksiyador (ishtirokchi) tomonidan shikoyat qilinishi mumkin;

- aksiyador (ishtirokchi) shikoyat qilinayotgan qarorning o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzganligini isbotlashi kerak.

Ilgari ilmiy doktrina va ish amaliyotida aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig‘ilishining shikoyat qilingan qarorlarini shartli ravishda o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan va nizoliga bo‘lingan. O‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan qarorlar ularning murojaatidan qat’iy nazar haqiqiy emas, nizoli qarorlar kichik huquqbuzarliklar bilan bog‘liq holda sud tomonidan o‘z kuchida qoldirilishi mumkin.

Yig‘ilish qarori quyidagi qonun buzilish holatlarida haqiqiy emas deb topilishi mumkin:

1) ishtirokchining irodasini ifodalashga ta’sir ko‘rsatuvchi yig‘ilishni chaqirish, tayyorlash va o‘tkazish tartibining jiddiy buzilishi;

2) yig‘ilish ishtirokchisi nomidan harakat qiluvchi shaxslarda zarur vakolatlarning bo‘lmasligi;

3) yig‘ilish o‘tkazish jarayonida ishtirokchilari huquqlari tengligining buzilishi;

4) bayonnomani tuzish qoidalarini, shu jumladan bayonnomaning yozma shakli to‘g‘risidagi qoidalarni ham sezilarli darajada buzish yuz berganda.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini tayyorlash va o‘tkazish tartibi (jarayoni)da yo‘l qo‘yiladigan nizoli qoidabuzarliklarga quyidagilar kiradi: umumiy yig‘ilish o‘tkazilishi to‘g‘risida aksiyadorga o‘z vaqtida xabar bermaslik (xabar bermaslik); aksiyadorga yig‘ilish kun tartibiga kiritilgan masalalar bo‘yicha zarur ma’lumotlar (materiallar) bilan tanishish imkoniyatini bermaslik; saylov byulletenlarini o‘z vaqtida bermaslik, yig‘ilishda qatnashish uchun aksiyadorni ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish, yig‘ilish o‘tkaziladigan binoga kirishning cheklanganligi va boshqalar.

Umumiy yig‘ilish qarori ustidan shikoyat qilish kuni talablari:

1. Qaror ustidan faqat aksiyador (ishtirokchi) lar shikoyat qilishi mumkin;

2. Aksiyador (ishtirokchi)lar shikoyat qilinayotgan qaror xo‘jalik jamiyatlari to‘g‘risidagi va boshqa qonun hujjatlarni yoki jamiyat ustavi talablari buzganligini isbotlashi kerak.

Aksiyador da’vosi qondirishilishi uchun qonun buzilish holatlari jiddiy (ahamiyatli) bo‘lishi kerak.

3. Qaror ustidan umumiy yig'ilishda ishtirok etmagan yoki qarorga qarshi ovoz bergan (faqat nizoli qarorlar uchun qo'llaniladi) aksiyador (ishtirokchi) shikoyat qilishi mumkin.

4. Aksiyador (ishtirokchi) shikoyat qilingan qaror uning uchun muhim salbiy oqibatlariga olib kelishini isbotlashi kerak.

Jamiyat tomonidan tuzilgan bitimlar bo'yicha aksiyador (ishtirokchi) larning nizolashishi

Yirik bitimlar va bitimlar, ularni amalga oshirilishida manfaatdorlig mavjud bo'lgan bitimlar AJ to'g'risidagi va MChJ to'g'risidagi qonun talablarini buzgan holda sodir etilgan taqdirda, jamiyat yoki aksiyador (ishtirokchi) ning da'vosiga binoan haqiqiy emas deb topilishi mumkin, ya'ni bu bitimlar nizoli hisoblanadi.

Sud quyidagi holatlardan biri (ya'ni, har qaysi biri) mavjud bo'lsa, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablarni buzgan holda amalga oshirilgan yirik bitimni va manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitimni tan olish talablarini qondirishdan bosh tortadi:

- bitimni bekor qilish to'g'risida da'vo qilgan ishtirokchining ovozi ovoz berish natijalariga ta'sir qila olmaydigan bo'lsa;

- bitim jamiyat yoki da'vo qo'zg'atgan ishtirokchiga yoki ular uchun boshqa salbiy oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo'lgan yoki zarar etkazishi mumkinligi isbotlanmagan taqdirda;

- ishni sudda ko'rib chiqish davomida, ushbu bitimni keyinchalik tasdiqlanishi to'g'risidagi dalillarning taqdim etilishi.

Milliy huquqimizda sudlar tomonidan ko'riladigan korporativ nizolar sanab o'tilgan:

- 1) yuridik shaxsni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish bilan bog'liq nizolar;

- 2) xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarning, ulushlarning, kooperativlar a'zolari paylarining mansubligi, ularga yuklamalar belgilash va ulardan kelib chiqadigan huquqlarni amalga oshirish bilan bog'liq nizolar, bundan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni, ulushlarni, kooperativlar a'zolarining paylarini o'z ichiga oluvchi meros mol-mulkni yoki er-xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan nizolar mustasno;

- 3) yuridik shaxs ishtirokchilarining (muassislarining, a'zolarining) yuridik shaxs tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish va (yoki) bunday bitimlarning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash haqidagi da'volari bo'yicha nizolar;

- 4) qimmatli qog'ozlar emissiyasi bilan, shu jumladan emitentning boshqaruv organlari qarorlari yuzasidan nizolashish bilan, emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni

joylashtirish jarayonida tuzilgan bitimlar, emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarish (qo'shimcha ravishda chiqarish) natijalari bo'yicha hisobotlar (xabarnomalar) yuzasidan nizolashish bilan bog'liq nizolar;

5) qimmatli qog'ozlarni nominal saqlovchilarning aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish, qonunda nazarda tutilgan boshqa huquq va majburiyatlarni qimmatli qog'ozlarni joylashtirish va (yoki) ularning muomalasi munosabati bilan qimmatli qog'ozlarning nominal saqlovchilari tomonidan amalga oshirish bilan bog'liq faoliyatidan kelib chiqadigan nizolar;

6) yuridik shaxs ishtirokchilarining umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi nizolar;

7) yuridik shaxs boshqaruv organlarining qarorlari ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi nizolar.

Qonunga muvofiq korporativ nizolar bo'yicha ishlar jumlasiga boshqa nizolar ham kiritilishi mumkin.

Zaruriy adabiyotlar:

1. Корпоративное право: учебник / Е.Г. Афанасева, В.Ю. Бакшинская, Е.П. Губин и др.; отв. ред. И.С. Шиткина. 2-е изд., перераб. и доп. М: КНОРУС, 2015. – С. 763-812

2. Nicola de Luca. European company law: text, cases and materials. New York: Cambridge University Press, 2017. – S. 454-501

3. Paul L. Davies, Sarah Worthington. Gower's Principles of Modern Company Law 10th ed (eBook). Sweet & Maxwell Ltd. 2016. – S. 305-352

Kazus

Ishdagi hujjatlardan va sud jarayonida aniqlangan holatlardan ma'lum bo'lishicha, "Guli Marjon Servis" MChJ Samarqand shahar hokimligi huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish inspeksiyasi tomonidan 2006 yil 13 sentyabrda 2588-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

"Guli Marjon Servis" MChJ ta'sis shartnomasi va ustavi asosida faoliyat yuritib, jamiyat ishtirokchilarining mablag'larini birlashtirish yo'li bilan tashkil etilgan, ustav kapitalining jami hajmi 555, 550 so'm bo'lib, jamiyatning ta'sischilari Ustav kapitalidagi ulushi:

T.Xoliqovning 64 % (355, 550 so'm);

A. Nenashevning 18 % (100, 000 so'm);

A.Rasulovning 18 % (100, 000 so'm) miqdorida belgilangan.

Jamiyat Nizomining 4.5-bandiga ko'ra, jamiyat davlat ro'yxatidan o'tayotgan paytda ishtirokchilarning har biri o'z ulushining 30 foizidan kam bo'lmagan qismini kiritgan bo'lishi kerakligi, jamiyat davlat ro'yxatidan o'tgan paytdan boshlab bir yil ichida har bir ishtirokchi o'z ulushini to'liq kiritishi lozimligi, 3.6.-bandiga ko'ra, jamiyat ro'yxatga olinganidan so'ng bir yil o'tgach ulushlari to'liq miqdorda kiritilmagan taqdirda, o'z ulushlarini kiritmagan yoki to'liq miqdorda kiritmagan ishtirokchi jamiyat oldida qonunga ko'ra javobgar bo'lishi belgilangan.

Biroq, A. Nenashev va A.Rasulovlar jamiyat davlat ro'yxatidan o'tgan paytdan boshlab bir yil ichida har bir ishtirokchi o'z ulushini to'liq kiritishi lozim bo'lsa-da, mazkur majburiyatlarini bajarmasdan kelgan.

AT "Xalq banki" Samarqand viloyati Siyob filialining 2020 yil

11 fevraldagi 09/153-sonli javob xati bilan, "Guli Marjon Servis" PBT MChJning 2006 yil 1 yanvardan 2011 yil 31 dekabrgacha bo'lgan davrda A. Nenashev va A.Rasulovlar tomonidan bank kassasiga jamiyatning ustav kapitalini shakllantirish uchun naqd pul mablag'lari topshirilmaganligini ma'lum qilgan.

TIF Milliy banki AJ Samarqand viloyat filialining 2020 yil

2 fevraldagi XV1227/11-sonli javob xati bilan, «Guli Marjon Servis» PBT MChJning 2011 yil 31 dekabrdan 2020 yil 10 fevralgacha bo'lgan davrda A. Nenashev va A.Rasulovlar tomonidan bank kassasiga jamiyatning ustav kapitalini shakllantirish uchun naqd pul mablag'lari topshirilmaganligini ma'lum qilgan.

"Guli Marjon Servis" PBT MChJ ishtirokchisi T. Xoliqovning tashabbusiga ko'ra, 2019 yil 6 fevral kuni soat 17:00da Samarqand shahri, Geofiziklar qo'rg'oni, Ibn Sino ko'chasi 8 A uyda ustav kapitalini ko'paytirish masalasi qo'yilib, jamiyat ishtirokchilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi chaqirilgan.

Bu haqda, ommaviy axborot vositalari orqali o'ttiz kun oldin e'lon berilib, jamiyat ishtirokchilari A. Nenashev va A.Rasulovlarga navbatdan tashqari umumiy yig'ilish bo'lib o'tishi to'g'risida xabarnoma yuborilgan. Mazkur xabarnoma A.

Rasulovga pochta xabarnomasi orqali topshirilgan bo'lsa-da, ta'sischi ushbu umumiy yig'ilishda hech bir sababsiz ishtirok etmagan.

A. Nenashev chet davlatga chiqib ketib, qaytib kelmagan va biror marta jamiyat faoliyatida ishtirok etish masalasida jamiyat bilan bog'lanishga harakat qilmagan.

Samarqand shahar "Tojmaxal" MFY raisi va faollari tomonidan tuzilgan 2020 yil 15 iyun kunidagi dalolatnoma bilan Samarqand shahar Abu-Bakr-Roziy ko'chasi 23 uy 50 xonadonda istiqomat qiluvchi 1973 yilda tug'ilgan A. Nenashev hozirgi vaqtda chet davlatga chiqib ketganligi ma'lum qilingan.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqqan holda da'vogar T. Xoliqov jamiyat ishtirokchilari A. Nenashev va A.Rasulovlar o'z majburiyatlarini qo'pol ravishda buzayotganliklarini bayon etib, ularni jamiyat ishtirokchilari safidan chiqarishni so'ragan.

I. Masalaning nazariy-doktrinal asoslari

1. Mazkur vaziyatdagi huquqiy muammoni adolatli hal qilishda xususiy huquqning qaysi doktrinalari va prinsiplariga murojaat qilish lozim?
2. MChJ ishtirokchilarining jamiyat oldidagi majburiyatlarini tahlil eting.
3. MChJ ishtirokchisining jamiyatni boshqarishga bo'lgan huquqlari qanday huquqiy prinsip va doktrinalarga asoslanishini yoriting.
4. MChJ ishtirokchilarining umumiy yig'ilishini chaqirish tartibini yoriting.

II. Muammoli vaziyatga huquqiy echim topish bo'yicha

1. MChJ ustav kapitaliga o'z hissalarini belgilangan muddatlarda to'la qo'shmagan A. Nenashev va A.Rasulovlarning hatti-harakatlari qanday oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga huquqiy baho bering.
2. Da'vogar T. Xoliqov tashabbusiga ko'ra 2019 yil 6 fevraldagi jamiyat ishtirokchilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi belgilangan tartibda o'tkazilganmi?
3. O'z hissalarini to'la qo'shmagan MChJ ishtirokchilarini jamiyat ishtirokchilari safidan chiqarilishga asoslar etarli? Javoblaringizni huquqiy asoslantiring.

Nazariy savollar:

1. Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori ustidan shikoyat qilish tartibini tahlil eting.
2. Ma'suliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilaridan biri ta'sis hujjatlarida belgilangan miqdorda jamiyat ustav kapitaliga o'z hissasini to'liq kiritmadi. Ushbu holat ishtirokchining sud tartibida ustav fondidagi ulushga bo'lgan mulk huquqini yo'qotgan deb tan olish uchun asos bo'ladimi?

3. Amaldagi qonunchilikka muvofiq korporativ nizolarning turlarini sanang va tavsiflang.

4. Sud tomonidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining, uni o'tkazish uchun belgilangan tartibni buzgan holda umumiy yig'ilish tomonidan qabul qilingan qarorni haqiqiy emas deb topishni rad etish uchun asos bo'la oladigan holatlarni tavsif eting.

5. Ma'suliyati cheklangan jamiyat umumiy yig'ilishi qarorlari yuzasidan nizolashish asoslari va tartibini yoriting.

10-MAVZU. ChET ELLARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING KORPORATIV SHAKLLARI (KORPORATSIYALAR)

1. Ingliz va kontinental Yevropa huquq-tartibotlarida savdo shirkatlari, xo'jalik jamiyatlari, korporativ birlashmalari

2. Ingliz va kontinental Yevropa huquq-tartibotlarida korporativ boshqaruvning huquqiy asoslari

Ko'pgina kontinental Yevropa davlatlari huquqida "shirkat" tushunchasi o'zbek huquqiga nisbatan kengroq ma'noda qo'llanilib, ham shirkatlar, ham jamiyatlarni qamrab oladi.

Fransiya huquqida shirkatlar o'zbek huquqidagiga o'xshash tashkilotlardir (fr. en nom collectif, en commandite simple) va bizning xo'jalik jamiyatimiz uchun mos bo'lgan tashkilotlar (fr. a, anonyme). Italiya va Germaniya qonunchiligida qo'llaniladigan "Gesellschaft" atamaları ham xuddi shunday deyish mumkin.

Ingliz-amerika huquqida korporatsiyalarning tasnifi o'ziga xos xususiyatlarga ega, ammo shirkatlar ba'zi bir izohlar bilan anglo-amerika huquqida sheriklikka (partnerships), jamiyatlar esa – kompaniyalar (companies) va xususiy korporatsiyalarga (AQSh, Kanada va Avstraliya huquqida corporations) mos keladi.

Savdo shirkatlarining tashkil etilishi va faoliyati solish fuqarolik va tijorat kodekslari normalari huquqiy tartibga solinadi (xususiy huquqning dualistik tizimi amal qilgan mamlakatlarda, masalan, Germaniya, Fransiya, Yaponiya), aksiyadorlik jamiyatlari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risidagi qonunlar (misol uchun, 1965 yildagi Germaniyaning Aksiyadorlik qonuni, 2006 yildagi Buyuk Britaniya kompaniyalar to'g'risidagi qonuni) va yana kamdan-kam hollarda shirkatlar to'g'risida. AQSh federal darajada yagona (model) qonunlarning qabul qilinishi bilan ajralib turadi hamda ular qaysidir ma'noda shtatlarning korporativ qonunlarini ishlab chiqishda hisobga olinadi (1994 yilgi Biznes korporatsiyalar to'g'risidagi model qonuni, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risidagi yagona qonun 1995 y.). Anglo-sakson huquqiy oilasi mamlakatlarida sud pretsedentlari ham korporativ huquqning manbai hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqining korporativ huquqi, birinchi navbatda, a'zo davlatlarda korporativ huquqini uyg'unlashtirish va unifikatsiyalashga olib keladigan va korporativ shaxslarning yangi, zamonaviy umummilliy tashkiliy-huquqiy shakllarini yaratadigan direktiva va reglamentlar bilan ifodalanadi. Hozirgi vaqtda ishtirokchi mamlakatlar uchun ixtiyoriy bo'lgan kompaniyalar (EMCLA) to'g'risidagi Yevropa model qonuni ishlab chiqilmoqda.

Shirkatlar. To'liq va kommandit shirkatlar barcha huquqiy tartibotlarda yuridik shaxs sifatida e'tirof etilmaydi. Misol uchun, Germaniya, Shveysariya, Italiya, va Kvebekda (Kanada) to'liq va kommandit shirkatlar (anglo-sakson huquqida umumiy nuqtai nazaridan mos keluvchi sheriklik (partnership), ular yuridik shaxslarning ko'p xususiyatlarga ega bo'lsa-da, unday hisoblanishmaydi. Aksincha, Fransiya, Ispaniya va Yaponiya qonunlariga binoan shirkat yuridik shaxs hisoblanadi.

To'lik shirkat shaklida (fr. en nom collectif, isp. sociedad en nombre colectivo – SNC) ko'pincha oilaviy uyushmalar yoki mutaxassislar uyushmalari tashkil etiladi. Ularda ta'sis hujjati sifatida ta'sis shartnomasi ifodalanadi (kamroq-ustav, Fransiya va Yaponiyada bo'lgani kabi), barqaror a'zolik va ishtirokchining huquqiy maqomi uchun talablar (tadbirkorning statusi), ishtirokchilarning shirkat bilan raqobatlashishiga taqiq (qonun hujjatlarida imperativ shaklda yoki dispozitiv shaklda ifodalangan bo'lishi mumkin), shirkat nomidan ishtirokchilar harakat qilishi, shirkat majburiyatlari bo'yicha ishtirokchilarning solidar cheklanmagan javobgarligi, ishtirokchilarning ichki munosabatlarini dispozitiv tartibga solishi hamda tashqi munosabatlari – imperativ normalar bilan tartibga solishi.

Ko'pchilik mamlakatlarda shirkatlarga a'zolikka hozirda nafaqat jismoniy shaxslar (tadbirkorlar), balki yuridik shaxslar ham yo'l qo'yiladi. Shunday qilib, to'liq shirkatlarda ishtirok etuvchi jismoniy shaxslar bilvosita, ya'ni yuridik shaxslar orqali ishtirok etib, shirkatning asosiy kamchiligi – cheklanmagan javobgarlik qoidasini yo'qqa chiqarishga muvaffaq bo'ladilar. Biroq, masalan, Fransiya qonunlari bo'yicha, agar yuridik shaxs to'liq shirkatda ishtirok etsa, uning rahbarlari xuddi o'zlari boshqaruvchilar (to'liq sheriklar) kabi shaxsiy javobgarlikni o'z zimmlariga oladilar.

Kommandit shirkatda (fr. en commandite simple - SCS, isp. sociedad en commandita – SC) ikki guruh ishtirokchilar mavjud – to'liq javobgarlikni oluvchi – komplementarilar, cheklangan javobgarlikni oluvchi – kommandistlar. Rossiya qonunchiligidan farqli o'laroq, bir qator xorijiy huquqiy tartibotlarda kommandit shirkatlar ikki shaxs tomonidan ta'sis etilishi mumkin – agar kamida bitta to'liq sherik va kamida bitta kommandit sherik bo'lgan taqdirda.

Aksiyadorlik kommanditi. Yevropa (qit'a) huquqi amal qiladigan bir qator mamlakatlarda, aksiyadorlik kommanditi yoki aksiyalar bo'yicha kommandit

shirkati kabi shirkat shakli ham bor (fr. en commandite par actions - SCA, nem. Kommanditgesellschaft auf Aktien). Ularda kommandit sheriklarning kapitali aksiyalarga bo'linadi. Bu shakl kommandit shirkat va aksiyadorlik jamiyati o'rtasidagi oraliq o'rinni egallab, aksiyadorlik kommanditi yuqoridagi an'anaviy shakllardan foydali farqlar, masalan, cheksiz miqdordagi hissadorlarni jalb qilish qobiliyatiga ham ega.

Kommandit shirkatga nisbatan aksiyadorlik kommanditining afzalligi – aksiyalar bilan tasdiqlangan korporativ huquqlarning osonlashtirilgan aylanmasidir.

Aksiyadorlik jamiyati. Mas'uliyati cheklangan yuridik shaxsning aksiyadorlik jamiyati sifatidagi bunday shakli (fr. anonyme - SA, ital. per azioni - SPA, nem. Aktiengesellschaft - AG) barcha rivojlangan huquqiy tartibotlarga ma'lum. Angliyada bu shaklga ommaviy kompaniya (ing. public company) mos keladi, AQShda – ommaviy korporatsiya (ing. public corporation). Ayrim mamlakatlar qonunchiligida aksiyadorlik jamiyatlarini ochiq va yopiq (Niderlandiya, Finlyandiya) larga bo'lish ko'zda tutilgan.

Fransiya va Italiya qonunchiligi aksiyadorlik jamiyatlarini ommaviy obunaga murojaat qiluvchi va qilmaydiganlarga bo'linadi. Oxirgi to'rt o'n yillik davomida Yevropa hamjamiyati direktivalarini amalga oshirilishi natijasida Yevropada aksionerlik jamiyatlari huquqining uyg'unlashtirilishi jarayoni ketmoqda, shunga qaramasdan Yevropa mamlakatlari doirasida ham farqlar saqalanib qolmoqda.

Aksiyadorlar tarkibi. Ko'pgina huquqiy tizimlarda aksiyadorlik jamiyatlarini bir shaxsdan iborat kompaniyalar shaklida yaratish yoki ularni ushbu shaklga o'zgartirishga imkon beradi. Biroq, ayrim mamlakatlar qonunchiligi, aksincha, ishtirokchilar (ta'sischilar) ning eng kam soniga oid qoidalarni belgilaydi. Masalan, Avstriya, Lyuksemburg, Italiya va Argentinlarda kamida ikkita ta'sischilarning bo'lishi talab etiladi. Ta'sischilarning soniga bo'lagan xuddi shunday minimal talablar Ispaniya va Yunoniston qonunchiligida ham mavjud (biroq, keyinchalik aksiyalar bir shaxs tomonidan jamlanishi mumkin). Germaniya, Polsha va Portugaliya qonunchiligiga ko'ra ta'sischilarning minimal soni – 5, Fransiya qonunchiligiga ko'ra – 7.

Ta'sis hujjatlari. Aksionerlik jamiyati ta'sis hujjatlari tarkibiga qo'yiladigan talablar turli huquqiy tartibotlarda bir-biriga to'g'ri kelmasligi mumkin. Misol uchun, Angliyada, Belgiya va Avstraliyada ta'sis hujjatlar – memorandum va ustav, Portugaliya – inkorporatsiya akti, AQSh – ustav (inkorporatsiya moddalari) va ichki reglament, Finlyandiya, Braziliya va Argintina – ustav va ta'sis shartnomasi, Germaniya – faqat ustav.

Ustav kapital. Ko'pgina mamlakatlarda aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonunchilik ustav kapitalining minimal miqdorini belgilaydi (masalan, Germaniyada – 50 ming evro). Angliyada ustav kapitali minimal miqdoriga oid

talablar faqat ommaviy kompaniyalariga nisbatan Yevropa Hamjamiyati Ikkinchi direktivalari talablarini bajarish maqsadida o'rnatilgan (xususiy kompaniyalar uchun bunday talab ingliz huquqida hozir ham mavjud). Ustav kapitalining ta'sis etish vaqtida qancha miqdori to'lanishi kerakligi to'g'risidagi qoidalar turli mamlakatlarda farq qiladi (Meksikada 20%, Avstriya, Belgiya, Portugaliyada – 25%, Italiya – 30%). Ba'zan qonunchilik ustav kapitalining kompaniya tashkil etilgan vaqtda kamida belgilangan eng kam miqdorini to'lashni talab qiladi.

Ko'plab tillarda aksiyadorlik jamiyati tom ma'noda anonim jamiyat deb ataladi (anonyme – Fransiyada, sociedad – Ispaniyada, naamloze vennootschap – Niderlandiyada), barcha huquqiy tartibotlarda aksiyalar egasini jamiyatda ishtirok etishining anonimligini to'liq ta'minlay ruxsat berilmagan. Avstriya, Gresiya va Portugaliyada taqdim etiluvchi aksiyalar[1] chiqarilishi mumkin, Fransiya, Finlyandiya, Braziliya, Venesuela va Avstraliyada esa faqat egasining nomi yozilgan aksiyalar chiqarilishi mumkin. Italiyada oddiy aksiyalar faqat egasining nomi yozilgan shaklda va ovoz bermaydigan aksiyalarni esa taqdim etiluvchi aksiyalar shaklida chiqarish mumkin. Irlandiyada taqdim etiluvchi aksiyalar Moliya vazirligi ruxsati bilan chiqarilishi mumkin.

Boshqaruv organlari. Aksiyadorlik jamiyati organlarining tuzilishi, qoida tariqasida, qonun hujjatlarida imperativ shaklda o'rnatiladi. Aksiyadorlik jamiyatida ikkita asosiy model mavjud: aksiyadorlar yig'ilishi, Boshqaruv kengashi yoki aksiyadorlar yig'ilishi va Kuzatuv kengashi. Ayrim mamlakatlar qonunchiligida (masalan, Fransiya, Italiya, Belgiya) ta'sischilarga ushbu ikki modeldan birini tanlash imkonini beradi. Ayrim mamlakatlarda aksiyadorlik jamiyatining turli organlarida lavozimlarni bir vaqtning o'zida egallashga huquqiy cheklovlar o'rnatiladi. Masalan, Germaniya qonunlari Boshqaruv va Kuzatuv kengashlaridagi lavozimlarni bir vaqtning o'zida egallashni taqiqlaydi. Fransiya qonunchiligiga ko'ra, Bosh ijrochi direktor va boshqaruv raisi vazifalari ajratiladi; Ijrochi direktor va Boshqaruv raisi lavozimlari boshqa hech qanday lavozim bilan bir vaqtning o'zida egallashi mumkin emas.

[1] Egasi haqida ma'lumot ko'rsatilmagan holda jamiyatda hissaga egalikni tasdiqlovchi qimmatli qog'oz.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat. Ko'pgina huquqiy tartibotlarda keng tarqalgan tijorat sherigligining umumiy shakli mas'uliyati cheklangan jamiyat (fr. a responsabilite - SARL, ital. a limitata - SRL, nem. Gesellschaft mit beschränkter Haftung - GmbH, goll. Besloten Vennootschap - BV). Belgiyada mas'uliyati cheklangan jamiyatga xususiy mas'uliyati cheklangan jamiyatga mos keladi, Lyuksemburgda – mas'uliyati cheklangan kompaniya, Portugaliyada – pay jamiyati, anglo-amerika huquqida esa – xususiy kompaniya va yopiq korporatsiya. Bundan

tashqari, AQShda yopiq mas'uliyati cheklangan jamiyatlar (angl. Private limited company - PLC) mos kelishi mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ta'sis hujjatlari sifatida: memorandum va ustav (masalan Germaniyada) yoki ustav (masalan Gresiya) hisoblanishi mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risidagi qonun hujjatalarida ustav kapitalning eng kam miqdori belgilanadi (odatda aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan kamroq miqdorda, masalan Niderlandiyada 18 ming evro miqdorda). Yuqorida ta'kidlanganidek, kompaniyalar to'g'risidagi ingliz qonunchiligining o'ziga xos xususiyati, xususiy kompaniyalar uchun minimal kapital talabi yo'qligidir (bunday kompaniya 1 pens kapital bilan ro'yxatdan o'tishi mumkin). Germaniyada mas'uliyati cheklangan jamiyatning yangi tashkil etilgan turi – tadbirkorlik kompaniyasi Unternehmergeellschaft (UG) uchun ham minimal kapital talabi nazarda tutilmagan (taqqoslash uchun, oddiy GmbH uchun kapitali 25 ming evrodan kam bo'lishi mumkin emas).

Mas'uliyati cheklangan jamiyat boshqaruv organlarining tuzilmasi ikki bo'g'inli yoki uch bo'g'inli ham bo'lishi mumkin. Umumiy yig'ilishda ovoz berishda ishtirokchining ovozlari soni odatda ustav kapitalidagi ulushining hajmiga bog'liq (ammo ovozlari sonini aniqlash mexanizmlari farq qilishi mumkin); ayrim masalalarni hal etilishida bir ovozdan qabul qilinishi yoki malakali ko'pchilikning ovozlari talab qilinishi mumkin. Masalan, Germaniya huquqi bo'yicha – ustav kapitaliga o'zgartirishlar kiritish uchun 75% ovoz talab etiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – ishtirokchilar mas'uliyati cheklangan yuridik shaxslarning turlari. Biroq, cheklangan javobgarlik tamoyilida istisnolar ham mavjud. Italiyada, barcha aksiyalar bitta shaxsning qo'lida jamlangan bo'lsa, ushbu shaxs jamiyatning majburiyatlari bo'yicha cheklanmagan javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

AQShda sudlar ushbu prinsipdan noqonuniy maqsadlarda foydalanilgan degan xulosaga kelgan hollarda cheklangan javobgarlik prinsipidan chetga chiqishi mumkin. Korporatsiyalarning harakatlari va qarzlari uchun ishtirokchilar shaxsan javobgar emasligi biznes korporatsiyalar to'g'risidagi namunaviy qonunda nazarda tutilgan, agar korporatsiyalar ustavida boshqa qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa yoki ishtirokchining shaxsiy javobgarligi o'z xatti-harakati bilan yuzaga keladi.

To'liq shirkat (umumiy sheriklik). Yuqorida qayd etilganidek, bir qator huquqiy tartibotlarda (Germaniya, Shveysariya, Italiya, Kvebekda), to'liq shirkat va anglo-amerika huquqi mamlakatlarida – umumiy jihatdan unga umumiy sheriklik (ing. general partnership) mos keladi hamda u yuridik shaxs hisoblanmaydi, garchi unda yuridik shaxsga xos bo'lgan bir qator sifatlarga ega bo'lsa-da. Ushbu xususiyatdan kelib chiqib u korporativ soliq va mol-mulk solig'ini to'lash

majburiyatidan forig‘ bo‘ladi, bu biznes uyushmasining mazkur shaklining shubhasiz afzalligidir.

Agar shirkatlar yuridik shaxs deb tan olinmasa, sheriklarning qo‘shgan mulki shirkat mulki hisoblanmaydi, balki uning a‘zolarining umumiy mulki hisoblanadi. Germaniya huquqiga ko‘ra, shirkat mulki uning ishtirokchilariga solidar ravishda tegishli bo‘lib va ular ulushlarga haqli emas.

Kommandit shirkat (cheklangan sheriklik). Kommandit shirkat ham Germaniya, Shveysariya, Italiya, va Kvebek kabi bir qator kontinental huquq mamlakatlarida yuridik shaxs sifatida e‘tirof etilmaydi. Xuddi ushbu xususiyatni anlo-amerika huquqidagi cheklangan sheriklik uchun ham aytish mumkin (ing. limited partnership; partnership in commendam).

AQSh qonunchiligiga ko‘ra, cheklangan sheriklikni tashkil etish uchun bitta umumiy sherik va bitta cheklangan sherikning bo‘lishi etarli. Germaniyada ko‘proq kommandit shirkatni tashkil etish keng tarqalgan (nem. Kommanditgesellschaft - KG), uning yagona komplementariysi (to‘ldiruvchisi) mas‘uliyati cheklangan jamiyat hisoblanadi, kommandistlar esa – jismoniy shaxslar – bunday jamiyatlarning ishtirokchisi (yoki yagona kommandist – yagona ishtirokchisi, agar bunday jamiyat “bir shaxs kompaniyasi” bo‘lsa; shunday qilib kommandit shaxs ortida bir shaxs turishi mumkin).

Kommandistlar shirkatni boshqarishda hech qanday vakolatlarga ega bo‘lmasada, Germaniya qonunchiligiga ko‘ra kommandistlar “g‘ayrioddiy bitimlar”ni tuzishda e‘tiroz bildirish huquqiga ega. Italiya qonunchiligiga ko‘ra, to‘lik sheriklar orasidan boshqaruvchi tayinlashda kommanditlarning fikri inobatga olinadi. AQSh qonunchiligiga ko‘ra, cheklangan sheriklarga sheriklik faoliyatining muayyan, ya‘ni eng muhim masalalar yuzasidan, masalan, yangi a‘zolari qabul qilish masalasida ovoz berish huquqi beriladi. Shu bilan birga, sheriklik shartnomasiga binoan barchaga yoki ayrim cheklangan sheriklarga boshqa masalalar bo‘yicha ovoz berish huquqini berishi mumkin.

Korporativ boshqaruv organlari. Mulkchilik va korporativ nazoratni ajratish konsepsiyasiga asoslanib, ommaviy kompaniyalarida boshqaruv organlarining a‘zolari odatda aksiyadorlar bo‘lishmaydi, yoki hech bo‘lmaganda sizilarli miqdordagi paket aksiyalarning egasi hisoblanishmaydi. Xususi kompaniyalarda esa aksincha, boshqaruv organlarida aksiyadorlarning ishtiroki juda keng tarqalgan.

Ma‘lumki, korporatsiyalar bir pog‘onali yoki ikki pog‘onali boshqaruv organlari orqali boshqariladi. Birinchi holat AQSh va Buyuk Britaniya (direktorlar kengashi – board of directors) uchun xosdir. Germaniyada aksionerlik jamiyati ("Vorstand") ning kundalik faoliyatini boshqaruvchi organ (Vorstand) bilan bir qatorda nazorat vakolatlarini amalga oshiruvchi organ (Aufsichtsrat) ham mavjud.

Nazariy savollar

1. Buyuk Britaniyada kompaniyalarning qanday shakllari mavjud va ularning orasida qanday farqlar bor?
2. Xorijiy mamlakatlarda kompaniyalarning qanday ta'xis hujjatlari mavjud?
3. AQSh kompaniyalari uchun "ikki tomonlama soliqqa tortish" tushunchasining mohiyatini ochib bering.
4. AQShda ommaviy bo'lmagan kompaniyani ommaviy kompaniyaga o'tkazish tartibini yoriting.
5. AQShda kompaniyalar qanday shakllarda tashkil etilishi mumkin?

Zaruriy adabiyotlar:

1. Корпоративное право: учебник / Е.Г. Афанасева, В.Ю. Бакшинская, Е.П. Губин и др.; отв. ред. И.С. Шиткина. 2-е изд., перераб. и доп. М: КНОРУС, 2015. С. 813-860
2. Nicola de Luca. European company law: text, cases and materials. New York: Cambridge University Press, 2017. S. 560-650
3. Paul L. Davies, Sarah Worthington. Gower's Principles of Modern Company Law 10th ed (eBook). Sweet & Maxwell Ltd. 2016. S.
4. Суханов Е.А. Сравнительное корпоративное право. М. Статут 2014. С. 10-150

Kazuslar

"Paris" MChJ quyidagi ta'xischilar tomonidan ta'xis etishga kelishildi:

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi A.Azimov – 43%;

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi S.Sadikov – 15%;

Norezident yuridik shaxs "REST" LLC (Buyuk Britaniya) – 42%.

Ta'xis yig'ilishi Toshkent shahrida bo'lib o'tdi, yig'ilish qarori imzolandi.

Jamiyatni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun ta'xis xujjatli ro'yxatga oluvchi organga topshirildi.

Oradan ikki oy vaqt o'tib, MChJ tadbirkorlik foliyatidagi muvaffaqiyatsizlik sababli ishtirokchi "REST" LLC o'z ulushini o'z sho'ba jamiyati korxonasi bo'lgan SELL LLC ga o'tkazishini ma'lum qildi. Jamiyatning qolgan ishtirokchilari esa ulushni olishga imtiyozli huquqi borligini, "REST" LLC o'z ulushini avval ularga taklif etishi lozimligini aytishdi. "REST" LLC esa bunga e'tiroz bildirib. U ulushini sotmayotganini, balki o'tkazayotganini, ulush unga mulk huquqi asosida tegishli bo'lib istaganicha tasarruf qilishini aytdi.

Shunday qilib, "REST" LLC o'z ulushini SELL LLC ga o'tkazilishini davlat ro'yxtidan o'tkazish uchun ustavga o'zgartirish kiritish va yangi tahrirda qabul qilish uchun ishtirokchilar umumiy yig'ilishi chaqirdi. Ishtirokchilar ulush o'tkazilishi bo'yicha ustavga o'zgartirishlarni tasdiqlashdan bosh tortishdi

Vaziyatga huquqiy baho bering.